TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

DAVLATMAMMAD OZODIY

91

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

DAVLATMAMMAD OZODIY

91

"O'ZBEKISTON"
TOSHKENT — 2022

UO‘K 821.512.164-1
KBK 84(5Tur)-5
D 14

Tahrir hay’ati:

Xayriddin Sulton — hay’at raisi,
Ibrohim G‘afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo‘ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo‘riboyev, G‘ofur Eshmurodov, G‘ayrat Bozorov,
G‘ayrat Majid, Bahodir Karim, Rustam Musurmon,
Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi

Bahodir Karim

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a’zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat “Turkiy adabiyot durdonalari” deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g‘oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo‘lib O‘zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko‘lamli, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O‘zbekiston, Turkiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro‘yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san’atga ko‘rsatilayotgan ulkan g‘amxo‘rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so‘z san’atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

ISBN 978-9943-8571-8-6
©“O‘zbekiston” nashriyoti, 2022

MAXTUMQULINING OTASI

Dunyo tamadduniga ulkan ma'naviy-ma'rifiy ulush qo'shgan muazzam shaxslar shunchaki o'z-o'zidan dunyoga kelmaydi. Nasl-u nasabi, urf-odatlari, iste'dodi, o'zlarining mashaqqatli mehnati ortidan orttirgan bilim va tajribalari ularni Yer yuzida bashariyatning bamisoli zulmatni yorituvchi porloq yulduzlariga aylantiradi. Yaratguvchining qismat qalami bunday insonlar manglayini chin ma'nodagi ziyolilik imzosi bilan ziynatlaydi.

Turkman mumtoz adabiyotining ulkan namoyandasi, dunyoga mashhur shoir Maxtumquli Firog'iyni ko'pchilik yaxshi biladi; dunyodagi barcha ma'rifattalab o'quvchi uni taniydi, sevib o'qiydi. Sozga tushgan so'zlari — qo'shiq bo'lgan she'rlari tinglovchi qalbini larzaga soladi; hikmati o'yga toldiradi. Shoirning she'rlari jahon xalqlarining o'nlab tillariga tarjima qilingan. Ammo Maxtumqulining otasi kimligi, dunyoga mashhur shoir ortida tog'dek tayanchi borligi, o'sha otaning ulkan ulamo bo'lgani, qalbidagi tuyg'ularini she'rga solgani hamda "Va'zi Ozod", "Behishtnoma", "Masnaviy" kabi katta hajmli ma'rifiy asarlar yozgani xususida, ehtimol, ayrimlar eshitmagandir.

Turkman adabiyoti tarixida o'ziga xos o'rin tutadigan shoir, Maxtumqulining otasi — Davlatmammad Ozodiy (1695/1700–1760) haqida ma'lumotlar ko'p emas. Zamonaviy turkman adibi Oraz Yag'murning "Maxtumqulinoma" kitobida otasining ismi Maxtumquli bo'lib, biroz shoirlikdan boxabarligi, qirq yoshida o'g'il ko'rib, unga Davlatmammad deb ism qo'ygani yozilgan. O'n ikki yoshida otasidan yetim qolgan Davlatmammad hayot maktabida tahsil oladi, tajriba orttiradi, Xivada o'qiydi. Keyin dehqonchilik, zargarlik, mudarrislik bilan shug'ullanadi. Otasining hurmati uchun o'g'liga Maxtumquli ismini qo'yadi. Davlatmammad Ozodiy o'z davrining bilimdon olimi, taniqli ziyolisi sanala-

di. Ikki ming baytdan ko'proq hajmli masnaviy usulida yozilgan "Va'zi Ozod" asarining mazmuni Ozodiyning Qur'oni Karimni, islom dini tarixi, Rasulullo (s.a.v.) hadislari, shariat ahkomlarini juda yaxshi bilganini ko'rsatadi. Rivoyatlarga ko'ra, o'ziga "Ozodiy" deb taxallus tanlashini Davlatmammadning tushi bilan bog'lashadi. "Tushiga payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) kirib: "Sen do'zaxdan ozodsan" degan emishlar"[1]. Ozodiy asarlari mustabid sho'ro zamonida — 80-yillarda turkman o'quvchilariga taqdim etiladi, ammo nashrdan chiqqan kitob davr mafkurasiga mos kelmagani uchun darhol kutubxona va kitob do'konlari tokchalaridan yig'ib olinadi, yo'q qilinadi.

Davlatmammad Ozodiyning kimligidan darak beradigan eng yaxshi manbalardan biri, shubhasiz, Maxtumqulining she'riy izhorlaridir. Shoirning adabiy merosi tarkibida otasiga ehtiromi balqib turgan "Mulla Ozodim", "Otamning", "Ozodim qani?" va boshqa bir qancha she'rlari bor.

"Mulla Ozodim" she'rida ota shuhratini "Ovozi jumla jahonga to'ldi" deb yozadi. Maxtumquli boshqa bir "O'g'lim — Ozodim" aytishuv she'rida otasi bilan savol-javob qiladi. Otasidan ruxsat olib safarga ketishni so'raydi, otasi o'z yonida qolishga undaydi. Shunda Maxtmuquli ketishining sababini: "Qalbimga kiribdir islom havasi", deb izohlaydi. Buni eshitgan Ozodiy: "Qur'on o'qib kezgin, yaxshi kalomdir" degach, tevarak-atrofdagi dushmanlar, qolaversa, qiyinchiliklar bor va qayerda o'lish-qolishing ma'lum emas, mazmunida so'zlaydi. Bunga javoban Maxtumquli aytadiki:

"Sinayin, ko'rayin bu kun iqbolim,
Yaxshi kun, xush sihat kelibmi solim,
Qasd etib jonima, yetsa ajalim,
Bu yerda ham bo'lsa, topar, Ozodim!"

Maxtumquli eslatadiki, qayerda bo'lmasin — tog'dami yo jarda, cho'ldami yoki ummonda, vatanidami yoxud musofirchilikda — qat'i nazar, rizqi uzilgan banda ajal sharbatini totadi. Shun-

[1] *Oraz Yag'mur.* Maxtumqulinoma (turkman tilidan Muzaffar Ahmad va Rustam Jabbor tarjimasi). "O'zbekiston" nashriyoti. 2016-yil, 13–14-bet.

dan Ozodiy duo berib, oq yo'l tilaydi: "Haq yo'ldoshing bo'lsin, mayli, bor, o'g'lim!". Otaning rizoligi har narsadan ulug'. Ota-bola o'rtasidagi bunday munosabatlarda orasta islom odob-axloqi, e'tiqodiy mezonlarga amalning namunasi yaqqol ko'rinadi.

Maxtumqulining "Odam ota bilan tushdi" degan savol-javobli yana bir she'ri bor. Bunda otasi Maxtumqulidan islom tarixidan — Qobil va Hobil holi, Nuh (a.s.), Yusuf (a.s.)lar, shariat amallari, payg'ambarimiz hayoti xususida so'raydi. Deylik, "Haqning Rasuli payg'ambar Haybarda qancha urushdi", savoliga Maxtumquli "Haybar tog'ida payg'ambar (s.a.v.), chun yetti oylab urushdi", deya javob beradi. Otasining ma'rifat bulog'idan suv ichgan shoir "Kuygan jonima" she'rining tuganchida, otasiga hurmat ko'rsatib: "Duo aylab o'tarman, ul Ozodiy ustozima", deydi. Eng muhimi, ustoz sifatida otasining nomi va martabasini tarixda yashab o'tgan, el-yurtga ezgulik ulashgan ulug' insonlar qatoriga qo'yadi. Tirikligida e'zozlaydi, vafot etganida yana yozadi:

"Oltmish yoshda, Navro'z kuni, luv yili,
Turdi ajal, yo'lin to'sdi otamning.
Bu dunyoning ishi bundayin, belli,
Umrining tanopin kesdi otamning".

"Otamning" she'ri qaysidir ma'noda Ozodiyning oxirat uchun ozuqa to'plash g'amida yashab o'tganidan, o'zini abdollar qatoriga qo'shganidan darak beradi. Maxtumquli ota do'stlarining jannatga doxil bo'lishidan umid etadi.

Tasavvur qiling, Maxtumquli safarga ketar mahali otasidan ruxsat so'rab, duo olib yo'lga chiqadi. Ta'lim olgandan keyin otasining imtihonidan o'tadi. Vafot etganida marsiya yozadi. Maxtumquli "ko'zining nuri" bo'lmish otasini sog'inganda yozgan hissiyotli misralari har qanday odam yuragini titroqqa soladi:

"Imomsiz qolgandir masjid-mehrobim,
Tug'madi sochib nur ul mohitobim[1]*,*
Yomon qoldim — sel olibdir atrofim,
Ko'nglimning ummoni — Ozodim qani?!"

[1] **Mohitob** — oy, oydin.

Boshqa bandlarda shoir otasiga "shahrimning sultoni", "minbarim azoni", "elimning zaboni", "yuragim oromi", "Go'klangning polvoni", "bog'imning rayhoni", "nomusim imoni" kabi ajoyib sifatlar beradi. Maxtumqulining ushbu she'ridan "Ozodim qani?" degan haybatli nola, ezgin afg'on, cho'ng dard eshitiladi. Otasini izlayotgan shoirning alamiga o'quvchi sherik bo'ladi; ko'ngli bo'shab, ko'zlariga yosh keladi.

Umuman, Maxtumquli she'rlari ichidan otasi — Damlatmammad Ozodiyga bag'ishlangan bunday she'rlardan chin musulmon bir insonning, tarbiyachi, olim, abdol, ma'lum bir komillik martabalariga erishgan otaning muhtasham, salobatli siymosini tasavvur qilish mumkin.

Shu bilan birga, Ozodiyning ijod namunalari bilan tanishgan o'quvchi uning oddiy bir inson, oddiy bir ota emasligini anglab yetadi.

"Va'zi Ozod"ni o'qigan kishi unga butun vujudi bilan kirishib ketadi, Ozodiyning pand-o'gitlaridan, ko'rkam ma'naviy olami sirlaridan bahra oladi; u zotning islom ahkomlarini, tasavvuf ilmi va tariqat odoblarini qanchalar chuqur bilishidan hayratga tushadi, to'g'risi.

Bizlarda g'arib bir fikr shakllangan. Bugungi kunning ko'pgina odamlari o'zidan nisbatan uzoq moziyda o'tganlarni gohida kamsavod, ko'p narsani bilmaydigan, deylik, o'sha o'tgan zamonlar hayotida hali kashf qilinmagan bugunning uchoqlari, temir-tersaklari, nanotexnologiyalarini ko'rmaganlari uchun qandaydir dunyoqarashi cheklangandek tasavvur qilishadi. Dunyo ilm-faniga o'z hissasini qo'shgan sanoqligina allomalarning nomlarini to'tidek sanashadi, boshqalarini bilmay turib kamsitadi. Holbuki, insoniyatning payg'ambarimiz (s.a.v.) bilan bir davrda yashaganlari, bir dasturxondan oziqlanganlari, u zoti sharifni ko'rib imonga kelganlari, sahobalar, tobeinlar, tabatobeinlar — bularning barcha-barchasi bizdan ko'ra Rasulullоh (s.a.v.)ga va uning qalb taftiga bugungi-yu ertaga keladigan avlodga nisbatan yaqin edi. Asl buloqning suvi toza, totli bo'ladi. Bu fikr qachonlardir xayolimda kezib yurgan, miyamning qaysidir puchmoqlarida mudrab yotgan ekan. Ammo uni qat'iy fikr tarziga kelishda, Rasulullоh (s.a.v.)ning shu xusus-

dagi hadislarini eslashimga Maxtumqulining otasi va uning asari sababchi bo'ldi.

Nima demoqchiman, Maxtumqulining otasi Damlatmammad Ozodiy o'z zamonasining olimi, ulamosi, odamlarni yaxshilikka chaqirib, yomonlikdan qaytargan bir donishmandi edi. Bu qarashni qat'iylashtirgan omil uning "Va'zi Ozod" asaridir.

"Va'zi Ozod" mazmun-mohiyatiga ko'ra, sharq mumtoz adabiyotidagi axloqiy-didaktik uslubda yozilgan asarlar sirasiga kiradi. Kitob hamd, o'tganlar ruhiga duo bilan boshlangan bo'lib, unda talqin etilgan adolat, saxovat, ma'rifat, ezgulik, ota-onani rizo qilish, saxiylik, olimning jamiyatdagi o'rni va boshqa qator masalalar negiziga Qur'oni Karim oyatlari, hadisi sharif mazmuni singdirilgan. Deylik, bir o'rinda odamlarni g'aflat uyqusidan uyg'onishga chaqiradi; "dam bu damdir" deya vaqt qadrini esga soladi. Xayr-u saxovat egasi bilan baxil odamni zid qo'yadi. Baxilning sherigi iblisdir, deydi. Boshqa bir sahifada:

"Kim jahonda xalqqa ehson aylagay,
Haq uning ishlarin oson aylagay", —

deb ehsonni ulug'laydi.

Ozodiy chin olimni amali bilan yonma-yon ko'radi. Amalsiz olim nodondan battar. Bunday kimsani ipsiz ninaga, ish quroli yo'q ustaga, qo'lida qalam-siyohi bo'lmagan kotibga mengzaydi. Zero, uning ta'kidlashicha:

"Ilmdan maqsad — bu amal etmoq turur,
U bilim bilan Haqqa yetmoq zarur.
Gar ilmda maqsad bo'lmasa amal,
Yuz berar da'vo, takabbur, yuz jadal".

Oqibatda amalsiz olim zalolat dengiziga g'arq bo'lishi mumkin. Ozodiy o'zgaga nasihat qiladi, ammo o'z nafsini tergab turishni hech unutmaydi. Shuning uchun gohida: "Jon-u dildan Haqqa xizmat etmadim, Yaxshilar yetgan maqomga yetmadim", deb o'ziga o'zi malomatlar qiladi, tanbehlar beradi.

Ozodiy "Behishtnoma" asarida ham Yaratguvchining qudratidan hayratlanib so'z ochadi:

"Ajab qudrat bilan qudratli Qodir,
Ki tirgaksiz tikibdir turfa chodir.

To'shamish yerni, mix etmish jaballar[1]*,*
Ki ko'rki jumla bo'ston-u asallar.

Qilibdir bu jahonni koni ne'mat,
Nazar qil, bormi hech poyoni ne'mat".

Ora-orada "Ey Odam farzandi" deb o'quvchiga yuzlanadi, unga umrining o'tkinchiligidan, ogoh bo'lishdan saboq beradi. Asar nomiga mos ravishda jannat vasfini keltirar ekan, uning darajalari va "Dorul jinon"[2], "Dorul salom", "Ma'vo" , "Xuld"[3], "Naim", "Firdavs", "Adn" kabi nomlanishlarini keltirib, ularga go'zal shoirona ta'riflar beradi. Jannat ahli, undagi og'ochlar, daryo va oqib turgan suvlar — barcha-barcha betakror jihatlarni o'quvchi shuuriga yetib boradigan sodda yo'sinda tushuntiradi.

Haq rizosini, sabr-qanoatni qadrlaydi:

"Kishi Haq yodini sevmak tilasa,
Egasin jon bilan o'gmak[4] *tilasa.*

Tutub sunnatni nafsi mone bo'lsin,
Xudoyi har na bersa qone bo'lsin.

Tama birla yirtmasinlar yurakni,
Ki uzsin bo'g'zidan bu nafsi sakni"[5].

Yaratguvchiga muhabbati bo'lgan odam, albatta, Rasulullоh (s.a.v) sunnatlari — hadislarni o'ziga dastur qilib oladi, nafsini jilovlaydi, tamadan uzoq bo'ladi. Zero, ozodiylarga ustoz maqomidagi Hazrat Alisher Navoiy yozganlarki:

"Xorlig'lar boshi tama bilgil,
Doimo "azza man qana" bilgil".

---

[1] **Jabal** — tog'.

[2] **Dorul jinon** — jannat uyi.

[3] **Xuld** — 1. Adabiylik. 2. Jannat.

[4] **O'gmak** — bilmoq.

[5] **Nafsi sak** — itning nafsi.

Ya'ni tamagirlik odamga xorlik keltiradi, qanoat qilgan odam esa hamisha azizdir. Shu ma'noda Ozodiy, tamadan uzoq bo'lishga, itnikidek hakalak otgan nafsni o'ldirish lozimligiga urg'u beradi.

Odamzod bu dunyoda hech narsaga to'ymasligi mumkin. Ammo jannatda, abadiy hayot olamida inson uchun huzur-halovatli boshqa bir dunyo bor. Deylik, undagi ozuqa ham aslo tamom bo'lmaydi:

"Bu uchmoxning taomi foniy bo'lmas,
Yeb-icharlar, hargiz poyoni bo'lmas".

Bizning tasavvurimizga sig'maydigan bunday jannat makonni anglash uchun Qur'oni Karimni, Hadisi sharifni, shu barobarda, albatta, "Behishtnoma"ni o'qish lozim. Muhimi, "Behishtnoma"ga doir ta'rif va tavsiflar Ozodiyning ma'naviy xazinasining kaliti bo'lgan islom dini ahkomlari mazmuniga to'la mos keladi. Musulmon olami shoirlari, o'zlarini komil musulmon sanagan qalam egalari so'zga xiyonat qilgan emas; so'z vodiylarida adashgan emas, o'zlari amal qilgan va amal qiladigan so'zlarni yozishgan, albatta. Bugunga kelibgina aytilayotgan, har qanday ijodkor dunyoqarashi va qalamining siyohiga tegishli bo'lgan ushbu ulkan haqiqatni hamisha esda tutmoq kerak.

Ozodiyning "Masnaviy"sining mohiyati ham "Va'zi Ozod", "Behishtnoma" kabi asarlariga mazmunan uyg'un keladi. Asar an'anaviy tarzda Allohga hamd, Rasulullоh (sallallohu alayhi va sallam)ga salovat aytish bilan boshlanadi. Undagi yaxshilikka targ'ib, yomonlikdan qaytarish, namozning fazli, tavbaning tavsifi, qarilik bayoni kabi qator jihatlari o'quvchilar e'tiborini o'ziga tortadi.

"Tavbadir jumla ibodatlar boshi,
Tavba qilmoqdir valilarning ishi.

Tavba davlat uyining ochqichidir,
Tavba jumla hojatning bosqichidir.

Tavba ermish barcha erlarga najot,
Tavbadir bergan ko'ngillarga hayot.

Tavbadir dard-u gunohlarga shifo,
Dardmandlar yarasiga uldir davo..."

Bu Ozodiy tavsifining tavbaga oid bir qismi. Aslida Qur'oni Karim oyatlarida xolis tavba qilgan mo'minlarning najot topishiga doir xitoblar keladi. Xolis Alloh uchun tavba qilgan kishi qaytib gunohlarga qo'l urmaydi. Tavbadan maqsad — poklik. Tavbadan maqsad — Allohning rizoligi. "Albatta, Alloh tavba qiluvchilarni va o'zlarini mudom pok tutuvchilarni sevadi" (Baqara, 222). Ayni mavzuda Rasulluloh (sollallohu alayhi va sallam)dan ushbu hadis rivoyat qilingan: "Tavba qilguvchi kishi Allohning suygan qulidir. Gunohdan tavba qilar ekan, go'yo u gunohi yo'q kishi kabidir" (Ibn Moja rivoyati). O'zini anglagan kishi uchun tavbaning ahamiyati katta.

Ozodiy "Masnaviy"sidagi birgina mavzu munosabati bilan bir dunyo mulohazalar paydo bo'ladi. Bunga o'xshash tilga olingan har bir mavzu yuzasida ancha chuqur fikr yuritish mumkin. "Masnaviy" dunyo va oxirat, savol-javob, dunyo molining o'tkinchiligi kabi qator masalalar yuzasidan fikrlashga undaydi. Odamni bu dunyo tashvishlaridan bir muddat ajralib, oxirat ozuqasi tomon yo'llaydi. "Masnaviy" sharq mumtoz didaktik adabiyotiga hamohang bo'lib, inson qalbini ma'rifat suvi bilan to'yintirish uslubida yozilgan asarlar jumlasiga kiradi...

Umuman olganda, Davlatmammad Ozodiyning ijodiy merosi, komil qarashlari, asarlarining umumbashariy mohiyati Maxtumquli suv ichgan zilol buloqlarni, dunyoqarashini shakllantirgan va unga ma'naviy ozuqa bergan muhitni tasavvur qilishga yordam beradi. Ikkinchidan, Maxtumqulidek bir daho islomiy ma'rifat bilan butun vujudi limmo-lim to'lgan shoirning dunyoga kelish sabablari ustida o'ylaydi odam. Halol luqma, teran ta'lim-tarbiya, haqgo'y ustozlar, jiddiy mushohada, yuksak odamiylik — bularning barcha-barchasi jamuljam bo'lgan bir vaziyat Maxtumquli dahosini tarix sahnasiga olib chiqdi. Bu dahoning tayanchi, bu adibning ilhomchisi, bu shoirning tarbiyachisi, albatta, otasi Davlatmammad Ozodiy edi.

Bahodir Karim,
filologiya fanlari doktori, professor

VA'ZI OZOD

Kirish

Cheksiz olqish ul Xudoyi akbarga,
Turli-turli ne'matin yoydi yerga.

Bu olamni bizga dasturxon etib,
Sochdi bor ne'matlarin alvon etib.

Yer yuzini bog'-u gulzor ayladi,
Sayratib bulbullarin zor ayladi.

Bog'larda gul yaprog'i rangdor bo'ldi,
Shoxalar ham barg yozib, gulzor bo'ldi.

Ham bog'bonlar ahliga ko'zlatdi ul,
Jon-u dildan har birin so'zlatdi ul.

Bu ne'matlar aytar zikr-u sanoni,
Tilidan qo'ymayin hech "Rabbano"ni.

G'ofil bo'lmas alar Alloh yodidan,
To'g'ri yurar haqiqatning yonidan.

Ko'rki birla Tangridan bu tog'-u tosh,
Ko'zlaridan oqdirarlar achchiq yosh.

Hu-hu — Haq, deb suv ovozi chiqdi, ko'r,
Oromi yo'q, kecha-kunduz oqdi, ko'r!

Yer yuzida bo‘lsa har xili jondor,
Barchasi o‘z tilida chekardi zor.

Hay-hay bilan esar bu yellar tamom,
Do‘stlaridan Tangriga yetar salom.

Hech bir maxluqni farog‘at ko‘rmadim,
Nedir sirlari bu xalqning — so‘rmadim.

Aniq bildim: maqsadi Alloh erur,
Doim tilida zikri illallohdur.

Odam o‘g‘li, ol bulardan ibratni,
Bunyod et o‘zingda kuch-u g‘ayratni.

Umid uzma rahmati Ilohiydin,
G‘ofil bo‘lma sen zikri illallohdin.

Qavluhu taolo: “Vazkurulloh
kasiyran, laallakum tuflihun”[1].

Oqil egasi bo‘l, haqsiz urma dam,
Zor bila chek ishqida dard-u alam.

Yumshatib ko‘nglini hikmat so‘z bila,
O‘z dardingga Haqdan yaxshilik tila.

Yig‘lagay arz etib shom-u saharlar,
Qul yig‘lasa, rahmat berar bahirlar.

G‘ofil bo‘lma yig‘lamoqdan zor ila,
Suhbat etma bir yog‘iy — ag‘yor ila.

[1] *Qur’on.* 8-sura, 45-oyat. *Ma’nosi:* “Doimo Allohni yod etingiz, shoyad najot topursizlar”. (Bu va boshqa oyatlar tarjimasi Shayx Alouddin Mansur qalamiga mansub.)

Xarrat anjomiga o‘z nafsingni sol,
Egri yering tekis bo‘lar bemalol.

Shu anjomda tekislanmas bilsalar,
Olam ichra gapi kechgan kimsalar.

Bas, tuzalmas bir yog‘och o‘t ko‘rmasa,
Bir do‘kon ichra uni kezdirmasa.

Ul behruz choradir zolim nafsingga.
Egri nafsing — bedavo darddir senga.

Kim tuzalsa, topar ul manzil-makon,
Egri yetmas manziliga hech qachon.

Kim og‘ir yuk ortsa agar moliga,
Yuk manzilga yetmas, voydir holiga.

Qalbing yomonlikdan orasta tutgil,
O‘z-o‘zingdan bilib, Haq ishin etgil.

Uzoq yur manmanliq, takabburlikdan,
Uzoq tur mol-dunyoga asirlikdan.

Uzoq bo‘l qilg‘iliq, g‘avg‘o-g‘iybatdan,
Badgumon bo‘lishdan, quruq tuhmatdan.

Badqiliqdan, birovni injitishdan,
Harom bilan munkar ishga ketishdan.

Ki noo‘rin qahr-u g‘azab etishdan,
Goho yomon so‘zlab, toshlar otishdan.

Kim bu yomon ishni ko‘ngliga solsa,
Qo‘y, o‘zidan ko‘rsin yer kabi bo‘lsa.

So‘ngra “tuzaldi” deymiz o‘sha kimsa,
Haq yodidan boshqa ishi bo‘lmasa.

Egri odam har vaqt badbin bo‘ladi,
Mard odam o‘z aybin o‘zi ko‘radi.

Jon-dildan Tangriga yetirgin shukring,
Yomondan qoch, yaxshi bo‘lsin har fikring.

Tobe bo‘lib Haqqa aytsam salovat,
Haq ishqida bo‘lar maqsadim murod.

Olam ichra anbiyo ham avliyo,
Maloyik, xaloyiq bir kuni o‘lya[1].

Yer yuzindan mo‘min kishi — barchalar,
Yashab keyin bu dunyodan kecha(r)lar.

Men faqirdan bo‘lsin sonsiz duolar,
Mehr-u olqish, ibodat ham sanolar.

Ul ulug‘ mahshar kunida, ey Xudo,
Shu zotlardan bizni qilmagil judo.

Zeroki, katta gunohli bandaman,
Men suyarman ularni har qayda man...

DURUD AYTISH BAYONI

(Yaxshilik duosi)

Ko‘p salomlar bu jahonning tojiga,
Jon deb ergash Haq ila me’rojiga.

O‘n sakkiz ming olamda ul yaxshilik,
Ummatiga davlat, yengish — xush qiliq.

[1] **O‘lya** — o‘ladi.

Usiz bo‘shdir ham osmon-u ham zamin,
Vasfidir chun “Rahmatan lil olamin”.

Yuz shukurkim, ummat bo‘ldik ul Yor(g)a,
Yuzi qaro bo‘lsak-da biz bechora.

Ham uning avlodi, nasli bariga,
Barcha as’hobiga ham to‘rt yoriga.

DUO-TILAK

Yorlaqagin, ey Xudoyim, sen biz(n)i,
Ko‘zi ochiq doim rahmat dengizi.

Ota bilan onalarimiz haqi,
Ustozimiz Payg‘ambirimiz haqi,

Yorlaqa shayxlar-mashoyixlar haqi,
Haqni sevgan ul xaloyiqlar haqi,

Yorlaqagin sen barcha mo‘min qullarni,
Ahli imon, ahli islom ellarni.

Bo‘lmasa ham qullikka xos ohlarim,
Haddan oshdim, ko‘p erur gunohlarim.

Bas, yomon kuyli qulingman, Bir-u bor,
Ko‘p injitdim seni men, Parvardigor.

Ko‘z bilan ko‘nglim yomon ishdan yiroq
Tutmadim, magar sendan tushdim uzoq.

Fisq-u fujur ishdan ko‘zladim xayr(n)i,
Bir dam bo‘lmam dunyo nafsidan ayri.

Nafsi shayton yo‘lim bog‘lab oldilar,
Ko‘nglimga ko‘p yomon o‘yni soldilar.

O‘zim bilmay, yuz ming gunoh ayladim,
Yer yuzida gunoh so‘zlar so‘yladim.

Dunyoning izidan qo‘ydim men qadam,
Mol istadim har mahal-u har bir dam.

Jon bilan chekdim jafosin, vodarig‘,
Istadim zavq-u safosin, vodarig‘.

Foniy ermish, ko‘rmadim mundan vafo,
Ko‘p jafoli bevafomish, bevafo.

Tinmayin yeldim-yugurdim men hamon,
Bermadim bir dam ko‘ngil Alloh tomon.

Dunyo sarishtasin men yaxshi tutub,
Oxiratning sarishtasin unutib,

Farz, vojib, sunnat, adabni ko‘zlamay,
Haq so‘z aro harom so‘zlar so‘zlamay,

Dunyoda fisq-u fujur etganlarni,
Yaxshi bilib, do‘st tutibman alarni.

Yaxshilarning xizmatida turmadim,
Ham ko‘zimga poyi gardin surmadim.

Jon-u dildan Haqqa xizmat etmadim,
Yaxshilar yetgan maqomga yetmadim.

O‘tdi umrim yemak-ichmak ayshida,
Bo‘lmadim bir dam imon tashvishida.

O‘tdi umrim vodarig‘-o, vo(h) bilan,
Foyda ko‘rmay sarposiz savdo bilan.

Qilmadim bir zarra loyiq bandalik,
Gunohkorman, tortaman sharmandalik.

Har on senga yuzlandim, ey Zuljalol,
Xaloyiq egasi, mulki bezavol.

Har dam karamingdan umid aylaram,
Bo‘ynimga osiylik tushsa naylaram?

Oqtirib keldim ko‘zimdan yosh bu dam,
Ming bir tavbam bilan, Egam — Zulkaram.

Daryoday rahmatdan umid etdim men,
Rahim etagidan mahkam tutdim men.

Sendan boshqa joyda yo‘q borar yerim,
Qo‘ymisham yo‘lingda bu jon, bu sarim.

Uzma umidim, bir umidli bandaman,
Yo‘ldan ozdim, it kabi darmandaman.

Oyati “Lataqnatu”[1]ni ko‘rdim, oh,
Eshigingga qora yuz keltirdim, oh.

Yorlaqa endi Sen jahon ovorasin,
Ham yana barcha jigarlar porasin.

Bo‘sh aylama taqvo ilmidan yana,
Mahshar kuni qo‘lla bizni, Robbana.

Dargohingga to‘g‘ri qilgin yo‘llarim,
Ham zikriga ravon ayla tillarim.

Umrimiz rishtasi uzilgan chog‘i,
Yo‘ldosh etgin bizga imon chirog‘i.

[1] **“Lataqnatu”** — “umidsiz bo‘lmang” *(tarj.)*.

Gunohim kechib, eltgin meni yoningga,
Halovat ber bu g‘arib mehmoningga.

Ul yaqin qullar ichra tutgil meni,
Shular bilan turg‘izgin mahshar kuni.

Barcha g‘amdan ozod emassan, Ozod,
Ikki dunyo ichra bir maqsad-murod.

Rasulullоh qo‘shniligin qil nasib,
So‘fi-darvesh bilan bo‘lsam men g‘arib.

Baxsh ayla u kun diydoring, yo Jalil,
Diydorsiz ne’mating naylar do‘st-xalil.

Yo Rab, ul diydoringni bersang menga,
Ilohiy yuzing ravo ko‘rsang menga.

Jonimni ming jon etib, qurbon o‘lsam,
Parvonadek o‘zim o‘tlarga solsam.

Jon ichida, balki, qurboning sening,
Barcha a’zo banda — farmoning sening.

Darddosh bo‘lsang, tingla meni, oshiqing,
Diydorli kun oshiqqa eng yaxshi kun.

Barchaga ravo ko‘r o‘z diydoringni,
Saharlar tavbali men bedoringni.

BIRINCHI BOB

Bobi avval podishohlar vasfini,
Xudoyim yor bo‘lsa, so‘zlasam uni.

Sarvari olam Muhammad Mustafo,
Din uchun joniga berdi ko‘p jafo.

Odil edi, odillikni sevdi ul,
Barchalarga “Odil bo‘ling” derdi ul.

Haqdan kelgan adolat — rahmat bo‘ldi,
Ko‘p yengish qozonib, davlati to‘ldi.

Rasuldan so‘ngra yana to‘rt choriyor,
Ayladilar adolatni barqaror.

“Odil bo‘ling” deydi oyatda Xudo,
Odilni Haq suyar har ikki dunyo.

Haq birla hokim bo‘lsa agar bir er,
Kecha-kunduz odil hukmin aylayir.

Hokimlar jahonda odil bo‘lsa gar,
Adolat ila Yer yuzini bezar.

Odil hokim bo‘ldi Haq payg‘ambari,
Chunki ko‘makchim, deb aytdi alar(n)i.

Shohkim, ishi bo‘lsa odillik aning,
Yer yuzida soyasi ul Tangrining.

Odillikdan bo‘lsa gar xaloyiq shod,
Dargohida topsa g‘ariblar murod,

Haq taoloning sevar bandasi biling,
Rasul ummatining yaxshisi biling.

Mehri uning — Haq taolo mehridir,
Qahri uning — Haq taolo qahridir.

Ko‘rma hukming Tangri hukmidan yiroq,
Inonmasang, kelgin bu oyatga boq.

Alloh so‘zidir: “Atiullaha va
atiur-rasul va ulil amri minkum”[1].

Odil qadam qo‘ysa bir yerga agar,
Shu yerning xalqiga Haq rahmat berar.

Din uyining soqchisidir podishoh,
Shuning uchun amrin tuting, der Alloh.

Din ahlining bo‘lmasa bir sultoni,
Mengzagay el suvratga, yo‘qdir joni.

Yer yuzining ziynatidir podishoh,
Xalq-u davlat qimmatidir podishoh.

Podishohi bo‘lmasa bir makonning,
Yo‘q nishoni unda xayr-u ehsonning.

Zulm-u jabr bo‘lar xalqning peshasi,
Oxiratdan bo‘lmasa andeshasi.

Go‘yo bir-biriga jabr etgan qurt-qush,
Xalqlar qilar oralarida urush.

Haq-u nohaq farqin bilmagan nodon,
Qasd etarlar bir-biriga begumon.

[1] Bu yerda Qur’onning 4-surasi, 59-oyati misol keltirilmoqda. Yuqoridagi misradagi “oyatga boq” degan jumla shunga ishoradir, ya’ni bu oyatning ma’nosi: “Ey mo‘minlar, Allohga itoat qilingiz va payg‘ambarga hamda o‘zlaringizdan bo‘lgan (ya’ni musulmon) hokimlarga bo‘ysuningiz”.

Agar tanbehini bersa podishoh,
Kechirim so‘rab kelgay har bir ogoh.

So‘ng ulardan bor gunohlar to‘kilgay,
Bir-birovga bori yordam ham qilgay.

Kelar ular bir shariat yo‘liga,
Qarab ul g‘arib-faqir holiga.

Haq amridan halollik topgay ular,
Shoh o‘ziga noyibi-yoron qilar.

Qilgan xayr ishlar bo‘lgaydir qabul,
Noyiblarning hukmi bo‘lmasa zoyil.

Podishohga qonun hukm aylagay,
So‘ng qonunni shohlar tili so‘ylagay.

Qonundir dunyoda shohlarning shohi,
Shoh esa shu qonunning bir shoxasi.

Qonundan din yo‘li bo‘lgandir ravon,
Bosh ko‘tarmas barcha zolim-u nodon.

Podishohsiz hech xaloyiq qolmagay,
Dindan chiqqan kimsa muslim bo‘lmagay.

Bo‘lmas tojirlarning yo‘llari omon.
Chorasin qilmasa bir shohi hamon.

Yo‘ldan chiqsa, unga jazo bermasa,
Odam o‘ldirganni shoh o‘ldirmasa,

Topilmas g‘arib-faqirning xush kuni,
Dushman bo‘lar uyida og‘a-ini.

Ya’ni zolim qanotin yulmoq kerak,
Tan jazosin tuzgunga solmoq kerak.

Qanoti sog‘, kim semiz bo‘lsa tani,
Tinch qo‘ymaydi hech musulmon bandani.

Podshohdir din tabibi, podishoh,
G‘arib miskinlarga u bo‘lgay panoh.

Xaloyiq dardidir bir zolim hayvon,
Ushbu dardga shohlar topsinlar darmon.

Bu dardning darmonin so‘zlasam senga,
Amir bo‘lsang zahri qotil ber menga.

Rohat bo‘lsin ojiz, g‘ariblar ham(m)a,
Oxirini o‘ylab, botmagil g‘ama.

Haqdan bo‘lar podshohlar qo‘rquvsi,
Haqdan qo‘rqsa, naf ko‘zlamas, to‘g‘risi.

Mo‘minlarning bo‘lmasa gar sultoni,
Misli qo‘ydir, yo‘qdir alar cho‘poni.

Vahshiylardan yana bandaning moli,
Cho‘poni bo‘lmasa, xarobdir holi.

Yoz ekini bilgil mazlum qullarni,
Tangri amrin jon bilan tutganlarni.

Soqchi deb bil ularga hokimlarni,
Buzg‘unchi bil yana ul zolimlarni.

Bir ekinkim, soqchisi ko‘zlamasa,
Yo xabardor: “Ko‘zla” deb so‘zlamasa.

Ul ekin bo‘lsa xarob shu soati,
Soqchining ham hech bo‘larmi rohati?!

Alg‘araz, vahshiylar yo‘lin beklagin,
Qo‘ylarni yovlardan omon saqlagin.

G‘ofil bo‘lma, hamisha yur boxabar,
Bu vojibdir, shunda ketar balolar.

Qonun bilan kengash chaqirar amir,
Maslahat bergay vakil bilan vazir.

Do‘st bilsin ul darvesh-u olimlarni,
Dushman bilsin o‘ziga zolimlarni.

Mazlumni qutqarib zolim qo‘lidan,
Xabar olsa raiyatning holidan.

Barcha odam bir-birini tuzlagay,
Din bo‘yicha to‘g‘ri yo‘lni so‘zlagay.

Qaysi shohki, niyatin rost aylagay,
Ul o‘zini Xudoga do‘st aylagay.

Xayr qilsa, unga Allohim boqar,
Yerlarga o‘tlar chiqar, yomg‘ir yog‘ar.

Tuzalar el, chashmalar bo‘lar ravon,
Yashnagay xalq, yurt topib tuzgin-nizom.

O‘g‘ri, zolim, yo‘lsizlar yo‘lin bilar,
Shoh odillik bilan chorasin qilar.

Olim-u miskin-faqir topgay pano(h),
“Shohni omon saqla, — derlar, — Rabbano!”

Ushbu odillik Haqqa ma’qul bo‘lar,
Kim rad aylasa, balo Haqdin kelar.

Xalos etar Tangri o‘z balosidan,
So‘zi o‘tkir, xalqi rozidir undan.

O‘tgan zamonda ikki shohning so‘zlashgani haqida hikoyat

Deydilar: o‘tgan zamon shoh bor emish,
Odillik-la yurtni nizom aylamish.

Olim-u solihlar-u miskinlarni
Jam qilarmish o‘z ko‘shkida ularni.

Berarmish ehson etib har biriga,
Ham holat, in’om ularning bariga.

Boshqa bir sulton anga tang aylamish,
“Yoningga yig‘na navkar” deb so‘ylamish.

“Xayr-ehson sen navkarga aylagil,
Har yerda ularga to‘nlar poylagil[1].

Dushmaningni darrov daf etsin ular,
Qayga farmon aylasang, ketsin ular”.

Dedi bu shoh: “Ul navkarlar, ey kishi,
Daf etar dushmanimdan bir ulush(n)i.

Qilich bilan yuz qari yo‘ldan yana,
O‘q bilan uch yuz qari yo‘ldan yana.

Tarbiya berdim bu lashkarga tamom,
Duo qilar ular erta-yu oqshom.

O‘q ko‘ziga o‘q urar u duolar,
Yer-u ko‘kda yog‘iy armonda qolar.

Ul duo qilichlari tig‘dan yitti,
Olmosdek kesib ketar yetti qatni.

[1] **Poylamoq** — tarqatmoq.

Ul duoning nayzasi ko‘kka yetar,
Lashkari shaytonlarni vayron etar.

Men ularning to‘poriga kirmisham,
Xizmatkordek xizmatida turmisham.

Mard uldirkim, ularga in’om etar,
Ularning ehtiyojin anjom etar.

Qo‘y, ularning ko‘ngli hech injimasin,
O‘g‘il-ushoq qayg‘usida bo‘lmasin.

Har kimki olamda bo‘lsa shoh, amir,
Soyasida xush bo‘lsin g‘arib-faqir.

Demagil sen: shoh ularni saqlagay,
Har mo‘minki bu so‘zimni haq degay”.

To‘g‘ri dermish bu so‘zlarni nargi shoh,
Darvesh duosidan toparlar panoh.

Sen aslo darveshlardan igranmagil,
Ishlarim behudadir deb sonmagil.

Bordir darveshlarda ming turli duo,
Duoda(n) iymanar balo-yu qazo.

Sen ularning duosini olaver,
Mol-u joning birla ishda qolaver.

Agar ular o‘lsalar ham qilma xor,
Har zarraning Haq oldida qadri bor.

Ularsiz bu jahon buzg‘unlik topar,
Mo‘min ellar bir-birin qurtdek chopar.

Yiqilar osmon, buzilar yetti yer,
Qolmagay Tangri degan birorta er.

FASL

Hazrati Umar dunyodan o‘tgandan so‘ng bir kishining uni tushida ko‘rgani bayoni

Rasulullоh hadisidan bilsangiz,
Yordam bering xalqqa qodir bo‘lsangiz.

Podishohga lozim bo‘ldi, ey ko‘zim,
Barcha mehribonlarga budir so‘zim.

Haq Rasuliga jonajon edi Umar,
Odillik bog‘idan mevalar terar.

Rahm qilardi barcha mavjudotlarga,
Yordam aylab barcha maxluqotlarga.

Oyoq ostidagi qorinjani-da,
Injitmadi, bosmadi ul foniyda.

Jon berib, dunyodan ul o‘tgan zamon,
Birovning tushiga kirdi begumon.

“Tangri nima qildi?” deb so‘rdi ular,
“Kechirdi” deb javob ayladi Umar.

Ul kishi so‘radi buning sababin,
Umar aytdi shu so‘rovning javobin:

“Oyoq ostidagi hasharotlarga,
Marhamat ko‘rsatding” deb, bizlarga

Mehribonlik ayladi ul Zuljalol,
Uchmox ichra berdi taxti bezavol”.

* * *

Sen yana, kel, xush zabonlik aylagil,
Xalq ichra xush, mehribon so‘z so‘ylagil.

Ojiz-u miskin-faqirlarga behadi
Mehribon bo‘l, Tangridan top davlat(n)i.

Yoron aylab Haq seni, qilmish pisand,
Sen aslo ko‘nglingni tutmagil baland.

Zolimga tutgil takabbur yo‘lini,
Haq uchun qayg‘urma ular holini.

Hukming ichra hech qachon qasd bo‘lmasin,
Ko‘ngling ichra o‘zingdan past bo‘lmasin.

Har zarradan kamtar tutsa o‘zin er,
Ular uchun Haq berar yer uzra yer.

O‘zini tergagan erdir katxudo,
Sevar uni ikki dunyoda Xudo.

Haq yo‘lida kimsa o‘zin past tutar,
Ikki olamda ham murodga yetar.

Xoklik ichra joy tutar Haq rahmati,
Ko‘ngli xokning Haqdan kelar davlati.

Barchalardan past tut o‘zing jon bilan,
Qayda yursang, bo‘larsan Subhon bilan.

G‘am bulutin ko‘ngilga sol har zamon,
Tangridan rahmat yog‘ar, yo‘qdir gumon.

Rahmatingga shu bulut bo‘lgay sabab,
Istaganlar bo‘lmas aslo quruq lab.

Meva tugar ko‘zda yoshing to‘kmakdan,
Ko‘ngil to‘lar shunda ilm-u hikmatdan.

Bitar undan yalqovning bo‘stonlari,
Ortar undan oh bilan afg‘onlari.

Kimsa o‘zin tirkasa g‘am iziga,
Oxirida yetar rahmat dengiziga.

Umid rishtasini tutgil sen mahkam,
Qorinjadek tutsang xirmonda maskan.

Shoyad borsang rahmat xirmoni tomon,
Iblis qutqusidan bo‘larsan omon.

FASL

Alloh taoloning bir shohni kechirgani bayoni

Shoh Mahmud Sobuktegin edi,
Uning qissasin so‘ylayin endi.

Har kunda u sahar ovga ketardi,
Kiyik etidan unga quvvat yetardi.

Bir kuni kiyik bolasini poyladi,
Quvdi, yetdi, tutdi, mahkam boyladi.

Kiyik ko‘rmish, bolasini tutdi ul,
Qochib borgan manzilidan qaytdi ul.

Turib faryod-u fig‘onlar ayladi,
Jon-u dildan Haqqa arzin so‘yladi.

Podshohning rahmi keldi kiyikka,
Bolasini qaytardi onasiga.

Ko‘kka boqib ul kiyik qildi duo,
Haq taologa yetdi bu arzi sano.

Quruq qaytdi shu kun uyiga u shoh,
Tushda ko‘rdi u Rasulullоh nogoh.

Dedi: “Bu kun seni kechirdi Rahmon,
Kiyik bolasiga bo‘lding mehribon.

Haq seni o‘ziga yaqin ayladi,
Do‘zaxidan omonsan, deb so‘yladi.

Dedi yana: xush bo‘ldim, ey ummatim,
Ro‘zi mahsharda sengadir hurmatim”.

Berdi anga podshohlik davlatini,
Alloh ato ayladi jannatini.

* * *

Mehribonlik etgin raiyatingga,
Yordam qilgin xalqi olam bariga.

Boyliging Haq orttirar kundan kunga,
Yordam bersang barcha olam qavmiga.

Tangri yordamiga duch aylar uni,
Kimki olsa bir musulmon ko‘nglini.

Shu so‘z bilan ikki olam sarvari,
Bir haqiqat yo‘lladi bizlar sari.

Solsa shodlik kim musulmon ko‘ngliga,
Ins-u jins toatini topgay yana.

Mo‘minni shod etgan musulmon banda,
Oxiratda o‘z qabridan turganda,

Yordam berar unga bir nuroniy er,
Lafzi shirin ul er yonidan yurar.

O‘ng tarafdan ketar ketsa har yonga,
Ketsa-kelsa bergay xushxabar anga.

Tangri sendan rozi bo‘ldi der yana,
Ko‘ngliga xushvaqt, shodlik ber yana.

Qo‘rqinchli yerlardan uni o‘tirar,
Maqsad-murodini aytsa, bitirar.

Qutlar seni Haq behisht berdi deyib,
Do‘stlar ichra sening joying ko‘rdi deyib,

Der unga mo‘minki:
“Kimsan, qardoshim,
Bu yomon yo‘llarda bo‘lding yo‘ldoshim?

Mehribon bo‘lding onamdek, ey kishi,
Qo‘ymading ko‘nglimda g‘am-tashvish(n)i.

Maqsad-murodimga yetirding, hamdam
Qolmadi ko‘nglimda bir dard-u alam”.

Ul degay: “Bir mo‘minni shod aylading,
Uning g‘arib ko‘nglin obod aylading.

Haq yaratdi go‘zal yuzli er meni,
Yo‘ldosh bo‘lib, maqsadga eltdim seni.

Ya’ni shu shodlik, agar desam sanga,
Haq xushligin aytdim, ey mo‘min yana”.

Haq, rozi qil bizga mo‘min shodligin,
Ham g‘arib, vayron uy obodligin.

Ko‘nglin ol, mard bo‘lsang, sen mo‘minlarning,
Ko‘ngli g‘amxona bo‘lgan g‘amginlarning.

Kimsa bir kimsani shodiyon qilar,
Shubhasiz, unga ming savob yozilar.

Horun ar Rashidga shayx Shoqiqiyning nasihat bergani

Horun Xurasonda podishoh erdi,
Boshida edi el-yurtining dardi.

Baxt-u davlat bir necha vaqt bo‘ldi yor,
Podisholik mulkida topdi qaror.

Bir kun balxlik Shoqiqiyni izladi,
O‘ziga pand-u nasihatni ko‘zladi.

Shoqiq kelib berdi nisihat-u pand,
Dedi: “Tangri madad bergaydir, ey mard.

Yasamishdir do‘zax o‘tli bir uy-joy,
Ul makonga soqchi qo‘yibdir Xudoy.

Saqla xalqni undan uch anjom ila,
Har birini yodla o‘z oti bila.

Biri moldir, biri qilich, tinglagil,
Yana biri qamchi, buni anglagil.

Muhtojlarga doim mol bersin ular,
Qo‘y, yo‘q bo‘lib ketsin harom gunohlar.

Yo‘q etarsan zolimni qilich bilan,
Ahli mo‘min sharridan bo‘lgay omon.

Fisq-u fujurlarga qamchi urgaysen,
Shu bilan ularga adab bergaysen.

Ushbu uch ishni qila olsang agar,
Haq senga do‘zaxdan omonlik berar.

Ham qutilar el-xalq, sen bo‘lib sabab,
Shubhasiz, haq do‘sti bo‘lursan, ajab.

Zero, sen ul uyga ketsang bir o‘zing,
Izingdan ergashib borgay ulusing”.

Yig‘ladi Horun bu so‘zni tinglab,
Qo‘lin o‘pdi ul Shoqiqning, chu anglab.

Na bo‘larsan, yig‘lasang, ey bag‘ri tosh,
Ko‘zlaringdan oqsa bir dam achchiq yosh.

Yosh bilan yuvsang o‘z ko‘ngling tamom,
Ketar uning zangi, kiri, vassalom.

Yorlaqa, o‘z qullaringni, yo Xudo,
Ko‘zlaridan achchiq yosh bo‘lsin judo.

FASL

Hindning hakimidan so‘raldi bu so‘z,
Tingla, agar joning ichra bo‘lsa ko‘z.

Yaxshi qiliq podishoh uchun nadir?
U dediki, bu raiyat ko‘nglidir.

Podishoh olsa raiyat ko‘nglini,
Do‘st deb bilar barcha raiyat uni.

Qush tili yesa muhabbat donasin,
Qabul aylarlar aning parvonasin.

Bu ko'ngil qushi agar sevsa kim(n)i,
Qayga borsa, bo'lar aning hamdami.

Agar kimga hovur bo'lsa ushbu qush,
Qayga ketsa, unga yo'ldosh bo'larmish.

Bu ko'nglining shishasin kimsa tepar,
Darhol aning ustiga la'nat separ.

Shisha sinig'in bitirib bo'lmagay,
Har na qilsang, o'z holiga kelmagay.

Bu ko'ngil bir Haq qurgan uy-xonadir,
Kimsa buzsa, Tangridan begonadir.

Bu ko'ngil xonasin kimsa buzar,
Uning uchun otashli do'zax qizar.

Ka'ba vayron etmakdan ming martaba,
Bir ko'ngil yiqmoq yomondir, ey dada!

Ko'ngil olmoq valilar yumishidir,
Uni yiqmoq — berahmlar ishidir.

Agar kim el ko'nglin imorat etgay,
Gunohi kechrilib, jannatga yetgay.

Bir musulmon ko'nglini har kim olar,
Go'yoki u bir tavofi haj qilar.

Ko'ngil olmoq tavof-savob boshidir,
Ko'ngil olmoq namozxonlar ishidir.

Yiqmoq ani bor gunohlarning boshi,
Mo‘min bo‘lsang, qilma aslo bu ishi.

Har ishni qonunga loyiq tutsa kim,
Tang aylamagin sen ani, ey hakim.

FASL

Ekin ek deb xalqqa amr etgay amir,
Ya’ni andin olar naf boy-u faqir.

Ekin yerlaridan bir parcha gar
Qo‘ymasalar, bog‘-bog‘chalar eksalar.

Ekin eksa barcha raiyat agar,
Yer senga behisob hosil berar.

Xaloyiq to‘q bo‘lar, narx arzon bo‘lar,
Ham rohatlik, hamma xush davron bo‘lar.

Nor kabi bo‘lgay yomonlar ko‘zi,
Xalq ichra aylanar abdoldek o‘zi.

Ya’ni kezar shahar, bozor yerlari,
Nechuk deb xaloyiqning hollari.

Hirqa to‘nin kiyib Dovud hazrati,
Sayr etibon, sinaydi u millat(n)i.

Bilmak uchun kezdi xalq holin ayon,
Bu ravish el holin ayladi bayon.

Yomonlarga tanbeh ul er berardi,
El uning soyasida qaror topardi.

Shoh Muhammad G‘oziydan ham shunday deb,
Ma’lum bizga, bilgil, ey nasabi pok.

El-ulusdan sen ham g‘ofil bo‘lmagil,
Bilmay, Haqning balosiga qolmagil.

No‘shiravon juda mashhur shoh edi,
Olam ahli hukmidin ogoh edi:

“Bir bo‘lak yer bir viloyatda agar,
Ekilmay qolsa, men topsam xabar,

Men seni rasvo qilib, dorga osam,
Ibrat aylab, xalq aro boshing kesam”.

Agarda shoh hukm aylasa beklarga,
Ko‘zing tushmas hech ekinsiz yerlarga.

Ekinlar ekdirar, farog‘at yotmas,
Buyuklar o‘z ishin hech bekor etmas.

Ishi bilan xush kelib o‘z Haqiga,
Odil bo‘lib, xizmat etar xalqiga.

Tangri yodi ko‘nglidan hech chiqmagay,
Zulm-u jabr birla yurtni yiqmagay.

G‘arib nolimasin jabridan bizga,
Hamdamidir quloq solgan bu so‘zga.

Soya solgin mudom hamdam bo‘lganga,
Ko‘ngli g‘amdan, ko‘zi namdan to‘lganga.

Ushbu so‘zni aytdi Umar hazrati,
Uning borar yeri bo‘ston jannati.

“Hukm etsam viloyat xalqiga agar,
Bor xayr-u sharridan topsam gar xabar,

Yop[1]larining ko‘prigi bo‘lsa, biling,
Qo‘ylar o‘tar bo‘lsa ustidan aning,

Ko‘prik teshigiga gar oyoqlari
Tushib, nuqson topsa ulardan biri,

Shu kun uning boshida qiyomat bo‘lar,
Bu ishlarning bari undan so‘ralar”.

Ya’ni hokim odil bo‘lib, elidan
Xabar olar hayvon, inson holidan.

Rahm etib, bechoraning holin ko‘rar,
Har kimga o‘z haqli haqini berar.

Haq uchun hokim adolat aylagay,
Barcha maxluq uchun shafqat aylagay.

Bir soat odillik aylasa agar,
Ya’ni olsa g‘arib holidan xabar,

Yana yetmish yil ibodat etsa ul,
Haq yo‘lida xayr-u toat etsa ul,

Balki, bu soat savob, odamzod,
Bo‘lar yetmish yil savobidan ziyod.

Behisobdir bu adolatda savob,
Odil kishilarga kelar behisob.

---

[1] **Yop** — kanal, anhor.

FASL

Shoh vazir-u amirlarni jamlagay:
“Har bir ish chorasi na?” — deb so‘zlagay.

Ular birla kengashlar qilmoq kerak,
Undan ish chorasin tez bilmoq kerak.

Kengashdan foyda ko‘p, ko‘pdir marhamat,
Yaxshilardan so‘ragay shoh maslahat.

Maslahatsiz ishda afsuslar bo‘lar,
Bitta aql kesmas, ko‘p kenglik bo‘lar.

Ko‘pchilikning har biri bir so‘z aytar,
Oqil erlar ko‘pning so‘zini tutar.

Haq demish payg‘ambar: yorlar bila,
Qil kengash har ishda dildorlar bila.

Biz g‘aribdan so‘rab, sen olsang javob:
Bema’ni ishlarda yo‘q xayr-savob.

Ovchi der, yaxshilar topar ming chora,
Bir ovchidan qochar kiyik bechora.

Agar ko‘plar o‘rtaga olsa ani,
Ajabmas tezda qo‘lga ilsa tani.

Ey g‘araz, ko‘plarga kengash solsalar,
Har ishning chorasin darhol topsalar.

O‘q yo nayza bilan bitmagan ishni,
Kengash bilan bitirgaylar, ey kishi.

Kengash bilan davr oqildorlari,
Mushkulni hal etdi el sardorlari.

Adashar yo‘lboshchi — rahbarsiz bo‘lsa,
Yoki tarqar lashkar sardorsiz bo‘lsa.

Gavda losh bo‘lgay agar bosh bo‘lmasa,
Ish bitmas Haq senga yo‘ldosh bo‘lmasa.

FASL

Ey hakim, kel mulkka oshiq bo‘lmagin,
Oqil-u dono ko‘zidan qolmagin.

Podishoh donolarni jam ayladi,
Hikmat bilan to‘g‘ri so‘zlar so‘yladi.

Podshoh, vafo bilan yaqindir Haqqa,
Dalili burhondir so‘zi shu xalqqa.

Tugundir, ishlamas, ko‘zla chorasin,
Ishlatmasang barmoqlaring barisin.

Yolg‘iz biri bilan yozilmas tugun,
Har barmoqning o‘z o‘rni bor, bil bugun.

Bu kengashda kichik-katta dema sen,
Barchasidan maslahat ol, tingla sen.

Yordam bergil, yo Xudoyo, ularga,
Xush niyat bilan kengash berganlarga.

Sol ular ko‘ngliga yaxshi maslahat,
Mo‘min ellar topsin behbud-u shafqat.

Bergil, Tangrim, yomonliklardan omon,
Bu dunyoda obro‘y, oxiratda — imon.

FASL

Odillikning foydasi bayoni

Deydilar: bir podishoh o‘tgan zamon,
Ko‘ngliga tugdi ketishni haj tomon.

Jamlanib xalq arz etdi:
“Siz ketmang, — dedi,
Bu raiyatni siz tark etmang”, — dedi.

“Tashlab ketsang sen bularni, ey amir,
Mushkul kunga qolgay miskin-u faqir”.

Shu sababdan podishoh haj etmadi,
O‘z ulusin tashlab yiroq ketmadi.

“Haj savobi haqda bilgan bir odam,
toping” dedi, buyruq bo‘ldi ul shohdan.

Do‘sti dedi: “Munda valiy kishi bor,
Haj tavofin ul yetmish oltmish safar.

Magar, uning haj savobini bu dam,
Sotib olsang basdir, ey ahli karam!”

Bordi shoh ul dam valiyning yoniga,
Haj savobin istadi o‘z sha’niga.

Boshdin oyoq barcha boyligini shoh
Bir qadam haj yo‘liga qildi baho.

Ul hamon shoh barcha amlokim, dedi,
Haj yo‘lida bir qadamga tegmadi.

Bu so‘zdan so‘ng ul shoh tushdi ko‘p g‘am(g)a,
Zor qildilar barcha raiyat — hamma.

Aytdi darvesh: bu so‘zim tuzdir senga,
Qabul qilsang, quloq solgin sen menga.

Bir soat odillik aylasang agar,
So‘ng uning savobini bizlarga ber.

Shunda oltmish haj savobin men faqir,
Baxsh etayin sizga shul dam, ey amir.

Bir soat odillik savobin, xoja,
Almasha olmas Haq oldida ming haj(g)a.

Odillikning savobiga, ey kishi,
Aslo yetmas, shudir haqning peshkashi.

Mahshar kuni ul odil sultonlarning,
Soyayi Arshda qo‘yarlar jonlarin.

Ham ularga Rasul yordami yetar,
Himmat otli ko‘prikdan sakrab o‘tar.

Behisob uchmox ichiga kirar ul,
Yaxshi qullar bilan ishrat qurar ul.

Kim shod etsa bir ojiz darmandani,
Xudo baland qilar bunday bandani.

Ham qabrda yer uning yemas etin,
Mahshargacha yotar jasadi butun.

Bu so‘z payg‘ambar so‘zidan tinglasang,
Jon qulog‘i bilan ma’ni anglasang.

Bu so‘zni mo‘min xalifa tingladi,
No‘shiravon qabrini borib izladi.

Ul odilning etini yer yemamish,
Ko‘rib, Rasul so‘zin tasdiq aylamish.

El-ulusga podishoh bo‘lsang magaram,
Aylagil har yaxshi yoronga karam.

Yaxshilik qilganga barcha do‘st bo‘lar,
Dushmani bo‘lsa gar, omonga kelar.

Kundan kunga yana shuhrati ortar,
Himmat qushi uning boshiga qo‘nar.

Ham mudom yordam berar Parvadigor,
Boqiy davlat unga bo‘lar barqaror.

Olim-u darveshlarga ikrom etsa,
Fe’lini keng tutib, ko‘p in’om etsa,

Ham ularning suhbatin qilsa qabul,
Sevar uni ul Xudo birla Rasul.

Kamtarin beklardadir xush qiliq,
Xush qiliqdir barcha qulga yaxshilik.

Odil podishohning kechirilishi bayoni

Bir azizkim — Xuroson shohi edi,
Ismoil Samoniy — uning oti edi.

Bir kun keldi uning yoniga olim,
Shoh ko‘p hurmat qilib, so‘radi holin.

Yo‘qdan bor ayladi, xushso‘z so‘yladi,
Ko‘nglin oldi, ya’ni ehson ayladi.

Yetti qadam bosib uning yonidan,
Yubordi ul hurmat qilib joyidan.

Shoh kecha tush ko‘rdi, tushida ango,
Dedilar: ey, din soqchisi, Rabbano.

Senga qildi ikki jahonni aziz,
Olim ummatimni injitmang hargiz.

Yetti qadam gar yonida yurarsan,
Uchmox ichra ko‘shki-bino ko‘rarsan.

Yetti pushting shoh ayladi bir Xudo,
Ham do‘zax o‘tidan ayladi judo.

FASL

Erdi Tohir — Abu Abdullohi,
Bo‘lib keldi bir kun Xuroson shohi.

Tamom xalq xizmatga bordi xoniga,
Ikki darvesh kelmadi hech yoniga.

Birisi Ahmadi Harb edi aning,
Bir Muhammad o‘g‘li Islom Tusiyning.

Xizmatga kelmagach ul ikki darvesh,
Shohning o‘zi ular yoniga bormish.

Egilib turmadi ikki kas yana,
Hatto qaramadi uning yuzina.

Podishoh o‘grildi ular tashiga,
Surdi oyoq changini ko‘z-qoshiga.

So‘ng Haqqa munojot etdi ul amir,
Dedi: “Qudrat egasi, ayo Qodir!

Sening xushnudliging uchun ikki er,
Menga boqmay, meni misli dushman der.

Yaxshi bandangdir deb ularni bu kun,
Do‘st tutarman istab sening xushliging.

Ushbu dushmanlikni do‘stlik haqiga,
Yarlaqagin meni, o‘zing Rabbano!”

“Kechirdim” deb keldi g‘oyibdan bir sas,
Haq eshitdi sening tilaging — havas.

Yaxshilarning hurmatiga kimsani,
Haq kechirsa, keng-tor ko‘rma sen ani.

Do‘st tut Haq do‘stini sen joning bila,
Turarsan mahsharda sen aning bila.

Bir podshohning bir darvesh yoniga borib so‘zlashgani

Deydilar bir podishoh o‘tgan zamon
Keldi darvesh xizmatiga begumon,

Darvesh ul dam sajda-shukur ayladi,
Shoh: “Bu sajda nimaga?” deb so‘yladi.

Dedi: “Yuz shukur bo‘lsin Allohimga,
Sizni keltirdi ul mening qoshimga.

Qaratmadi bizni shohlar yo‘liga,
Bog‘lamadi ochko‘z nafsning qo‘liga.

Ulug‘larning kelishi toat bo‘lar,
O‘z savobin shu tariqa orttirar.

Darveshga uyatdir tamagir bo‘lsa,
Podishoh taxtin gar tavof qilsa.

Shu boisdan sajda-shukrin ayladim,
Jon ichida Tangri zikrin ayladim.

Bu so‘zlardir Payg‘ambarning hadisi,
Tingla joning bilan bo‘lmagil osiy”.

Podishohning eng azizi shu bo‘lar,
Ilm egasining yoniga borar.

Ilmlining eng yomoni shu bo‘lar —
Borib podishohni ziyorat qilar.

FASL

Yaxshilar haqida bo‘lar endi so‘z,
Ular so‘zi ma’nolardan bo‘sh bo‘lmas.

Podshohlik mulkiga quvvat yetmagay,
Agar ul lashkar boshin jam etmagay.

Inson bilan yaxshi so‘zlashmak kerak,
Yo‘qsa, imkoniz yo‘q lashkar jam etmak.

Adolat qilmasa podshohlar agar,
Obod bo‘lmas ermish bu imoratlar.

Shunda shohlar mulki quvvatli bo‘lar,
Qo‘shini bilan ul haybatli bo‘lar.

Roziligi bilinadi xalqidan,
Titraydi jon yomolikning xavfidan.

Agar shoh xalq ko‘nglini shod qilmagay,
Molni jam etmak muyassar bo‘lmagay.

Podshohlarning yomoniki ul bo‘lar —
Yaxshilar agarda undan qo‘rqsalar.

Ham yomonlar undan g‘azab ko‘rmasa,
Rahm etib, yaxshi holin so‘rmasa,

Yirtqich qoplon bil ani, ey faqir,
Xalq ichra zulm aylasa shoh-u amir.

Hukm egasi bo‘lsa, oqil-u dono,
Adolatdan foyda yetar insona.

Ul o‘z umrini g‘aflat bilan o‘tirmas,
Yo zolim nafsiga ko‘nglini bermas.

Ham yuragin bermas foniy jahona,
Zikr aylab, tayanar ul Subhona.

Agar bo‘lsa bir shoh olamda amin,
Ilm nuri bilan to‘ldirar kamin.

Ko‘prik uzra bilar hayot manzilin,
Bu dunyoga moyil etmas jon-dilin.

Yo buni hisoblar bir karvonsaroy,
Karvon kecha-kunduz kechgay va
qo‘ng‘ay.

Yo buzilgan yoy misoldir bu jahon,
Goh u, goh bu yonga egilar ravon.

Yo bulutga mengzar osimon ichra,
Go‘yo ko‘lagadir ul ummon ichra.

Goh esar shamoldir, goho yonar o‘t,
Yo‘q bo‘lib ketar ul yetishsa fursat.

Yoki yana bir luqmadir kim yeb-ichadi,
Bir lahza to‘xtamay bundan kechadi.

Sahrodagi bir sarob — oqib yotar,
Yurib yoniga borsang, yo‘qdir — yitar.

Bu jahonni bilsa har kim — foniydir,
Ko‘ngil bermagan jahon sultonidir.

Uning bilan kimning yo‘q bo‘lsa ishi,
Boylik — dunyo bilan bo‘lmasa xushi,

Fano bilsa jahon xalqini hama,
Tushar u Haq ishqidin dard-u g‘ama.

O‘tgan yaxshilardan yaxshi yod qolgay,
Yaxshi ishlar bilan yaxshi ot qolgay.

Hazrati Sulaymonning Haqdan o‘g‘il tilagani bayonida

Abu Hurayradan rivoyatdir bu,
Ulug‘ sohiblardan hikoyatdir bu.

Uni Sulaymon ibni Dovud derdi,
Uch yuz o‘n nikohli zan[1]i bor erdi.

Yana yetti yuz cho‘risi bor edi,
Hammasining jami ming o‘n bo‘lardi.

[1] **Zan** — xotin.

Shoh Sulaymon istadi Haqdin shoyon,
“Bergil menga bir o‘g‘il farzand,
Rahmon!

Ul borib qilsa jihod kofir sari,
Qaytsalar o‘z dinidan kofir bari,

Bir o‘g‘il ato etdi Xudo ul do‘sta,
Yarim jon bo‘lib tug‘ildi — kam-ko‘st-la.

Bir ko‘zi ham bir qulog‘i, bir qo‘li,
Bir oyog‘i bo‘lmadi, bil, ey vali.

Bas, ziyod bo‘ldi Sulaymonning g‘ami,
Keldilar qoshiga mahram-hamdami.

O‘tirib maslahat etdi uch kishi,
Chekdilar ko‘p qayg‘u, g‘am-tashvishi.

Shoh Sulaymon edi ularning biri,
Biri Osif, biri farzand enasi.

Dedilar: emas bu sir Haqdan o‘zga,
Bilib bo‘lmas, yuzlaning boz O‘ziga.

Haqligiga ushbu sirning az Xudo,
Istagaymiz bu farzand uchun shifo.

Endi ular bu so‘zni yaxshi ko‘rib,
Barisi yolvorib yerga bosh qo‘yib.

Avval boshda kalom aytdi Sulaymon:
“Men davlat egasi, o‘zimman sulton.

Ikki odam ko‘rishga kelsa meni,
Sovg‘a keltirsa gar, bo‘sh bo‘lsa biri,

Bo‘sh qo‘lliga ko‘zim teskari boqar,
Qo‘li sovg‘alisi menga ko‘p yoqar.

Ushbu so‘zda to‘g‘riligim-chun, Xudo,
Sen bu bitta farzandimga ber shifo”.

Hazrati Haq bu so‘zni aylab qabul,
Bir ko‘z bilan bir qulog‘in berdi ul.

So‘ngra Osif ham dedi: “Yo Bir-u bor,
Barcha pinhon ishlar sengadir oshkor.

Ko‘p aytdim banda Sulaymonga buni,
Bu vazirlik ishga yo‘ldosh qil meni.

Ko‘nglim ichra bu dilim emasdir bir,
Ko‘ngil ichra Haq sirin ochdi vazir.

Bu so‘z sodiqligi uchun yo Jalol,
Ber shifo bu dardliga, qilma malol”.

Tasdiq etib aytgan so‘zin bu qulning,
Tangri berdi ul farzandning bir qo‘lin.

Enasi munojot ayladi so‘ngra,
Qo‘l ko‘tarib hojat tiladi zo‘rg‘a.

“Bu Sulaymonki mening juftim erur,
Mulk egasi sohibi davlat turur.

Yana ham har kimni ko‘rsam, men unga
Koshki er bo‘lsaydi der edim menga.

Ushbu so‘z sodiqligi uchun yo Iloh,
Aybli farzandimga ber shifoh”.

Kechirdi ul, banda to‘g‘ri so‘yladi,
Bir oyog‘in ham unga baxsh ayladi.

Haq salomat etdi bor a’zolarin,
Murodiga yetirdi banda-qullarin.

Haq taolo berdi biroz fursatni,
Dedi: tezdir bu o‘limning navbati.

Jonin oldi ul go‘dakning shul zamon,
Taxtiga tushdi jasad, bo‘ldi fig‘on.

Ul Sulaymon ko‘p mahal aza tutdi,
Haramidan chiqmadi ko‘p muddati.

Unga ikki malak yubordi Tangri,
Davo uchun keldi ular sarsari.

Ul malaklar misli odam suvratli,
Davo bilan bir-birin tutdi qat’iy.

Shu ikkov keldi Sulaymon qoshiga,
Musht urib biri birining boshiga.

Biri dedi: men ekin ekkan edim,
Yo‘l ustiga ekib, jafo chekkan edim.

Ekinim ushbu kishi qildi xarob,
Shu sababdan bo‘ldi bu bag‘rim kabob.

So‘radilar ul da’vogar kishidan:
“Nega bunday? So‘yla, qani, ishingdan?”

Ul dediki: Sayr qilar edim bir kun,
Ko‘rdim — yo‘l ustiga ekilgan ekin.

Ko‘p nazarlar ayladim men sog‘-u so‘l,
Topish-chun maqsadim sariga yo‘l.

Topmayin zarurat yo‘lini bu dam,
Ekilgan yer uzra qo‘ydim men qadam.

Shu sabab bo‘ldi ul ekin xarob,
“Arikum a’la mu’taun” fil javob[1].

So‘zladi shoh ul ekin egasiga,
“Nechun ekding ekinni yo‘l ustiga?

O‘tarlik yo‘l uzra kim eksa ekin,
Vayron bo‘lar, shak-shubhasiz, lekin”.

Ul farishta dedi unga shu mahal:
“Ey jahon payg‘ambari, etma malol.

Ushbu dunyo, bil, o‘limning yo‘lidir,
Odam uning oyoqosti molidir.

Bu o‘lim yo‘liga farzand ekmagil,
Qayg‘u-g‘ussa bilan xunob chekmagil.

Dunyo ko‘prik ustidir, ey podishoh,
Ko‘prik uzra makon tutmoqlik xato”.

Ko‘zdan yitdi bu so‘zni aytib malak,
Qolmadi g‘avg‘odan, da’vodan darak.

Dunyo sevgisini dilga solmagil,
Xalos bo‘l, kin ichra anqov qolmagil.

Dunyo boyligiga bo‘lmagin sen shod,
Bir kuni aylagay batamom barbod.

[1] Arab tilidagi bu ibora ma’nosi: “Sizning oliy buyrug‘ingizga itoat etiladi”.

Shunday sinar ekan Haq do‘stlarini,
Olganmish ularning bir farzandini.

Qayg‘u-g‘am, hasrat uyidir bu jahon,
O‘lim qo‘ymas jonli jonlarni omon.

Bir dam g‘animatdir, ul Haqdan kelar,
Odam gulzor ichra bir soat kular.

Haqdan tila, bo‘lsin imoning omon,
Berar ul, har ishga qodir begumon.

FASL

Hazrati Sulaymon sifatining bayoni

Ul Sulaymon Yer yuziga shoh edi,
Davlatboshi ham nabiyulloh edi.

Olam ichra ins-u jins, dev-u pari,
Bariga barobardir farmonlari.

Suvlar, yellar, barcha og‘ochlar — bog‘lar,
Bari tushunarli tilda so‘zlarlar.

Qurt-u qushlar, hayvonotlarning bari,
Arz-u hollarini unga aytardi.

Olamning payg‘ambari edi o‘zi,
Har na desa, to‘g‘ri o‘tardi so‘zi.

Yel ko‘tarib taxtin eltardi havo,
Har ne maqsad qilsa bo‘lardi ravo.

Bo‘lardi qushlar ustida soyabon,
Qanotin qanotga yoyardi ravon.

Odil edi, to‘g‘ri edi har farmon,
Olam ahli yonida tutdi makon.

Ziynat oldi adlidan olam yuzi,
Bir novadan suv ichardi bo‘ri, qo‘zi.

Bas, ibodat aylar edi u Nabi,
Haqqa qullik qilmoq edi matlabi.

Kecha-kunduz istagi Alloh edi,
Har soatda istadi dargohini.

Bo‘ldi Alloh ishqida hayron-u zor,
G‘ussa ichra bir soat tutmay qaror.

Oh, o‘limning qo‘rquvi tutdi uni,
Tutib g‘am dengiziga otdi uni.

Oxiri o‘lim suvin ichirdilar,
Tan qafasdan jon qushin uchirdilar.

Egasiz qoldi bu mulki saltanat,
Asbobi, masan-u makon — barcha zot.

Dunyoning ishi shudir,
bo‘lsang-da shoh,
Ketmasdan dilga tushmasin oh-u voh.

Dunyo aldoviga, ey olim kishi,
Tushmagil, boshingda oxirat ishi.

Qanoat etganlar yo‘qdir dunyoda,
Och bo‘lishni o‘ylab fikrlar ado.

Dunyo boyligiga tikmagil sen ko‘z,
Qanoat elidan bo‘lgin, tingla so‘z.

Bandalik qil Xudoga har soatda,
Fursatni g‘animat bil, bo‘l toatda.

Takabburlik bilan qilma sar baland,
Ogoh bo‘l, quruldi tuzog‘-u kamand.

Tavba qil, Haqdan tila sen pok imon,
Sano aytib, qilgil oh birla afg‘on.

Har saharlar Tangriga zor aylagil,
Ko‘nglingda kamlikni qaror aylagil.

Dunyoda yo‘qdir vafo, kelgan kechar,
Barcha maxluq bu o‘lim jomin ichar.

Oxirat yarog‘in qil mudom tayyor,
Sahar vaqti uyg‘onib sen, bo‘l bedor.

Yuv yuzingni ko‘zlaring yoshi bilan,
Yana baxt ber zikri Haq ishi bilan.

FASL

Zolim podshohlar oqibatining bayoni

Podishohlar gar adolat etmasa,
Tangri-yu payg‘ambar amrin tutmasa,

Podishohga u ziyon aylar, ziyon,
Ikki dunyoda bo‘lgay unga yomon.

Podishohlar, qozilar g‘ofil bo‘lar,
Hukm etganda nafsiga moyil bo‘lar.

Yuziga qora surtib mahshar kuni,
Ko‘r etarlar ularning ko‘zlarini.

Ham kesarlar ularning tillarini,
Bog‘lagay orqasiga qo‘llarini.

Malaklar gurzilar bilan urarlar,
Tortib, do‘zax tomon olib borarlar.

Yozig‘ing ul damda paydo qilarlar,
Zolim hokimlarni rasvo qilarlar.

Qozilar, hokimlar u-bu so‘z deya,
Rost hukum etmasa, qolgay jabriga.

Har biriga berar ming turli azob,
Rasvo qilib har tarafga quvalab.

Aytarlar: ul kun adolat etmading,
Shariatning amrini rost tutmading.

Jabr bilan elni aylading kabob,
Ham olam xalqini etding sen xarob.

Endi chorang yo‘q sening, budir jazo,
Haqdan keldi bu hukm bila qazo.

Kim yomon ishlar etar, ko‘pdir azob,
Jahannam o‘tida bo‘lar u kabob.

FASL

Ul hazrati Dovud payg‘ambar edi,
Hukm mahali bir xato so‘z so‘zladi.

Qirq kuncha ko‘zdan oqtirib yoshni,
Sajda qildi, hech ko‘tarmadi boshni.

Yosh oqdi, tuproqqa bitdi giyoh,
Ko‘p vaqt g‘am chekdi, etib oh-u voh.

Haq taolo bir kuni vahiy ayladi,
Unga: Seni kechirdim bandam, — dedi.

Har kimni sen duoda qilgin rizo,
Yo‘qsa, shaksiz senga bergay ul jazo.

Ul payg‘ambar rozi etdi yog‘iyni,
Ozod etdi g‘amdan ko‘ngil tog‘ini.

Haqqa rasulidan yaqin kimsa yo‘q,
U ham zor etardi Tangrisiga cho‘x.

Sen yana Tangriga kel, zor aylagil,
Bu ko‘ngilni g‘am bilan yor aylagil.

Podishoh zulm aylasa, bilgin shuni,
Tosh qilar jumla jonlar ko‘nglini.

Mehri bo‘lmasmish kishining kishiga,
Rahmi kelmasmish kattaning kichiga.

Titragay barcha hayvonning jonlari,
Ko‘pirgay ko‘k tomirida qonlari.

FASL

Deydilar: shohi Kubod o‘tgan zamon,
Lashkaridan ayro tushdi begumon.

Shoh yelib-yugurdi har taraflarga,
Oxiri yetdi tikilgan chodirga.

Chodirdan chopib chiqdi bir qari,
Otin tutdi, sekin keldi ul sari.

Oqshom bo‘ldi sog‘di sigrini ena,
Haqdan tilak tilab, aytib ko‘p sano.

Sigir suti ko‘p ekan deb ushbu hol,
Shoh soliq solsam, deb qildi xayol.

Ertalab sigrini sog‘di-da qari,
Kelib ul dam Haqqa ayladi zori.

Ahvol so‘radi shoh ul dam: ey ena,
Ne sababdan zor aylading, aytgin-a.

Qariya aytdi: shoh qahrlanmish bu dam,
Mol-u holning joniga tushdi alam.

Shu sababdan bu sigir sut bermadi,
Deb ul qari ena faryod ayladi.

Podishohkim, zulm-u jabr etsa, biling,
Barakati ketar olam ahlining.

Yerlar-u suvlar, og‘ochlar, ey amin,
Nolish aylab turar osmon-u zamin.

Shunday zolim zulmidan, ey Bir-u bor,
Qutqar barchamizni, yo Parvardigor!

FASL

Naql bo‘ldi ushbu so‘z Bahromidan,
Ul karamli shohning purin’omidan.

Sayr etib, bir bog‘ga keldi ushbu er,
Ko‘rdi bir qari kishi bog‘boni bor.

Bas, anordan sharbat istadi amir,
Tez ketirdi qopni to‘ldirib ul pir.

Shu holatda shohning ko‘ngli istadi:
Bog‘ uchun soliq xayoli qistadi.

Yana amir aytdi: bor, sharbat ketir,
To‘ldirib ushbu qadahni tez yetir.

Bu safar aglanib keldi piri zol,
Dedi ul: shoh qildi bu dam bad xayol.

Oldingida siqqan edim bir anor,
Qadah darhol to‘ldi, biroq bu safar

Bir anorni siqdim, oh, buni qara,
Sharbat oqmas edi, bo‘ldim masxara.

Balki, dedi shohim g‘azab etgandir,
Mevalarning barakati ketgandir.

Shoh ko‘nglidan bad xayolni ayirdi,
Yana sharbat keltirishni buyurdi.

Tez keltirdi sharbatni shunda biram,
Keldi ul kimsa mamnun, shod-u xurram.

Dedi: shoh adolatga yo‘l tutdi bu dam,
Olam ahliga karam qilmish Karam.

Bildi: yerning barakati har zamon,
Shohi odil bo‘lsa, ortar begumon.

Beaql uldir dunyoda, ey kishi,
Shoh bo‘lib,
zulm etmak bo‘lsa har ishi.

Oqil shoh xazinaga ko‘z tutmagay,
Raiyatga jabr-u zulm etmagay.

Podshohki, zulmiki, o‘ziga choh qazgan,
Jabridir uning mulk-asbobin buzgan.

Mulk-asbob bu raiyatdir anga,
Bas, yomon kunda himoyatdir anga.

Ko‘kini qayum qilgan — shular bo‘lar,
Mulkini doim qilgan — shular bo‘lar.

Sarf etsa molini raiyat sari,
Bo‘lar ul shoh podishohlar sarvari.

Mahmud shohning ahmoqni izlagani bayoni

Mahmud xalq ichida shoh bo‘lgan zamon:
“Ahmoq toping” deya ayladi farmon.

Qaydan topsak deb, fikr etdi hama,
Topmadilar izlab, tushdilar g‘am(g)a.

Oxiri birovni topdilar ular,
Dedi: izlab topganimiz shu bo‘lar.

Og‘ochning ustiga chiqibdir ul er,
Boltalab, o‘tirgan shoxini kesar.

Magaram, ahmoqdir beg‘am bu kishi,
Jon qayg‘usin qilmas, yo‘qdir tashvishi.

Ul kimsani shoh qoshiga eltdilar,
Qilgan ishini darhol naql etdilar.

Shu zamon shoh Mahmud dedi ularga:
"Agar xalqqa zulm etsa qaysi shoh,

Uning aqli bundan ko'p emas magar,
O'z zulmi choh qazib, o'zin yo'q etar".

Zulm qilgan podishohlar ahmoqdir,
Beaqllik o'z-o'zini chopmoqdir.

Jabr-u zulm podishohi zolimning,
O'q bo'lib, o'z joniga yetgay, biling.

* * *

Ul Saprakand zolimi mashhur edi,
Kecha-kunduz bor ishi manfur edi.

Taxt ustida o'tirardi bir zamon,
Siynasiga tegdi o'q, qildi fig'on.

Jam bo'lib zolim yoniga keldilar,
Ushbu bo'lgan ishga hayron qoldilar.

Haqqa jon topshirdi ul zolim bu hol,
Shubhasiz topdi uning mulki zavol.

Ul kishining siynasidan bir o'qni
Chekdilar, chiqardilar Tangri haqi.

Ko'rdilar, bir yozilgan xat unda bor:
"Zolim bo'lma, ibrat olinglar zinhor!"

Sitamkor bag'riga Haq urdi o'qni,
Barcha mazlum ohidir, kel o'qi!

Ya'ni zolim siynasidan kechirar,
O'tkir tig'ki, jon ila bag'rin kesar.

Barcha g‘arib ohidan qilgin hazar,
Yo‘qsa bir, ul umring tanobin uzar.

Shak yo‘qki, olmos qilichdir ushbu oh,
Zulmni qo‘y,
Tangridan tilagin panoh.

Bu sitamkorlik senga emas hunar,
Zulm o‘tin yoqsa kim, aning o‘zi yonar.

Bu o‘t bo‘lar jahannam o‘ti senga,
O‘zing yoqding, o‘rlagay u o‘zingga.

O‘zgani yoqmading — yoqding o‘zingni,
Tutding o‘z so‘zing bilan o‘z so‘zingni.

Har kishikim o‘t yoqar — o‘zi pishar,
Qazsa har kimki quduq — o‘zi tushar.

O‘zgani yoqmoq — o‘zni yoqmoq bo‘lar,
Tayoq ursa — o‘ziga to‘qmoq bo‘lar.

Kishini urmoq — o‘zni urmoq mudom,
Oqil odam buni bilar begumon.

FASL

Bir musulmon tutsa maskan bir yerni,
Dindor bo‘lib, pokiza bo‘lsa o‘rni.

Tangriga bandalik etmak istasa,
Haq yo‘liga xayr-u ehson aylasa.

Agar to‘rt zot unda bo‘lsa barqaror,
Yetmas hech kimsadan kimsaga ozor.

Odil siyosatli bir hokim bo‘lsa,
Barcha zolimlarning oldini olsa,

Oyatni mahkam tutib, hukm aylasa,
Haq-nohaqni tushuntirib so‘ylasa.

Qozi ham odil bo‘lsin — ikkinchisi,
Qonun bilan bo‘lsa xalqning yo‘lchisi.

Uchinchisi — bo‘lsa bir yaxshi tabib,
Dardga darmon topsa ul ixlos etib.

Dardlilar dardiga topsalar dori,
Albatta, ketadi kasallik bori.

To‘rtinchisi — bo‘lsa oqar suv yana,
Oqar suv zarurdir xalqqa, maskana.

Ya’ni ul xalq ichgisi bo‘lar halol,
Bu ish Haqqa ma’qul, rozi Zuljalol.

Bo‘lsa shu to‘rt narsa agarda oshkor,
Ul xaloyiq doim bo‘lgay barqaror.

To‘yadi xalq unda, ortar mol-u osh,
Bo‘lgay musulmonga
ko‘p yaxshi yashash.

Xalq uchun ulug‘ bir zamona bo‘lur,
Bu jahon uzra yog‘ar nur uzra nur.

Yaxshilardan topsa shodlik, rohatni,
Yo Haq huzurida qilsa toatni.

Yo‘qsa ular joniga qasd yetdi bil,
O‘zlarini zindon ichra tutdi bil.

Barcha yig‘lar ahli imonlar uchun,
Jabr ko‘rgan ul musulmonlar uchun.

Chunki yomon orasiga tushdilar,
Nola bilan ko‘zdan yoshin sochdilar.

Misli qolmish bo‘ri orasida qo‘ying,
Darddosh bo‘lsang, yig‘lagil, qilma o‘yin.

FASL

Oxir zamon yaqin kelishining bayoni

Ibni Abbosdan rivoyatdir bu so‘z,
Haq Rasulidan ham hikoyatdir bu so‘z.

Tingla, fahm et ushbu so‘zlarni dono,
Agar yaqin kelsa oxir zamona.

Bir qavm paydo bo‘lar, ey ahli hol,
Yuzlaridir ularning odam misol.

Qalbi bo‘lar ularning shayton kabi,
Tashlanar bo‘ri misol, qoplon kabi.

Bo‘lmas unda rahm-u shafqatdan asar,
Bir dirham pul uchun qonlarin to‘kar.

Har xil yomon ishdan qaytmaslar ular,
Har zamon yuz makr-u hiylalar qilar.

Injitarlar yonlariga borsangiz,
G‘iybat etar agar chetda tursangiz.

Agar unga topshirsangiz omonat,
Bor fe’lidir — omonatga xiyonat.

Yosh-yalanglar uchun tuhmat etar,
Yigitlar shotir kabi ishlar etar.

Qarilari fisq-u fujur etarlar,
Til, a'zolari gunohga ketarlar.

Hech qaysisi to'g'ri yo'ldan ketmagay,
Yo ketsa ham, bir yaxshilik etmagay.

Ularning ham izzati xorliq bo'lar,
Mudom g'arib-faqirlardan mol olar.

Ojiz bo'lar ularning ham hokimi,
Hukm etar deb, ular yemaslar g'am(n)i.

Bajarilmas buyruqlar-u man ishlar,
Har kimsa xohlagan ishini qilar.

Sunnati ham ularning barbod bo'lar,
Barbod ishlar orada sunnat bo'lar.

Shu kabi ishlar bo'lsa-chi, ey inson!
Topilsa gar shunday ishlardan nishon,

Ul zamon qavmiga Alloh naylagay,
Bas, yomon ishga ishorat aylagay.

Ham yomonlardan yomon paydo bo'lar,
Barcha ul g'arib, faqir rasvo bo'lar.

Yaxshi bo'lganlar agar qilsa duo,
Qabul bo'lmas ul duolari aslo.

Oxir zamon sharridan sen, ey, salim,
Tila Tangridan panoh, uldir azim.

Mo'min bo'lgan xor bo'lar ul aroda,
Hollari mushkul bo'lar bu fanoda.

Shunday saqlagay ular imonini,
Sirkaga qurt tushgan misol, ey g‘ani.

Dinini ham shunday saqlagay ular,
Tan aro ko‘z saqlagandek ba’zilar.

Agar qattiq bossang ul ko‘z so‘nar,
Asta qo‘ysang, ushbu ko‘zga tan yonar.

Qo‘rquv bilan shunday saqlar dinlarin,
G‘am bilan, hasrat bilan imonlarin.

Bas, misli ko‘zdek qarab kezar ular,
Barcha mazlum jabriga to‘zar ular.

Ularning oh-nolasi toshni teshar,
Ham yurak qaynab, yana yonar, beshar.

Sen ham ular holiga kel, yig‘lagil,
Darddosh bo‘lib, jon-u bag‘ring dog‘lagil.

Musulmonlar barcha bir qardosh bo‘lar,
Din ichinda holdosh-u sirdosh bo‘lar.

Mo‘min bo‘lar yonar ul mo‘minlarga,
Bir yolingsiz o‘tga tushgan jonlarga.

FASL

Do‘zaxning bir o‘yini bayoni

Shu hadisni aytdilar Rasulullo,
Jon qulog‘ing birla tingla sen ogoh.

Fitnani uyg‘otmang demishki ul er,
La’natga loyiq kim bo‘lsa fitnagir.

Fitnani uyg‘otmoq zinodan yomon,
La’nat aytar unga bor xalqi jahon.

Ham odam o‘ldirishdan uldir badtar,
Qilmagay unga Tangri rahmat nazar.

Har kishikim fitnani gar uyg‘otur,
Do‘zax ichra unga Tangri uy berur.

Kengligi bor — ikki dunyocha kelar,
Fitnadan aylang hazar, aylang hazar.

Ajdarholar to‘ladir ul uy aro,
Xushi ketar har kishi uni ko‘rsa.

Bordir Qof tog‘idan katta ilonlar,
Ham har qaysisi bug‘rodayin[1] chayonlar.

Zahri chiqmas ming yil, bir nashtar suqar,
Ularni turli azob ichra yoqar.

Azob ko‘pdir, yo‘qdir ular hisobi,
Rohat olmas kim ko‘rsa ul azobi.

Ul azobdan Tangridan tila pano(h),
Tavba qilib, uzr aytib “Rabbano”.

Jannat ichra uy berar Haqning o‘zi,
Chindir ul bu dunyodan, tingla so‘z(n)i.

Turli meva, hur-u g‘ilmon unda bor,
Turli ne’mat, ko‘shk-u ayvon unda bor.

Aysh-u rohat unda ko‘p-bisyor bo‘lar,
Sayr etib kezgan yering gulzor bo‘lar.

[1] **Bug‘ro** — ikki o‘rkachli tuya *(tarj.)*.

Har rasul shafoat aylar ul qul(g)a,
O‘ng-u chapi to‘lar a’lo nur bila.

Rasulullоh aytdi: yo, ummatlarim,
Fitna qilmang, oling Haq ne’matlarin.

Fitna ayon etsangiz gar, odatda,
Bas, halok bo‘lgay xalqlar shu soatda.

Ham yana nuqson toparmish mollari,
Bo‘lar unda ko‘p parishon hollari.

Kim yo‘qotsa fitnani, rohat bo‘lar,
Boqiy davlat, joyi ham jannat bo‘lar.

Dunyoda in’omlari bo‘lar ziyod,
Xalq boyligi — go‘yo Jayhun ham Firot.

IKKINCHI BOB

Ikkinchi bob xayr ish etganlar haqda,
Kim xayrda, kimsa yaxshi niyatda.

Ular vasfi-holin bayon aylarman,
Ta'rifin jahonga ayon aylarman.

Haq nazdida xayr o'git-olqishdir,
Saxovat Tangridan yaxshi ulushdir.

Tinglang siz, saxovat egasi boylar,
Qo'y, marhum bo'lmasin sizdan gadoylar!

Ma'lumki, ularning haqi bor sizda,
Bordir Qur'on ichra bu kalom — so'z-da:

Qavlulu taolo:
"Lis soili val mahrum"[1].

Xalilulloh Xudoning do'sti erdi,
Haq unga o'tparast qari yubordi.

Qariga zot bermadi o'tparast deb,
Haq unga "Tur" dedi qahri kelib.

"Uni rozi qilmasang gar bugun sen,
Seni do'stlar yonidan ayirarmen".

Necha muddat yurib-yelib yetgandir,
Bir ehson istab ul, qo'lin tutgandir.

Bilib qo'y, Haq bandasidir har kishi,
Payg'ambar bir noib, yo'l ko'rsatguvchi.

[1] *Qur'on.* 51-sura, 19-oyat. *Ma'nosi:* "Ularning mol-mulklarida so'raguvchi va (mol-davlatdan) mahrum-muhtoj kishilar uchun (ajratilgan) haq-ulush bo'lar edi".

Kim bo‘lsa ham, mol-dunyodan ehson et,
Mol bo‘lmasa, o‘z joningni qurbon et.

Gar uchrasa yomon, qoshingni chitma,
Xalilulloh iqomatin[1] unutma.

Xayr, sharrning usti bo‘lsa ham o‘truk[2],
Oz-ko‘p haq rizosi — bir moldan ortiq.

Faqir ishin sizga qilmish havola,
Ishin tuzat, tushmagil bad xayol(g)a.

Haq Musoga qilmish sovg‘a-xitobni,
Yuboribdir unga Tavrot kitobni.

Miskin-u faqirlar bo‘lmasa agar,
Boylardan sadaqa olmasa agar,

Shubha yo‘qki, buyurdim ushbu yerga,
Yutgin deb boylarni mol-mulki birla.

Bo‘lmasa gar jahon ichra gadoylar,
Halok bo‘lar unda davlatli boylar.

Bu savobni boylar bilsa yaxshidir,
Haqqa ko‘p shukrlar qilsa yaxshidir.

Rasul: qizg‘anma dedi gadoga,
Gado bo‘gat[3] bo‘lar ahli baloga.

Agar bir kun kelsa gado eshikdan,
Qochib chiqar barcha balo teshikdan.

Ularni xorlagan bir zolim bo‘lar,
Xudo rahmatidan benasib qolar.

Ul Dovudga vahiy etdi Xudovand,
Dedi: — Borlilarga qil nasihat-pand.

---

[1] **Iqomat** — turish, yashash *(tarj.)*.

[2] **O‘truk** — yolg‘on.

[3] **Bo‘gat** — to‘siq, to‘g‘on *(tarj.)*.

Mollarining bari Tangri molidir,
Faqirlarga bo‘lib bergan poyidir.

Borlilarni vakil etmish bu molga,
Sadaqaga sarf et dedi ul boyga.

Sarf etsalar, Tangriga do‘st bo‘larlar,
Behisht otli uydan joy ham olarlar.

Baxillik qilib, sarf etmasalar gar,
Xudoning buyrug‘in gar tutmasalar,

Ular osiy bo‘lar Tangriga, ey yor,
Xudo do‘zax ichra ularni qiynar.

Nasib ayla, Xudo, o‘z qullaringga,
Rahmatingni yog‘dir yo‘qsullaringga.

NASIHAT

Musulmonlar, kelinglar, fahm etinglar,
Xudoning amriga bo‘yin eginglar.

Xudoni bir biling, bilinglar bahaq,
Chunki undan o‘zga iloh yo‘q, iloh.

Muhammad rasuldir — bir elchidir ul,
Inoning jon-dildan, haq yo‘lchidir ul.

Sevar bandasidir ul Zuljalolning,
Inoning, qolmasin shubhang, maloling.

Ikkinchi farz bo‘lsa sizga namozdir,
Xudoga bandalik umid — niyozdir.

Tahorat olib, pok bo‘ling har doim,
Haqning buyrug‘iga besh vaqtda qoyim.

Uchinchi farzini ro‘za deyarlar,
Bir oy kunduz yemay, kecha yeyarlar.

Agar tark etmayin, uni qilsangiz,
Ushbu ro‘za sizga farzdir, bilsangiz.

To‘rtinchi farz — zakotdir bo‘yningiza,
Sim-u zar, ot, sigir ham qo‘yingiza.

Osh-u non zakoti bo‘lsa — ushurdir,
Undan lozim bo‘lsa — berar beshdan bir.

Bular agar vojib bo‘lsa — berarsiz,
Haq uyiga ziyoratga borarsiz.

Omon bo‘lmoq yo‘li ham shart bo‘linmish,
Zotdan ham ulovdan — vojib qilinmish.

Ziyod bo‘lsa xarajatidan har kim,
Yo‘lga ketar bo‘lsa, sadaqa bersin.

Ushbu farz ishlarni bajargan inson,
Shubha yo‘qki, musulmondir, musulmon.

Bo‘lar ular do‘zax o‘tidan ozod,
Kirib jannat ichra, kezar ko‘ngli shod.

Qilgil, Iloh, barcha qulni sunnati,
Dinin islom ham Muhammad ummati.

Ayon qil ularga rohi sunnatni,
Nasib et ularga buyuk jannatni.

Yomon yo‘ldan saqla ularni omon,
Dinni mahkam tutib, bo‘lsin shodumon.

Yo Iloho, barcha qulni shod ayla,
Jahannam o‘tidan sen ozod ayla.

NASIHAT

Farzdan so‘ngra yana yaxshi ish kondir,
Ular bari hadislarda bayondir.

Havas qilgay yaxshi ishga musulmon,
Ular do‘stlariga do‘st bo‘lar Rahmon.

Biling bu dunyoni ekin maydoni,
G‘ofil bo‘lma, topgin xayrdan foydani.

Ekish vaqti — shu pallada ekib qol,
Saxiy tuxum sochar dunyoga darhol.

Savob etsang bilib har qaysi yona,
Biroq aldanmagil foniy jahona.

FASL

Hadisda deyilmish shunday bir bayon:
Agar odam o‘g‘li ketsa dunyodan,

Kesilarmish undan barcha amallar,
Biroq uch amali kesilmay qolar.

Biri ezgu ishi bilan yor bo‘lgan,
Xudoning yo‘liga baxsh qilingan.

Biri solih farzanddir, bil ani,
Ul Qur’on o‘qisa, qilsa duoni.

Qal’a ham ko‘prikdir — uchinchi amal,
Kuching yetsa,
quraver, sen bemalol.

Unga doim yetar xayr-u savobi,
Oqir ruhi uzra go‘yoki obi.

Kesilmas to qiyomat qoim bo‘lsa,
Agar tikkan nishoni doim bo‘lsa.

Desang, uning tikkan nishoni nadir?
Ul nishonlar masjid ham madrasadir!

Raboti, xonaqoh, hovuz, ko‘prikdir,
Qazigan quduq,
oqadigan suvlardir.

Ham yana Qur'ondan bo'lsa xabardor,
Tesha, bolta bersa eliga darkor,

Bularni berib, xayrot[1] etarlar,
Jahonda haq uchun bunyod etarlar.

Buzilgancha shu bunyodi jahonda,
Savobini barcha topar ul onda.

Solih farzand el-yurtiga xayr etar,
Yomon farzand bo'lsa,
bezordir padar.

Haq kitobin tuzgun-tartibga solsang[2],
U go'yo bir solih farzanddir, bilsang.

Umid etgil savobidan buning ham,
Qatra-qatra toma-toma bo'lar jam.

FASL

Haq uchun kim aylasa masjid bino,
Uchmox ichra
Haq solar o'z ko'shkina.

Haqning ko'shki la'li-yoqutdan bo'lar,
Savoblidir kim bu savdoni qilar.

Tuproqqa la'li-kumushdir ushbu kor,
Yer ustida har kishi masjid yopar.

---

[1] **Xayrot** — yaxshi ishlar.

[2] **Haq kitobin tuzgun-tartibga solsang** — ko'chirib-ko'paytirib tarqatsang *(tarj.)*.

Oxiratda xush boqar Alloh anga,
Yordam etar ham Rasulullоh anga.

Masjid, madrasalar bo‘lar ko‘p savob,
Xayr egasiga u quvonch behisob.

Go‘yoki masjidlar ularning ishi,
Haqdan uchmox istasa erkak kishi,

Ko‘p savobdir hisobini Haq bilar,
Har kishi ish ishlasa, haqin olar.

Qo‘y, bilsin yo‘llarga ko‘prik solganlar,
Kecha-kunduz ustiga rahmat yog‘ar.

Ham sirotdan o‘tishi oson bo‘lar,
Haqdan unga olqish, ko‘p ehson bo‘lar.

Quduq hamda hovuz bino etsa gar.
Hisobsiz savobni Haq o‘zi berar.

FASL

Suv berishning foydasi bayoni

Ul sahobadan biri payg‘ambarga
Arz qildi ushbu so‘zni sarvarga.

Dedi: bu olamdan o‘tgandir enam,
Men unga sadaqa bermoq istaram.

Dedi Payg‘ambar: Sadaqa qil suvi,
Hovuz qazdir yoki qazdirgil quyi[1].

[1] **Quyi** — quduq *(tarj.)*.

Barcha ehsonlardan ulug‘ olam ichra,
Balki, suv ulashmoq mo‘minga barcha.

Rasulullоh ushbu so‘zni aytdilar:
Chanqagan kofirga kim suv bersa gar,

Ro‘za tutgan bo‘lar bir yili tugal,
Haqdan savob kelar insonga o‘shal.

Hamda Jabroil ila Makoilning
Savobini topar ul odam, biling.

Kim suv bersa,
chanqagan munkirlarga,
Oltmish yil savobini berar alarga.

Ham yana Isrofil-u Azozili,
Bas, savobin topar ul er, ey vali!

Kim bir tashna musulmonga suv bersa,
Yetmish qulni ozod etdi ul kimsa.

Kim sug‘orsa hayvon-u mo‘r-mo‘jakni,
Yordamim bo‘lgay unga mahshar kuni.

Bir og‘och yo bir hosil, yo g‘ayri zot
Kim suvg‘orsa, aylasa ularni shod,

Bog‘lagay Haq yetti do‘zax eshigin,
Jannatga doxil qilar jon-u tanin.

Ham azobsiz, ham hisobsiz mardi xos,
Shubhasiz, bo‘lgay u do‘zaxdan xalos.

Kim sug‘orsa qayerda bir suvsagan(n)i,
Savob topar go‘yo tiriltib ani.

Bas, suvg'orishdadir savob behisob
Boqiysi vallohu a'lam bis savob[1].

Kim sug'orsa qayda bir sirobini[2],
Bas, ozod etgan savob topdi ani.

HIKOYAT

Rabot yopmoq[3] savobini bilsangiz,
Savobi behisob bino qursangiz.

Avval zamon o'tdi bir ulug' kishi,
Rabot yopmoq edi bandaning ishi.

Uni tushda ko'rib, so'filar biri,
Dedi: Haq baxsh etdi nechuk taqdiri?

Dedi: azob ichra tortardim men oh,
Ketdi azob, bunga Tangrimdir guvoh.

Bir kecha so'radi yana sababin,
"Nechuk xalos bo'lding?" Aytgil javobin.

Dedi: bir cho'l yerda qurdim men rabot,
Ketdim undan aylab yaxshi bir niyat.

Soyasiga keldi bir karomatli,
Kechir deb Haqqa bir duo aytdi.

Ul duoning ortidan bo'ldim xalos,
Xalos etdi qal'aga singgan ixlos.

---

[1] **Vallohu a'lam bis savob** — to'g'risini Alloh bilar.

[2] **Sirobi** — lug'atda "suvdan qongan", "jo'shgan" deb tushuntirilgan.

[3] **Rabot yopmoq** — qal'a qurmoq degan ma'noda. Bu ibora Maxtumqulida ham uchragani uchun tarjima etmay olishni ma'qul ko'rdik. *Maxtumquli shunday yozadi*: "Kunda bir rabot yopandan, Haqdan tila, avlod qolsin".

Saxiylarning so‘zin tinglading, mana,
Oti oshkor bo‘lgay jahon ahlina.

Er yigitga saxiylikdir shon-sharaf,
Chiqarar otin jahonda har taraf.

Jannat ichra bir og‘ochdir ul saxiy,
Niyatidir asli Haqning rizosi.

Jannat ichra yetgan Haqning soyasi,
Soya ichra bo‘lar jannat egasi.

Kechirmoqchi bo‘lar Allohning quli,
Bandaning gunohin yuvar, ey vali.

Mevasi fazl-u karomatdir anga,
Uchmox ichra xush shafoatdir anga.

Ey kishi, aybingni yopar saxiylik,
Kishi aybin ochgan narsa baxillik.

Savob yo‘qdir saxiylikdan ilgari,
Bilib qo‘ysin buni dunyo ellari.

Borli kishilarning bor saxovati —
Bu dini dunyoning saodat-baxti.

Bilib qo‘y, ul Haqdan fazl-u karomat,
Tangridan yaxshilik — lutf-u inoyat.

Agarda to‘ydirsa ochlarni shohi,
Shubha yo‘qdir, olar Haqdan uchmohi.

Bir och faqir yesa uning nonidan,
Ko‘p olqishlar topar ul sultonidan.

Agar kim g‘aribning ko‘nglini olar,
Ul kishidan Haq o‘zi rozi bo‘lar.

Kim jahonda xalqqa ehson aylagay,
Haq uning ishlarin oson aylagay.

Tangri suygan bandadir ul shohi,
Demak, bo‘lmas unga hargiz do‘zaxi.

Rasulullоh hadis aytib kechibdir,
Tingla chindan, aytganlari nechukdir?

Ko‘p namoz, ko‘p ro‘za birla kimsani
Jannat ahli demak bo‘lmas, bil ani.

To‘rt ish bilan bo‘lar odam jannati,
Haq fazlidir, chek sen undan minnati.

Ikkinchisi — ehson etgin barchaga
Ham taomni Haq yo‘lida sadaqa.

To‘rtinchisi — qalbi poklikdir, biling,
Uchmox eli deydi bularni Karim.

Vahshiy qushlar tuzoq bilan tutilar,
Odam ehson bilan undan qutilar.

Do‘st tutardi Tangri ehson qo‘lini,
Haq ochar unga muhabbat yo‘lini.

Kimdir qilsa ehson, Tangri shu bilan,
Kim keltirsa imon, Tangri shu bilan.

Ya’ni kimki och to‘ydirsa dunyoda,
Jannatga doxildir ul kas, ey banda.

Och kishidan kim taomin qizg‘anar,
Haq taolo undan fazlin qizg‘anar.

Do‘zax ichra ham azob etgay uni,
Ibrohim Xalil so‘zidir, bil buni.

O‘qigil, payg‘ambar so‘zi bu kalom:
To‘rt kishiga jannat berar Alloh ham.

Biri udir — kim to‘ydirsa bir ochni,
Biri udir — yopsa bir yalang‘ochni.

Ro‘za tutganidir — shu uchinchisi,
Haq kalomin o‘qigan — to‘rtinchisi.

Uchrasa agar senga bir faqir,
Ber qo‘lingda bo‘lsa non, ko‘rma haqir.

Haq rizosi uchun to‘ydirsang ochni,
Hech gumonsiz jannat sengadir vojib.

Haq uchun kim yerga urug‘ tashlasa,
Yo musulmon banda ishin ishlasa,

Shaksiz bo‘lar Haq rizo u bandadan,
Borin qizg‘anmagan och darmandadan.

Dunyoda ikki malak aylar nido,
Mudom aytarlar duoda, ey Xudo.

Berganlarni quruq qo‘yma, ey Alloh,
Rizq-u davlat bo‘lsin bularga hamroh.

Ortsin uning davlati kundan kunga,
Bir dirhamga o‘n evaz bergin yana.

Ham ziyod qil dunyo ichra molini,
Qil farog‘at kulli hol-ahvolini.

Haq mustajob — qabul etar duoni,
Dunyoda, albatta, boy etgay ani.

Berar Alloh unga sog‘lik-sihhatni,
Ortar uning o‘g‘il-qiz-u davlati.

Yaxshi oti uning olamni tutar,
Xush sifatin har kim doimo aytar.

Ko‘ngillarda yaxshi ko‘rinar o‘zi,
O‘tar uning xalq orasida so‘zi.

Tillarida ayon bo‘lar yaxshilik,
Ato etar Tangri unga xush qiliq.

Sano aytar unga barcha yaxshilar,
Shohiga darveshlar duolar qilar.

Foydasi ko‘p bo‘lar duoning oshkor,
Yaxshi huzur topar olam ichra er.

Oxiratda ham uning ehsonini
Orttirar Haq-Xudo savob sonini.

Har bir luqmasini Uhud tog‘idek
Ulkan qilar Parvardigori beshak.

Agar Tangri davlat bersa bir qulga,
Odat qilsin taqsimlashni sog‘-so‘lga.

Barcha maxluqlarga ochiq tut yuzing,
Tildan kelsa, aytaver yaxshi so‘zing.

So‘z so‘zlama hech musulmonga yomon,
Barcha mo‘minlardan bo‘lma badgumon.

Har tarafga umid o‘qin o‘qlagil,
Xalqni sev, bo‘l xalqqa suyukli o‘g‘il.

Hikmat aytganlarga yaqin qil o‘zing,
Hikmat bilan so‘zla har aytgan so‘zing.

Hikmat elin Xudo ham sevar qat’iy,
Bu haqda aytadi Kalomning xati.

Haq uchun bersang gar xurmoni ham,
Tangri zoye qilmas uni, ey g‘ulom.

Barcha kishi bilgin Tangriga yaqin,
Ko‘ngling sovutmagin, ey xo‘stori din[1].

Xizmatingni hech kimsadan ayama,
Alloh bilar qadring, rahm aylar sanga.

Umid o‘qing bir kun tegar nishona,
Yetar uning foydasi har insona.

Sen, yo‘lovchi, mol-dunyoni elga soch,
Ilm-hikmat eshigini sidq ila och!

Ochding, endi bo‘lding hikmat birla sen,
Mudom bersang yordam — davlat birla sen.

Tangriga ko‘p yaqin bo‘larmish ul kas,
Nodon bo‘lsa gar, o‘tar umri xabas.

Aqli komil ko‘zlagil sen bemalol,
Aqlidan sening aqling topar kamol.

[1] **Xo‘stori din** — din himoyachisi, qo‘riqchisi *(tarj.)*.

Darveshlarning suhbatidan ol xabar,
Kim uni istamasa, go‘yoki xar.

Kim sadaqa bersa saxiy qo‘l bilan,
Aytar dil so‘zini jon-u dil bilan.

Ya’ni egasiga aytar bu so‘zni,
Xudo bandalarga sarf etdi bizni.

Biz oz edik, ziyod etding sen bizni,
Biz past edik, baland etding sen bizni.

Boqiy etding, bir vafosiz foniydik,
Do‘st aylading,
yo‘qsa bir dushmanidik.

Keng kunlarda bizga ko‘p zot beribsan,
Qo‘lingiz tutarmiz, xo‘b ish ko‘ribsan.

Xayr egasiga shunday so‘zni so‘zlar,
Haqning izni bilan eng yaxshi yuzlar.

Umid et Tangridan, sen ham beraver,
Xayr-ehson bog‘idan meva teraver.

Kalitsiz mumkin emas bog‘ga kirmak,
Bog‘sizga mumkinmas mevalar termak.

G‘aflatdan uyg‘ongil, dam ushbu damdir,
Uxlab qolgan odamning aqli kamdir.

Karim-o, qil karam banda karomat,
Qilgan farmoningga bergin sen qanot.

Madad bergin, ado qilaylik farmon,
Qolmasin bandalar qalbida armon.

Saxiy odamlarning baxti haqida

Bu so‘zlar kelibdi Haq rasulidan,
Tinglamasa kim uni johil-u nodon.

Bas, saxiyik, bilgil, imondan bo‘lar,
Ham imon jannati rizvondan bo‘lar.

Haq unga rahmat nazari bilan boqar,
Kecha-kunduz ichra ul etmish safar.

Jannat ichra bir og‘ochdir bu soha,
Qadri uning bo‘lar barchadan a’lo.

Kim saxiy bo‘lsa, uning qo‘lin tutar,
Bir lahza to‘xtamay, sirotdan o‘tar.

Haq jannatga eltar, shubha yo‘qdir, bas,
Uchmohdagilarning eng zo‘ri ul kas.

Ham xaloyiq, Rasul ham Parvardigor
Barcha saxiylarni yurakdan suyar.

Shubhasiz bo‘lgay qulay jannat unga,
Do‘zax o‘ti yetmas uning joniga.

Saxiylarga Tangrining yordir o‘zi,
Jannatda Rasul birla bo‘lar qo‘shni.

Baxillikdir do‘zax ichra bir og‘och,
Uning uzunligin bilgil — ming quloch.

Baxilni u og‘och tutar shu zamon,
Do‘zaxga tashlar uni, yo‘qdir gumon.

Do‘zax ichradir baxillar barqaror,
Shubhasiz ular bo‘lgay iblisga yor.

Qo‘y, bilsinlar jannat ahli, ey inson,
Do‘zax ahlidir baxillar, al-omon.

FASL

Dedi Payg‘ambar: me’roj kechasi
Sayron etdim jannat ila do‘zaxni.

Do‘zaxning holini ko‘rishga bordim,
Bir o‘tdan yasalgan tobutni ko‘rdim.

Tobut ichra xush yotardi bir kishi,
Ushbu o‘tning uni birla yo‘q ishi.

Bor uning yonida ham ikki malak,
Issiq-sovuq uni aylamas halak.

Ya’ni otash issig‘i yetmas anga,
Ushbu ishni ko‘rib bo‘ldim hayrona.

Jabroyilga dedim:
“Kimdir bu janob?”
“Hotam Toy arab” deb berdilar javob.

Kufri uni do‘zax ichra o‘qladi,
Saxiyligi o‘tdan omon saqladi.

Saxiyligi ul kofirga naf bo‘ldi,
Shu ravishda do‘zax o‘ti daf bo‘ldi.

Sen ham saxiylik qil qo‘lingdan kelsa,
Shifo berar agar ming darding bo‘lsa.

Ey Xudoyim, o‘t-otashdan omon ber,
Unga saxovatning suvin to‘kaver.

Uchquni qolmay topsin olov barham,
Fazl egasi, Karim, kechirgin sen ham.

FASL

Tangri demish ushbu so‘zni, kel, o‘qi,
“Lan tanalul birra hatta tunfiqu”[1].

Haq demish qilsang sadaqa sevmishing[2],
Ikki olam ichra osondir ishing.

Sevgan narsang sen agar sarf etmasang,
Jon-u dildan Tangri amrin tutmasang,

Odam o‘g‘li, na bo‘lar holing sening,
Kechirsa, bahordir ahvoling sening.

Yaxshi narsadan sadaqa bermasang,
Tangrini hozir-u nozir ko‘rmasang,

Sensan riyokor, deb aytarlar gapi,
Yig‘gan moling elga tegmasa nafi.

Moling bo‘lsa, yaxshisidan elga ber,
Rozi bo‘lsin, Tangri sevgan banda, der.

Agar bo‘lsa senda in’omi davlat,
Dardmand g‘aribga aylagil madad.

Yo badanda bo‘lsa quvvat, ey, g‘ulom,
Quvvating toatga sarf ayla tamom.

Yo ko‘ngling Haqqa sevar joy ayla,
Ham uning ishqida oh-u voy ayla.

---

[1] *Qur’on.* 3-sura, 92-oyat. *Ma’nosi:* “Suygan narsalaringizni infoq-ehson qilib bermaguningizcha hargiz yaxshilikka (jannatga) yetmagaysiz”.

[2] **Sevmishing** — “yaxshi ko‘rgan narsang” ma’nosida *(tarj.).*

Yoki joning Haq rizosin ko‘zlasin,
Rozi bo‘l har hukmiga, bechora sen.

Har so‘rovni Allohga ayt, ey banda,
Bandasiga aytishdan qayt, ey banda!

Bo‘lding endi Tangrining xos bandasi,
Ko‘ngli pok, sohibi ixlos bandasi.

FASL

Haqqa shukur aylagay har bitta zot,
Bu oqillik boshidir, ey odamzod.

Ham yana sadaqa aylamak pinhon,
Bari bilan mador aylagil, inson.

Yaxshi xulqin ro‘zi-mahsharda qulning
Xayr manziliga solar, ogoh bo‘ling.

Xush qiliqli
Haq suygan har odamning —
Itoat — no‘xtasi bo‘larmish aning.

Shu no‘xtadan bir farishta tutarmish,
U kishini yaxshi ishga eltarmish.

Yaxshi ishi maslahat bergay anga,
Xush fikr-u xush kalom kelgay anga.

Yaxshilik ham eltar uni jannatga,
Ne’mat olsa, ul tuganmas rahmatga.

Da’vo bo‘lmagay yaxshi bor joyda,
Yaxshilar so‘zida ko‘p bo‘lar foyda.

Badxulq bo‘lgan bir qulining burninda,
Yana bitta no‘xta bo‘lar o‘rninda.

Ushbu no‘xta qo‘lidadir shaytonni,
Ko‘nglin yomon ishga tortar insonni.

Shu sababdan yomon so‘zlar tilinda,
Kezar doim yomon fikr ko‘nglinda.

Do‘zax sari tortar bu yomon ahvol,
Yomonni do‘zaxga tashlagay darhol.

Haq Rasuli demish: suhbat istasang,
Hamsuhbat bo‘l faqat yaxshilar bilan.

Haq yaratmishdir tilni ehson uchun,
So‘z aytishga — zikri Haq — Subhon uchun.

Til bilan ma’lum bo‘lar kufr ham imon,
Til bilan ma’lum bo‘lar yaxshi-yomon.

Ham savob-u, ham gunoh ishlar tamom
Til bilandir, tinglagil, ey, sen odam.

Ko‘ngil ichra avval fikr aylagil,
Farq etib yaxshi-yomonni so‘ylagil.

Gar yomon so‘z bo‘lsa, yumgil dudog‘ing,
Yaxshidir yaxshi so‘z aytishga chojing.

NASIHAT

Go‘yoki hovuzdir dunyoning holi,
Xalq suzar ichinda baliq misoli.

Bir qurilgan to‘rdir ularga alam,
Ovlar o‘lim farishtasi — o‘shal dam.

Bu sayyod qo‘lidan hech bir jonivor
Hiyla bilan qutulmas, ey nochor.

Chunki biling, yo‘qdir qochishga yering,
Topshir ishing, tingla shudir rahbaring.

Adab birla farz-u sunnatni kunda
Bajargin, Xudoga qulliq qil, banda.

Bor ishni undan bilib, shukrin yetir,
Kelsa to o‘lim hukmi, amrin bitir.

Gar eshitsang yaxshilarning pandini,
Ocharsan ul mag‘firat[1]ning bandini.

Ko‘ngil to‘lmas ul ma’firat nuridan,
To‘liq bo‘lar ko‘ngling har qachon undan.

Hamd-u sano — olqish aytgin qul kabi,
Sayragin gul istagan bulbul kabi.

Yo‘lingda bir fursat bo‘lma xotirjam,
Ko‘zingda yosh bo‘lsin, ko‘ngilda — alam.

Jon bilan ishqida bo‘lgin bag‘ri bo‘sh,
Zarra sen, vafodan ul kunga ulash.

Allohning so‘zi: “Inna akramakum
indaallohi atqokum”[2], bor oyatkim.

Haq so‘zi: “Inna lil-muttaqina inda
Robbihim jannatin naim”, oyatinda[3].

---

[1] **Mag‘firat** — kechirmoq, gunohidan o‘tmoq. Ayrim nashrlarda bu so‘z ma’rifat –ilm-bilim ma’nosida berilibdi.

[2] *Qur’on.* 49-sura, 13-oyat. *Ma’nosi:* “Albatta, sizlarning Alloh nazdidagi eng hurmatlirog‘ingiz taqvodorrog‘ingizdir”.

[3] *Qur’on.* 68-sura, 34-oyat. *Ma’nosi:* “Albatta, taqvodor zotlar uchun Parvardigorlari huzurida noz-ne’mat bog‘lari bordir”.

Dindorlar ichinda chin dindor taqvo
Doimo xush kelar janobi Haqqa.

Kim taqvodor bo‘lsa, Haq unga do‘stdir,
Haq suygan qullarning yo‘llari rostdir.

Xudo demish: ular jannat elidir,
Hisob kuni ul payg‘ambar kabidir.

Barchalar ulardan ehsonni olar,
Tariqatda imon egasi ular.

Kufr daryosidan chiqmish salomat,
Yorug‘ qalbli bo‘lar ular tamomat.

Xudoni yod etar qalb ichra bori,
Qilarlar har zamon Tangriga zori.

Yorug‘ qilib ko‘ngillarin ko‘zgusin,
Ko‘zin yoshlab, ocharlar jon ko‘zlarin.

Ko‘rar ular Xudoni qalb uyida,
Xudodan boshqa yo‘q ular kuyida.

Nazar qilib turar ular Xudoga,
O‘zlarini tutar jabr-u jafoga.

Fikr-zikri ularga Haqning o‘zidir,
Nima yozsa, Haq yuborgan so‘zidir.

Egasin eslar ular joni birla,
Birikib jon ila jononi birla.

Havo ko‘prigidan ular kechibdir,
Xudoning ishqida sharbat ichibdir.

Ishqida mast bo‘lib, boqmas jahonga,
Qaramas jannat-u hur-u jononga.

Tubsiz dunyo dengizida u qullar,
O‘tib, darvesh bo‘lgan — ul ahli dillar.

Xudoga topshirib u barcha korin,
Tilar jon uyida o‘z Bir-u borin.

Fikrida ishq dengizida kezarlar,
Bo‘lar ba’zan bu daryoda guzarlar.

Topib haqiqatni ul ushbu yo‘lda,
Quloq solmas sasga ul sog‘-u so‘lda.

Ovoz berar har yondan Parvardigor,
Orif bo‘lib, bo‘lsa unda xabardor.

Haq-nohaq, yaxshi-yomon socharlar,
Sirli ilmlardan suhbat ocharlar.

Xabar tutsa kishi kim ma’rifatdan,
Topar dur ma’nisin har bir jihatdan.

Orif odam so‘zlab, dur sochsa agar,
Hayron qolmas uni eshitgan ellar.

Tariqat yo‘liga manzil bu hikmat,
Haqiqat bog‘ida bulbul bu hikmat.

Tangrisini topar kim topsa ani,
Ko‘zidan yosh oqar, ortar fig‘oni.

FASL

Ro‘za tutishning foydasi bayoni

Ro‘za tutgan uchun savob barhaqdir,
Bu haqda Rasulning aytgani haqdir.

Ibodat eshigi deb bil ro‘zani,
Eshik ochar agar kim tutsa ani.

Eshik ochsa, bandalik ichra kirar,
Bandalik bo‘stonida gullar terar.

Ro‘za tutmoqdir ibodatning boshi,
Tutmasang gar, tanang vayron, ey kishi.

Ya’ni bosh bo‘lmasa, gavda losh bo‘lar,
O‘lik derlar agar kim bebosh bo‘lar.

Ro‘za aysh-u ishrat o‘yin so‘ndirar,
Bandalarni Haq tarafga do‘ndirar.

Ro‘za tutmoq taning zakoti bo‘lar,
Kim tutsa, Haq yonidan ehson olar.

Ro‘za tutmoq bilan pok bo‘lar kishi,
Ham gunohdan tozargay ich-u tashi.

Ro‘za tutmoq anbiyolar ishidir,
Bajarganlar toatlilar boshidir.

Tutgan erning ro‘za nafsin o‘ldirar,
Ma’rifat nurini ichga to‘ldirar.

Tangri berar ro‘zadorning haqini,
Behisob o‘lchov bilan mahshar kuni.

Duosi qabuldir ro‘za tutganning,
Haq oldida yuzi pardasiz uning.

Ham hadis ichida demishlar shuni:
Ro‘za tutsa Haq uchunkim bir kuni,

Do‘zax o‘tidan yetmish yillik yo‘l,
Uzoq qo‘yar uni qodir — Zuljamol.

Ayon bo‘lar yetti ahvol, ey, banda,
Do‘zax bilan ro‘zador orasinda.

Kel, eshitgil, nechuk bo‘lar ul ahvol,
Shuni bilgil, bo‘lar besh yuz yillik yo‘l.

Ro‘zadordan do‘zax otashi qochar,
Havz-u kavsardan ul sharbatlar ichar.

Ro‘zadorga keng behisht ichra Xudo
Joy tayinlab qo‘ydi, bil ey kadxudo.

Yaxshi qullar qatorida tutgay ani,
Izzat-u ikrom bilan kutgay ani.

Ham yaqin qilgay ani o‘ziga Haq,
Lutfi ko‘p, ehsoni ko‘p qilgay atoq.[1]

Chunki nafsning orzusini bermadi,
Dunyoning ne’matin ko‘p yedirmadi.

Shu sababdan aziz qildi Haq o‘zi,
Vaqti bo‘ldi to‘lgan Oydek ul yuzi.

Ro‘zadorning isi Tangri yoninda
Mushk isidan yaxshi bo‘lar, ey banda.

[1] “Lutfi-ehsoni ko‘p Xudo unga ko‘p narsalar beradi, gunohidan kechadi” ma’nosida.

Xush kelarmish Haqqa toatning isi,
Rozi bo‘lgay ushbu ishdan egasi.

Xos qulidir rozi qilgan egasin,
Topar ul qul Arshda Haqning soyasin.

Ro‘zador ul kunda qabridan turar,
Tangrining hurmatin, siylovin ko‘rar.

Turli ne’mat, turli sharbatlar bilan,
Yaxshi juvon, toza chanoqlar bilan

Malaklar ko‘tarib qarshidan kelar,
Ham ularga xayr-u karamlar qilar.

Derlar anga: “Yeb-ichib, xush aylagil,
Tangrining ne’matlarin no‘sh aylagil.

Berdi Tangri bu boqiy mulkni senga,
Ochdi uchmox eshigin senga yana”.

Turli ne’matlarni jam etgay tamom,
Janobi Haqdan unga yetgay salom.

FASL

Odam o‘g‘li, g‘aflat tutibdir seni,
Tushar g‘ofillar bu, tingla meni.

G‘aflat dunyo ichra sonsizdir, kondir,
Ikki olamda g‘ofil bemakondir.

G‘aflatga tushganlar yetmas manzilga,
Yana visol topmas maqsad elida.

Bu g‘aflatdan uzoq bo‘lgil, ey odam,
Mahshar hisobidan yegin gardi g‘am.

Qanday bo‘lsin sendan yiroq bu g‘aflat,
Agarda bo‘lmasa bu dog‘i-hasrat.

Ayyor nafs istagidan — ayshdan saqlan,
Amrin tut, nafsni qo‘y, umid et Haqdan.

Yiroq qilgay seni parhez-riyozat,
O‘zing tarbiya qil, et Haqqa toat.

Tarbiya yaxshisi tovba bilandir,
Tovba bilan maqsad hosil bo‘landir.

Odam ro‘za bilan nafsi-havosin
Yiqar, sindirar uning barcha binosin.

Tomirlardir shayton uchun yurar joy,
Odam, senga solar ul bir yomon ray.

Yomon andeshalar solar ul mal’un,
Tomirlarda kezar go‘yoki qon-xun.

Ro‘za tutgan uning joyin qilar tor,
Dardlar topib, ul hasratda bo‘lar xor.

Moyil qilib ro‘zani toatiga,
Zanjir urar ul iblis qanotiga.

Bir yaqinlik istar ul bilan banda,
Tushar shayton lain bo‘yniga kunda.

Gar to‘ydirsa qornin oqil-xushli er,
Kasal topar, shaksiz bo‘lar ul bemor.

Moyil etar aysh-u ishratga ani,
Solar lain iblis g‘aflatga ani.

Yaqin keldi bir kun Yahyoga iblis,
Qo‘lida turba bor ham hiylakor bir yuz.

“Nima?” — deb so‘radi Yahyo turbani,
“Bu turbayi ayshdir”, — dedi ul ani, —

Bular birla batamom odam o‘g‘li,
Bo‘ladir aysh nafsi birla bog‘li.

Mana shuning bilan bog‘lab ularni,
Turba — tuzoq, qurarman men tuzoqni.

Solarman ularni g‘aflat uyiga,
Ko‘tarib tashlarman do‘zax teyiga”.

“Mening turbam qani?” — deb so‘rdi andan,
Dedi iblis: “Senga foyda yo‘q bundan.

Magar qorning bir kun aylading sen to‘q,
Seni ibodatga og‘ir qildim cho‘x”.

Yahyo dedi: “Ahd etdim men Tangriga,
To‘ydirmasman qornimni bundan so‘ngra”.

Dedi iblis: “Men ham ahd etdim, ammo
Birovga to‘g‘ri so‘z demasman aslo”.

FASL

Toat zavqin istaganlar yurar g‘amgin,
Vafo birla Haq yo‘lida berar jonin.

Sen istasang gar munojot lazzatin,
Sen o‘zingga tobe ayla nafsing itin.

Pisand etma neki buyursa nafsing,
Quloq burib, ko‘tarma aning nozin.

Kunda bir yemoqqa o‘rgat ul sakni,
Yo‘qsa bo‘yinsunmas, bilgin, din begi!

O‘zga dushmanlarga bersang sen taom,
Do‘stligin ayon etar ular tamom.

Huzr-u karam etsa nafsiga kishi,
Yedirib-ichirar ko‘p ob-u osh(n)i.

Tutmas nafs amr-u farmoning sening,
Loyiq aylar do‘zaxga joning sening.

Bas, munojot birla toat zavqini,
Nafsin och etgan topar, bilgin shuni.

Bir misoldir: qara sayislar otin
Kechalar kezdirib, kamaytar etin.

Shunda ot chopishga ko‘p loyiq bo‘lar,
Yo‘qsaki chopishga yaramas alar.

Agar ovchi qo‘lga olsa ovqushi,
Qo‘ldan chiqmoq bo‘lar qushning tashvishi.

Ancha kun tarbiya bersa ul qusha,
Uns etib, ovchi birla ovga tusha.

Kim hayvonni rom etmak istasa,
Uning xizmatini yuragiga joylasa,

Avvalo, xushlik bilan tutmak kerak,
Bog‘lab, oldiga oz-oz o‘t bermak kerak.

Och saqlab gar ozg‘in qilsang tanini,
Darrov bajarar ul har aytganingni.

Bu misolidir nafsga, ey din eri,
Nafsin o‘ldirganlar erlar sarvari.

Nimadir sabab uni o‘ldirmakka,
Haq yo‘lida ul itni ketkizmakka.

Ro‘zador nafs egriligin tuzatar,
Yomon kishi nafsin yo‘liga ketar.

Egri og‘ochdir bu nafs, ey ahli hol,
Oqil bo‘lsang, darrov uni yo‘lga sol.

To‘g‘ri qilsang o‘tga tutib sen uni,
Ham unutma Haq taolo zikrini.

Shundan so‘ngra do‘stga munosib bo‘lar,
Do‘stlar ani qo‘lga olsa yarashar.

Endi agar do‘st ani etsa qabul,
Bas, qabul aylar Xudo hamda Rasul.

Agar egrilikcha qolsa u, qurg‘ur.
Nega mangzar, o‘zing, axir, o‘ylab, ko‘r.

Hech kim ani qo‘lga olmoq istamas,
Haq do‘sti ham nazar solmoq istamas.

O‘tga loyiq bo‘lar oxir ul og‘och,
Voy agar kim bo‘lsa uning asli kech.

Tarbiya bilan agar tuzalmasang,
Tangri fazlin olgin, pandim olmasang.

Haq oldida menlikning yo‘qdir yeri,
O‘zdan kechgin o‘zing eldan ilgari.

Donadir bu nafsing, un etgil ani,
Butun bo‘lsa, bajarmas ul farmoni.

So‘ng elanar, mushtlanadi ul beshak,
O‘t azobin tortib, bo‘ladir cho‘rak.

Alg‘araz, olov ko‘rmay hech pishmadi,
Xom bo‘larkim, nafsi o‘tga tushmadi.

Qiynoq — tarbiyadir senga ushbu o‘t,
Ham senga sinovdir, ham yaxshi toat.

Tangri ishqida pishgan hech tonmagay,
Mahshar kuni do‘zax ichra yonmagay.

Eski latta bil bu qog‘oz aslini,
Tarbiya birla nafis etmish ani.

Ustasi jam qilib, tosh urdi anga,
Kun azobini har chog‘ berdi anga.

So‘ngra soldi uni bir tegirmona,
Aylanib, un bo‘lib chiqdi u yana.

Yaxshi qo‘l ichra solib darmon bilan,
Qog‘oz yetdi lattani farmon bilan.

Jumla xalq unga xaridor bo‘ldi, ko‘r,
Ilm ahli qog‘ozga yor bo‘ldi, ko‘r.

Sovg‘a bo‘ldi, kezdi ul qo‘ldan qo‘lga,
Xat yozildi, ketdi ul eldan elga.

Avval yerda yotgan bir eski edi,
Xalqning hurmatiga loyiq u endi.

Bu latta — nafsingni menlikdan ketkar,
Ur tarbiya toshini, ayla darbadar.

Un aylagil anga urib qattiq tosh,
Ko‘l aylagil ani ko‘zdan to‘kib yosh.

Tarbiya anjomiga sen solding ani,
Egrisin rost aylasin, bo‘lsin o‘ngi.

Ham ibodat eshigin ochgil ravon,
Haq zikrin pesha qil oshkor-u pinhon.

Qilgil o‘zingni mudom tuproqqa yor,
Ko‘ngling past tut barcha
xalqdan xor-u zor.

Bir umid uldirki, Haq etar qabul,
Yordam etar havas birla ul Rasul.

Rozi bo‘lsa kimsadan Qodir o‘zi,
Tark etar Haq zikridan o‘zga so‘zi.

Qullaringga qil nasib, ey Bir-u bor,
Kecha-kunduz Yor zikrini qilsin yor.

Qayum et ularni sunnat yo‘liga,
Sherik ayla ahli jannat eliga.

Yo‘llarini to‘g‘ri qil o‘zingga sari,
Bo‘lsin ular toki maqsad gavhari.

Sharri shaytondan omon qil ularni,
Birligingga begumon qil ularni.

FASL[1]

Do‘st orada bog‘langan bir pardadir,
Kim uzsa, birikdi ul har yerdadir.

O‘zing yirt pardani qoldirma izin,
Hech shubha yo‘qki, ko‘rarsan do‘st yuzin.

Pinhon do‘stni istagan borin quvar,
Odatiy do‘sting budir — xilvat sevar.

Istasang uning rizosin ko‘zla, bor,
Ahli dushmandan siringni gizla, bor.

Suyganingni tutsang, berar suyganing,
Haq uyidan qurar ul joying saning.

Bu hijob pardadan o‘zing uz, habib,
Yo‘qsa do‘st diydori bo‘lmagay nasib.

Ya’ni o‘zlik pardasidan uz o‘zing,
Shunda ko‘rar do‘st diydorin jon ko‘zing.

Jon qulog‘i tinglar do‘sting ovozin,
Sayr ichida qurar do‘st senga sozin.

Undan olar visol isin burni — jon,
Bu xabarni bilib — ko‘ngilda fig‘on.

[1] Bu fasl tasavvuf haqida bo‘lib, so‘fining Xudoga yetishmog‘i haqida so‘z yuritiladi.

“Ko‘rmadim, — deb ortar unda yong‘ini —
O‘zga bo‘ldi, bilmadim, do‘stim qani?”

Shu sababdan ishq o‘ti uni yoqar,
Shu xabardir, ko‘zlaridan yosh oqar.

Ikki guvoh tasdiq etar ishqini:
Yuzlari sariqdir, oriqdir tani.

Har zamon ko‘rar tajalli[1] ul vali,
O‘tga tashlar o‘zini jon bulbuli.

Go‘yo merganga duch kelgan kiyiklar,
Xilvat istab, raqibdan tinchlik tilar.

Shu sababdan, shovqinni suymas bu kas,
Shovqin bilan o‘tgan ul vaqtlar abas.

Goh zikrdir, goh fikrdir peshasi,
Undan boshqa yo‘q aning andeshasi.

Zikr etganda go‘yo chaqirmoq bo‘lar,
Fikr etganda, ma’shuqin ko‘rmak bo‘lar.

Ko‘rmak bilan qo‘ymagay ul jon ko‘zi,
Fikrat ichra chashmi giryondir o‘zi.

Saxiyning baxtliligi bayoni

Ul Rasuli Haq dedi ushbu so‘zi,
Ochilar, tutsang quloq, ko‘ngil ko‘zi.

Kim hurmat ayladi o‘z Subhonini,
Bersa mulkidan zakotlik molini,

[1] **Tajalli** — nur, yorug‘lik. Xudoning nuri.

Saxiy deb atarlar boshqa osmonda,
Ikkinchida — jo‘mard degaylar anda.

Uchinchi osmonda toat etguvchi,
Ya’ni Tangri amrini rost tutguvchi.

Ot berarlar to‘rtinchi osmon ichra,
Xo‘storlik etuvchi ojiz qullara.

Beshinchi osmonning navbati kelar,
O‘zga zot xarjlagan kishi deyarlar.

Oltinchi osmonda o‘shal kishini,
Barakotli derlar, barcha ishini.

Yettinchida u mashhur deb aytilar,
Ya’ni Alloh kechirdi demak bo‘lar.

Bu sifat bir kimsaga ot bersalar,
Mahshar kuni qo‘rquvchi bo‘lgay alar.

Tangrini rozi qilgan moli bilan,
Jannatga kirar Rasul yoni bilan.

Baxil badbaxtligi bayoni

Bermasa kimsa zakotin — molini,
Tinglagil sen ul kishining holini.

Bu osmonda unga baxil degaylar,
Ikkinchida xasis otin qo‘ygaylar.

Uchinchida nafsi balo oti, bil,
Yig‘ar, tuyar, elga bermas zoti ul.

To‘rtinchi osmonda oti badqiliq,
Ya’ni yetmas hech kimsaga yaxshilik.

Beshinchi osmon ichida sho‘rxok yuz,
Ot qo‘yarlar ul kimsaga deb yovuz.

Barakatsiz deydi oltinchi osmon,
Barakatni topish emasdur oson.

Ham dag‘i hasrat derlar ul qul(n)i,
Rozi bo‘lmas undan aslo o‘z eli.

Yettinchi osmonda bilib qo‘y, ey er,
O‘sha kimsaning ismini murdor der.

O‘qigan namozi yuzga urilar,
Mahshar kuni undan hisob so‘ralar.

Bu sabab rasvo qilib mahshar kuni,
Ko‘p azob ichinda saqlarlar uni.

Tangri aytar uning moliga qarab,
“Bering bu kun o‘z egasiga azob!”

Haq amri birla azob etgay ular,
Jon bilan bag‘rin kabob etgay ular.

Ey boylar, shu bo‘ladir ahvolingiz,
Azob berar bu qilmish — amvolingiz.

Bas, hazar aylang azobidan Uning,
Shikoyatidan, hisobidan Uning.

Nozik badanga sizlar bermang jazo,
Bu azoblarni dedim, boylar siz(g)a.

Yo‘qsa etgaysiz pushaymon — soni yo‘q,
Bir yonar o‘t, hech so‘nar gumoni yo‘q.

Ya'ni moldan berilmasa gar zakot,
Tangriga aylar o'z egasidan shikot.

Der: "Xudo-yo, barchalar rizqin bergan,
Hammalarni maqsadiga yetirgan,

Rozi qilding surat-u jon bizlarga,
Rizqimizni tashlading olam ichra.

Ixtiyor etding bizga bir insonni,
Topshirib qo'liga molni, hayvonni.

Ya'ni bizdan ellarga xayr etsin deb,
Hukm-u farmoningni to'g'ri tutsin deb.

Ezgu ishlar bilan pok bo'lar inson,
Shod etib miskin-faqir ko'nglin ravon.

Amring tutmay, bizni ayladi zavol,
Boshqaga ber, bizni bu kimsadan ol!"

Bu so'zlarni Tangri eshitgan zamon,
Derkim: "Sabr eting, ey siz mol-u hayvon.

Dunyo ichra, bas, siz bilan ularni —
Mubtalo qildim o'sha badjonlarni.

Oxiratda bo'lar hollari xarob,
Siz tufayli unga berarmen azob.

Goh ilon bo'lib chaqarsiz ularni,
O't bo'lib, gohi yoqarsiz ularni.

Ularni goh xirmon kabi teparsiz,
Go'yoki bir tuproq-zamin etarsiz.

Yuz nadomat, yuz pushaymon etsalar,
A'zolarin ming bir marta kessalar,

Bo'lmagay bir zarra foydasi uning,
Erta hasrat birla voy-dodi uning.

Budir ishing, tingla, ey davlatli boy,
Zakotingni bermasang, voy uzra voy!

Baxsh aylagil barchani xalq aylagan,
Zabonsiz qudrat kalomin so'ylagan,

Yaxshi yo'lga barchalarning ketishin,
Bu zakotni g'aribga sarf etishin.

Zakotni berishda bor ikki ma'ni,
Aytayin, quloq tut tinglagil mani.

Birisi poklik bo'lar unga mudom,
Biri o'sajakdir ul ikki jahon.

Zakotga berilmish ul halol mollar,
Bermasa, unga haromi qorishar.

Habis derlar bu molingga dindorlar,
Harom deb aytarlar Haq ishqi borlar.

Barcha xayringni Xudo etmas qabul,
Ham nazar etmas bu molga Rasul.

Ya'ni o'smak ma'nosi budir ayon,
Dunyo ichra ortar ul mol begumon.

Oxiratda bir yeriga o'n kelar,
O'ningga yuz berguvchi ehson olar.

Gunohdan pok qilib, aylar uni shod,
Bo‘lar ul kas barcha tuhmatdan ozod.

Bas, yerda ekining ko‘rsatsa gar bo‘y,
Orttirar molingni, aylar seni boy.

Qarasa uzumga har yili bog‘bon,
Ko‘p hosil beradi uzum begumon.

Agar yara ichra bo‘lsa katta et,
Yara tuzalmasa, bo‘lmas salomat.

Bu zakot moling ichinda dard erur,
Dardi chiqsa narsaning, sihat kelur.

Aksi holda, sihat ko‘rmassan uni,
Yo o‘lar, yo nafi tegmas, bil shuni.

Yo zakot mol uchun bir qal’a bo‘lar,
Bermasang, go‘yo shu qal’a yiqilar.

Agarda tashida yo‘qdir qo‘rovi,
Qurt bilan qush bo‘lar alarning yovi.

Yana ham bir necha zakot bor senga,
Bergil ikkilanmay, qo‘ymagil so‘ngga.

Bas, muruvvat aylamak miskinlarga,
Molidan bo‘lgay zakot har boylarga.

Kamtarinlik bilan aylamak ehson,
Buyuklarning zakotidir, ey inson.

Davlatli uylarning to‘ydir zakoti,
Ojizlarga yordam qilmoqdir oti.

Farzandlar zakoti, ey oliy fahim,
Yetim-yesirlarga qilmoqdir rahim.

Ham yana uylar zakoti, ey ega,
Ya'ni chaqirmoq kerak mehmon uyga.

Ixtiyori qo'lida bo'lgan bandaga —
Yordam bermoq ojiz bir darmandaga.

Istasang, ilming zakotin ham deyay,
Ta'liming bermakdir bir o'quvchiya.

Tan sog'ligin zakotin sen belgila,
Barcha fitnalardan qaytmoq Tangriga.

Yana kuch-quvvatning aytay zakotin,
Do'st deb tilga olma dushmanlar otin.

Kel, eshit, na erur quloq zakoti,
Eshitma g'iybatga xos hikoyati.

Zakoti nima deb so'rasang tilning,
Yolg'on,
    tuhmat so'zlamaslikdir, biling.

Yana so'rsang ko'z zakoti deb nima,
Deydilar boqmaslik bir nomahrama.

Endi islom zakotini bil yana,
Bas, bo'yin egmaslik shayton amrina.

Imonning zakoti xizmat etmakdir —
Haq taologa hamd-sano aytmakdir.

Endi so'filik zakotin bilsangiz,
Podishoh dargohidan ayrilsangiz.

Ham faqirlik zakotin aytmoq kerak,
Tilamaslik Haqdan o‘zgadan tilak.

Istasang ko‘ngil zakotin, ey juvon,
Ulug‘ bilmoq islomni hamda imon.

Bas, tiriklik zakotidir jon fido
Aylamakdir foniylik Haq yo‘lida.

Jonni qurbon etmak oshiqqa baxtdir,
Yolg‘iz jonning o‘zi yarim tarafdir.

Haqdan ularning tilagi Haq bo‘lar,
Haqdan o‘zga jonda sevgi yo‘q bo‘lar.

Ishq bir yoydir, oshiq o‘q, ma’shuq nishon,
Otgan uchun Haq amrin tutmoq ravon.

To‘g‘ri tutsa, mo‘ljalga urar ani,
Egri bo‘lsa, bas, riyodir otgani.

To‘g‘ri tut-da Haq amrini, ot nishon,
Maqsadga yetarsan ayon, begumon.

Otgan mahal, hargiz bo‘lmagil ma’lul,
Demagil sen: “Rad etarmi yo qabul?”

Mudom ot hojat o‘qini, doiman,
“Shum naharan, kun layalan qayuman”[1].

Xob g‘aflat — uyqu berma ko‘zga, tur,
Qarab, hojat o‘qin har yonga ur!

Qur to‘ringni, kel o‘tir ovchi bo‘lib,
Tushsa ajab maqsading qushi kelib?!

[1] “Kunduzlari og‘zingni berkit, kechalari bo‘lsa tik o‘tir”.

Topsa yoridan xabar oshiq kishi,
Ul kuyga tushgan qo‘yarmi bu ishi?

O‘zga ishni qo‘y, tutib amrin mudom,
Bo‘lma g‘ofil zikr-u fikridan zamon.

Ishq ahliga ikki olamgohidir,
Zikri-fikri, so‘rashi Allohidir.

Zikri-fikringdan g‘aribni, ey Xudo,
Fazli-ehsoning bilan qilma judo.

Baxtli ayla umrimning har soatin,
Oxiratda diydoringdir maqsadim.

FASL

Dedi bu so‘zlarni Rasuli Xudo,
Davlating aksilmas aylasang bajo.

Bu zakotdirkim, imonning ko‘prisi,
Topar imon zakotin bergan ko‘pisi.

Ya’ni kimda yo‘q zakot, yo‘qdir imon,
Bu hadisdir etma bu gapga gumon.

Zakoting bo‘lmasa, yo‘qdir marhamat,
Kel, eshit bu so‘zlarni ham amal et.

Haqning dargohida namozing qabul
Bo‘lmas, zakot bermasang, ey banda — qul.

Kim zakotin qissa yoki man etgan —
Rasul uni butparastga mengzatgan.

Sa'laba deb biri zakot bermadi,
Haq Rasul ul damda "kofirdir" dedi.

Ya'ni masjid kaptari derdi avval,
Mol yig'ib, so'ng tushdi boshiga bu hol.

Haq yo'lida kimsa ehson etmasa,
Tangri buyrug'in gar tugal tutmasa,

Yig'sa ul oltin-kumush ranj aylasa,
Zakot bermay, boyligin ganj aylasa.

Gumon yo'qdir, bo'lsa qiyomat kuni,
Do'zaxning kunjida kezdirar uni.

Tamg'alarmish ul kishining oldini,
Bir faqir kelganda, quvding deb uni.

Orqasin ham uning tamg'alamishlar,
"Darveshga teskari boqding", demishlar.

Aylagaylar ul qulga sonsiz azob,
Til tomoqqa tiqilar, bo'lmas javob.

Ul boyliklar bo'lar ajdarho, ilon,
Cho'lashib boshingga, chaqar begumon.

Sening boyliging edim der ul senga,
Tishlab, chaquvchini urar sinovga.

Der: azob qilishga amr etdi Egam,
Yo'q senga azobdan qutulmoq biram.

Dunyo molin ganj etib yig'ding tutush,
Dedi: endi azobimdan ol ulush.

Ey boy, boyligingdan zakot bergin sen,
Yo‘qsa mahshar kuni azob ko‘rarsen.

Ezgu yurakli qil boylarni, Xudo,
Ganji-molidan zakot qilsin ado.

Mahshar kuni sen ozod qil ularni,
Hamda do‘zax o‘tidan mo‘minlarni.

* * *

Muso Haqqa bir odamni maqtadi,
Namozin jon-dildan o‘qiydi, dedi.

Ham tahorat birla arkoni ruku,
Bajarar barchasin xushu-la huzu.[1]

Haq javob aytdi unga: “Muso kalim,
Jon bilan aylar namozin ul qulim.

Ul bu amallarin qo‘rquvdan etar,
Ellar unga jannatni bor dedilar.

Ammo ul etmadi zakotni ado,
Bo‘lmadi uning namozi ham ravo”.

Bir kishi haj aylasa yuz martaba,
Ustiga so‘ng namoz qilsa ul yana.

Haq uchun turli ibodat etsa ul,
Kecha-kunduz zikri-toqat etsa ul,

Xayr etib, to‘ydirsa yuz ming och yana,
To‘n berib, kiydirsa kiyimsiz tana,

Ya’ni xayr etmoq bo‘lsa uning ishi,
Bermasa, ammo zakotin ul kishi,

[1] Bu ikki qatordagi so‘zlar namozda ado etiladigan amallardir.

Etmog‘i xayrin qabul dargohida,
O‘rni bo‘lgay bas Vaylning chohida.[1]

Harom molning xayri bo‘lmas boqiyda,
Bersa ham Haq qabul qilmas boqiyda.

Kim tezak birla imorat etsa ul,
Jon chekib, tartib birla tuzatsa ul,

Fikr etib boqqil, bino tutmas bu tom,
Shunga mengzar xayr etgan moli harom.

Bir er chirik donni tuproqqa eksa,
Ul aslo ko‘karmas qancha jon cheksa.

Boy kishi, bu zakotni qizg‘anmagay,
Qizg‘anchilik Xudoga hech yoqmagay.

Bergil, inson, o‘zingga yo‘l urmagil,
Zakotin muhtojga sarf et, turmagil.

Rozi bo‘lsin shubhasiz ul Zulkaram,
Do‘zax o‘tiga taning bo‘lsin harom.

Bu nasihat hech noo‘rin demagil,
Mahshar kuni sen pushaymon yemagil.

Ey Xudo-yo, fazli ko‘p, koni karam,
Qahringga, lutfingga bo‘yindir alam.

Qahri, lutfi ul nishondan bellidir,
Baxtli bo‘lar — kimsa ochiq qo‘llidir.

Qullarga xayr-u sadaqot qilaver,
Buyrug‘in tutishni odat qilaver.

[1] **Vaylning chohi** — do‘zaxning ichida bir quduq.

Hazarti Alidan savol so‘ralgani va uning javobi bayoni

Savol so‘radilar Hazrati Alidan,
Xudoning arsloni shohi validan:

“Ogoh sen dunyoda yaxshi-yomondan,
Qaysi narsa og‘ir ushbu osmondan?

Qaysi narsa kengroq zamindan-yerdan,
Dengizlardan boy ne, xabarin ber san.

Xabar bergil, nedir toshdan qattiqroq,
Yana nedir bu o‘tdan yoquvchiroq?

Sovuqdan sovuqroq nedir, ey vali,
Yo zahardan achchiq nedir, yo Ali?”

Dedi: “Yaxshilarga tuhmat aylamak
Og‘irdir osmondan, to‘g‘risin desak.

Jahondan keng bo‘lar yaxshi so‘z yoymoq,
Haq uchun yomon so‘z so‘zlamay qo‘ymoq.

Munkarlarning ko‘ngli tog‘-toshdan qatti,
Dengizdan boy — kimsa bor qanoati.

Agar o‘z xalqiga jabr etsa sulton,
Shul xos yoquvchidir otashdan-o‘tdan.

Baxil boydan tilamak hojatini,
Muzdan ko‘p sovuqdir, bilib qo‘y shuni.

Sabr ham achchiqroq bo‘ladir zahardan,
Agar jabr-u sitam yetsa birovdan”.

Barcha ishda sabrni sen pesha qilgil,
Chin yurakdan Haq yo'liga yiqilgil.

Sabr aylashlaring ko'p nafni berajak,
Yomon ishni sabr-u toqat yengajak.

Xudovando, sabrdan hech ayri qilma,
Xayol, fikrim o'zingdan g'ayri qilma.

Tangri demish: ne'matimga shukr eting,
Ne'matim poyoni yo'qdir, fikr eting.

Bu jahon boshdan oyoq ne'mat erur,
Kim farosat egasi bo'lsa, ko'rur.

Ham o'zingda qo'ydi ko'plab ne'matni,
Fikr etib, betobdan olgin ibratni.

Ne'mat shukri — ne'matni qilar ziyod.
Shukur birla topdi topganlar murod.

Har damda yuz ming shukrlar aylasang,
Ming sano, ming zikri-alvon so'ylasang,

Ne'matining shukri bajo bo'lsa bas,
Mingda bir shukri tamom bo'lgan emas.

Bandadan rozidir Tangrining o'zi,
Yesa, ichsa, bas, shukur bo'lsa so'zi.

Hamd aytarman ne'matingga, Bir-u bor,
Yetarlik ne'mat bo'lar ul ming safar.

Kafil bo'lar ham ziyoda lutfingga,
Barcha dard-baloda shifodir menga.

Mumkin emas ne'mating qilmoq hisob,
Shukur etayin bariga — ul behisob.

Yurak dardin daf etar shukr-u sano,
Ne'mat uyi shukur ila tutmish bino.

Kim qalbini shukur ila etar bunyod,
Ne'mati kundan kunga bo'lar ziyod.

Ne'matining shukri ko'pdir ne'matga,
Loyiq aylar shukur ahlin jannatga.

Yo Xudoyim, shukur ahlidan bizni
Qilgaysan barcha a'zolarimizni.

Ham tanirlar qon etib ash'orimiz,
Ko'z, quloq ham jon ichinda borimiz.

Bir aylagil zikr-u shukringdan yana,
Ular bari shukur etsinlar senga.

Odam o'g'liga nasihatdir bu so'z,
Tutsa har kim, yana rohatdir bu so'z.

Haqni hozir bil, ibodat aylagil,
Har na bersa kim, qanoat aylagil.

Bo'lmasa kimda qanoatdan asar,
Ikki dunyoda bo'lar itdan battar.

Sadaf durga to'lmas haqiga qoyil,
Bo'lmasa ham bo'lsa nafsiga moyil.

Qo'y, chiqsin ko'nglingdan ochko'zlik — tama,
Tingla yaxshi: "Doma shaba'u man qana'a"[1]

[1] "Qanoatlining to'qligi davomlidir".

To‘lmas hargiz hirsi dunyoning ko‘zi,
Jumla olam mulkin olsa bir o‘zi.

Nafsingga buyur, haqingga qone o‘tir,
Bor, qanoat ichra Haq amrin bitir.

Nur nuqtasi qanoat harfida bor,
Ul tamaning harfidan etarmish or.

Bo‘lsa kimda din g‘ayrati, ey kishi,
Hech tama bilan uning yo‘qdir ishi.

Tamagirlar g‘ayrat ahli bo‘lmagay,
Ishq parisi unga nazar solmagay.

Darvesh bo‘lgan ersa Tangri darveshi,
Ketsa gar Haq ko‘yida aql-u hushi.

Bo‘lmas u non-u osh uchun ovora,
Agar bo‘lsa, qo‘yar o‘zin ozora.

Qoyil ul Haq dargohida har sahar,
Ul solar senga shaksiz rahmat nazar.

Orzu qilma el dargohin, eshigin,
Agar ul xalq bo‘lsa-da islomi din.

Xalq gadosi Xoliqini unutar,
Gunoh qilib, o‘ziga ziyon etar.

Hojat uchun kezsa har kim olam(n)i,
Tangridan bo‘lmas judo, yo‘qdir g‘ami.

Yaxshiliging qullarga yor aylagil,
Ularni dargohga duchor aylagil.

Berilma shayton lain vosvosiga,
Ilhom ber navosizning navosiga.

Hazrati Muso bilan bir mardi Xudo dushmanining bayoni

Hazrati Muso Xudodan istadi,
"Bir sevar do'stingni men ko'rsam", dedi.

Haq dedi unga: "Falon yo'l uzra bor,
Ana shu yerda mening do'stim borar!"

Haq amrin rost tutib u yerga borgay,
Do'st bilan uchrashib, so'ng yana qaytgay.

Keldi mana bir yigitkim xush zabon,
Qo'l uzatib dedi: "Bo'l bizga mehmon!"

Uning uyiga bordi Hazrat Muso,
Haq bilan uning qay do'stligin tuysa...

Oshxonadan keltirdi ul xush taom,
Adab-la uzatdi: "Yegin, — deb, — mehmon".

Yemadi Muso taomni shu mahal,
Dediki: "Betobman, hozir bemajol".

Ul aytdi: "Dardingga bo'larmi davo,
Yo'lin topsam gar, Xudo bersa shifo".

Dedi Muso: "Bunga topilmas darmon,
Qiyin, mashaqqatdir, emasdir oson".

"Nechuk narsa?" deb, yigit so'rasa,
"Odam qoni! — deb so'zladi Muso. —

Ya'ni odamning bo'g'iz qonidir,
Ushbu qonikim, dardimga doridir".

Ul yigitning bitta o‘g‘li bor ekan,
O‘g‘lini juda aziz bilar ekan.

U o‘g‘lini o‘ldirib keltirdi qon,
Dedi: “Odam qonidir bu, ey falon!”

O‘g‘lining onasi ahvolni ko‘rdi,
Otasi o‘z sevar o‘g‘lin o‘ldirdi.

So‘zladi ul: “Aytmading nechun menga,
Bu ishingda yordam etardim senga.

Qo‘l-oyog‘in o‘g‘lonning o‘rar edim,
Men bu ishdan ko‘p savob ko‘rar edim.

Mahrum aylading meni ne sababdan?
Qizg‘andingmi yoki meni savobdan”.

Bildi Muso, chin bularning sevgisi,
Sabab — Tangri dargohidan ixlosi.

Jon berarmish Tangriga mehmon uchun,
Qullik aylarmish shul Subhon uchun.

Hazrati Muso duo qildi Haqqa,
“Holimga qara, bularni yorlaqa”.

Qabul etdi duosini shu zamon,
O‘lib yotgan o‘g‘longa Haq berdi jon.

Shu mahal barchasi shod bo‘ldilar,
Bir-birining kimligini bildilar.

Sen mudom aziz bilgin mehmoningni,
Ber, ayama istar bo‘lsa joningni.

Qullaringga yordam qilgin, ey Xudo,
Mol-u jonin mehmonga etsin fido.

Yuz evaz ber biriga har luqmaning,
Zoya qilma biror ehsonin aning.

Do‘stlaring daftariga ismini sol,
O‘lsa gar, imon bilan jonini ol.

Yaxshi amallarning shaytonga shikast yetirishi bayoni

Roviy aytar: Bu so‘z Rasulullohdan,
Olamning quvonchi habibullohdan.

So‘radilar, aytdi xayrning yaxshisi:
Vafo bilan siylamoq qavm-u xeshni.

Xush amallar o‘zaro bahs aylagay,
Shunday so‘zni bir-biriga so‘ylagay.

Yaxshiman der bu amal ichra namoz,
Ro‘za aylar yaxshiman deb Haqqa roz.

Der sadaqa: Men amallar afzali,
Kim meni bersa — Haqning suygan quli.

Tangrini ulug‘lashdir sizdagi kor,
Undan o‘zga ne xosiyat sizda bor?

Menda ham bordir bu ta’zimi Xudo,
Xalqqa yaxshilik o‘tkinchi olam aro.

Albatta, yetajaksiz eshigiga,
Men yetarman Haq taolo o‘ziga.

Bu so‘zlarni tasdiq etdilar hamma,
Dedilar: xayr etmak afzal olam(g)a.

FASL

Payg‘ambarga uchradi shayton lain,
Rasul berdi unga ba’zi so‘rovin:

“Ummatimdan kim jamoatga kelar,
Saf tortib, Tangriga ul qullik qilar.

Ushbu ishdan ne zarar yetgay senga?
Ey lain, bergil javobini menga”.

“Kuygan misol nafsim o‘tda — zarari,
Shu kabidir, bil,
Xudoning sarvari”.

“O‘qishib Qur’on ular, aytsa sano,
Ne zarar yetgay senga bergin ma’no?”

Ul lain dedi: “Bo‘larman ko‘r-u kar,
Lol bo‘lar tilim mening, budir zarar”.

“Ular jam bo‘lishib, qilsalar duo
Ne qadar nuqson yetar aytgin yana”.

“Qo‘l-oyog‘im bog‘lanib shu dam manim,
Bo‘ynima kamand tushar, titrar tanim”.

“Bas, sadaqa etsalar, nedir zarar,
So‘zla, mal’un, tez menga bergil xabar?”

“Bas, tushar boshimga arra ul zamon,
Teng ikkiga bo‘linaman — shu ziyon.

Yarmini mashriqqa tashlar begumon,
Yarmini mag‘ribga tashlar begumon.

Ayni damda shu bo‘lar holim mening,
Sadaqadan olar azobim mening.

Ummating etsa sadaqa, ey Nabi,
Pora qilar ul meni shalg‘om kabi.

Qo‘rquvim shundan bo‘lar har chog‘ mening,
Ummating xayr ish etar debman sening.

Bu ishi borlardan qattiq qo‘rqaram,
Pora qilgay ul sadaqa, yo karam!”

Bas, sadaqa bir baloni rad qilar,
Sog‘liq berar, dardlarga qalqon bo‘lar.

Uzoq aylar egasining umrini,
Umid etsa, Haq qabul aylar uni.

Ham yana molin ziyoda aylagay,
Davlat eshigin go‘shada aylagay.

Xastalarga ham yana bo‘lgay shifo,
Ham yana dard ahliga bo‘lgay davo.

Yildirimdek ul sirotdan kechirar,
Havzi-kavsar sharbatidan ichirar.

Jannatga doxil qilar ul behisob,
Aysh-u ishrat birla bo‘lgay, yo‘q azob.

Go‘rga kirsa, o‘tsa gar qul foniydan,
Do‘zax o‘ti kelgay ul to‘rt yonidan.

Bas, namoz borib birini so‘ndirar,
Ul ikkinchi o‘tni zakot o‘ldirar.

Uchinchi ro‘za kirib, suvlar separ,
To‘rtinchi o‘tni sadaqalar yopar.

Ul er shundan keyin rohat yotar,
To bo‘lguncha shu ulug‘ ro‘zi mahshar.

Gar sadaqa etsa bir mo‘min kishi,
Bo‘lsa ma’qul Haq qoshida qilmishi,

Shul mahal nido qilar jahannam:
“Rahim egasi, purkaram, qodir Egam,

Ijozat bergin, senga shukr aylayin,
Sening oting qalbimga zikr aylayin.

Topdi bir qul azobimdan ul najot,
Ketdi bo‘ynimda mening ikki uyat.

Qul seningdir ham Rasuling ummati,
Uyalarman azob aylasam qatti.

Azob aylamasam, qo‘rqarman Sendan,
Amringni tutmasam, bir la’natiman.

Shu sababdan bo‘laman hayron-u zor,
Shukur, qutuldi qul, yo Parvardigor!”

Bas, jahannamdan ozod bo‘lgay ular,
Haq yo‘lida kim sadaqalar qilar.

Ham sadaqa soyasida, bil shuni,
Soyada ehson bergan mahshar kuni.

O‘girar Kun yuzin bandalar sari,
Issig‘idan bo‘lgay darmonda bari.

Mis bir jomda qaynab turgan jom kabi,
Boshing ichra qaynab turarmish miyasi.

Xayr egasi shu kun shodmon bo‘lar,
Baxillar topmay panoh hayron bo‘lar.

Saxovating nasib qil qullaringga,
Ahli mo‘min — boy-u yo‘qsillaringga.

Yetmasin ularga otashdan zarar,
Yog‘dirgin sen rahmating, Parvardigor!

Hazrati Sulaymonga bir qush kelib arz etgani bayoni

Roviy aytar: bir qush kelib bir kuni,
Aytdi ulug‘ Sulaymonga arzini:

“Og‘och uzra bolamni biri kelib,
O‘ldirar, aylar halok uni olib.

Chorasin qil”, deb giryon-u zor,
Yuz burib dargohiga ul intizor.

Ul kishiga buyruq berdi oliy-joh:
“Olma qushning bolasin, qilma gunoh.

Yo‘qsa jazolarman bu ishing sening,
Pora-pora aylab joning-u taning”.

Tinglab, takror qushning jo‘jasin
Olmoq uchun urdi kishi panjasin.

“So‘zing yerda qoldi” — arz etadi qush,
U yana jo‘jalar qasdiga kelmish.

Ikki dev yubordi ul shohi jahon:
“Uni ikki bo‘lib, tashlanglar har yon,

Ya’ni yarmin tashlang mag‘ribga uning,
Qolgan yarmin tashlang mashriqqa uning”.

Ul zamon ikki farishta yetdilar.
Har biri bir devni qattiq tutdilar.

Tashladilar birin mag‘ribga sari,
Birini eltdilar mashriqqa sari.

Bir soatdan Sulaymonning yoniga
Kelib, devlar xabar berdilar anga.

Bu holatga ular hayron bo‘ldilar,
Ya’ni bu ish Haqdan keldi bildilar.

So‘radi shoh chaqirib ul kimsani:
“Sen shu kun nima qilding?
Aytgil qani?!”

U dedi: “Bor edi qo‘limda bir non,
Ikki bo‘lib men uni ushbu zamon,

Gadoyga bergan edim uning yarmin,
So‘ng bir itga berdim qolgan bo‘lagin.

Mana mening ushbu kungi xayr etganim,
Qurbondir yo‘liga jonim-u tanim”.

“Bu sababdan, — dedi boy-g‘arib odam, —
Haq xalos ayladi uni balodan”.

Sadaqa balodan to‘sar har zamon,
Kim qilsa, balodan qutular ayon.

Ekin yeri bu dunyo oxiratda,
Quruq qolma xayr ila saxovatda.

Sen shu kuni eksang qo‘lda borini,
Tangri bersa, albat, o‘rarsan uni.

Bu foniyda ekishdan bo‘lsang yiroq,
Bo‘lmas unda senga boshoqni o‘rmoq.

G‘ofil bo‘lma, jon chekib ekkin ekin,
Xirmon olar agar ekin eksa kim.

Umid ayla sen ekinsiz qolmagin,
Ulug‘ kunda sen pushaymon qilmagin.

Gar ekar bo‘lsang, riyodan bo‘l nari,
Tangri suymas, bas, riyo etganlar(n)i.

Dinga sirli shirk demishlar bu riyo,
Shirk ishini osiy sanagay Xudo.

Riyo bilan botil qilma ishingni,
Najas qilma ichadigan oshingni.

Misli o‘tin xayr ishing, ey kishi,
Tushsa o‘t unga,
nechuk bo‘lgay ishi?!

Xayr etib, minnat qilgan mengzar bunga,
Kim riyo qilsa, bo‘lar yuz voy unga.

Yaxshi niyatdan savob topgay kishi,
Agar etmasa ham qaysi bir ishi.

Xush niyatsiz etar bo‘lsa bir amal,
Ushbu ishdan yo‘q savob, qilma jadal.

Shuning uchun demas ul ahli bilik[1],
Mo‘min niyati amaldan sevgilik.

Har ne ehson etar bo‘lsa mo‘mini,
Niyatini pok qilar, bilgil buni.

Chin yurakdan niyating pok bo‘lmasa,
Ajib ko‘rinish xaridoring olmasa.

Bersang agar sen orasta oltinni,
Olguvchi jon bilan olgay uni.

Kimda bo‘lsa ushbu oltin, ey xoja,
Olguvchi ul oltinni olgay necha?

Birdan bilmay olsa ham, so‘ng rad qilar,
Bunday savdo oxiri ham puch bo‘lar.

Etgan ehsonni riyodan nari qil,
Orasta niyatni — Haqning yori ql!

Har ibodat har ne qilsang Tangriga,
Haq uchun qil, etma undan g‘ayriga.

Desa: “Xalq ko‘rsin, eshitsin bu ishim,
Bu to‘kilgan ne’matim, ob-u oshim!”

Ul ishidan hech savob bo‘lmas uning,
Qilgan ehsoni o‘rin tutmas uning.

Balki, mushrik derlar bunday bir erni,
Bo‘lmas uning uchmox ichida yeri.

[1] **Ahli bilik** — bilgan odamlar.

Ham kechirmak va'dasi yo'qdir anga,
Tangridan oyat budir, boqgil shunga:

Qavluhu taolo:
"La yag'firu an yushrika bihi"[1].

Bir kimsaki ekdi ekin, bitdi ul,
Berdi dona ham kamolga yetdi ul.

Keldi bir yil, hosilni sepdi yelga,
Dona ketdi, somoni qoldi yerda.

Yoki hosilingga o't tushdi, inson,
Gumon etmas, budir bir riyo ehson.

Ya'ni ehsoning ekindir, o't — riyo,
Foyda bermas ushbu ehson, ey ega!

Tangrini hozir-u nozir bilgaysen,
Har ne qilsang, uning uchun qilgaysen.

FASL

Ota-onani rozi qilish bayoni

Kel ota birla onangni qil rizo,
Rozi bo'lar, shubhasiz, sendan Xudo.

Haq rizosi demish ul shohi jahon,
Ota-ona roziligi, yo'q gumon.

Bu ikkov farzandidan bo'lsa rizo,
Rozidir Haq ul kishidan aslida.

---

[1] *Qur'on.* 4-sura, 48-oyat. *Ma'nosi:* "Albatta, Alloh O'ziga (biron narsaning) sherik qilinishini kechirmas".

Istamas Haq berganining evaziga
Bandalikdan boshqa narsani o‘ziga.

Farzandidan ham ota birla ona
Umr berib, haq istamas evazina.

Ota birla onadir ko‘z ravshaning,
Ular haqi bordir bo‘yningda sening.

Ular haqi, yana Tangri haqi bor,
Hammasi ham sening bo‘yningda turar.

Bo‘lsa Tangri haqi farzdan ado,
Dunyoda qirqdir haqi ota-ano.

Bajo ayla ota-onang qirq haqin,
Haq taolo dargohiga bo‘l yaqin.

Tan bilandir o‘n haqi, yana o‘ni
Tilga tegishlidir, sen bilgil ani.

O‘nisi ko‘ngil bilandir, o‘ni — mol,
Barchasin xizmatda qilgil poyimol.

Tingla endi, tandagi haq o‘nining:
Biri — xizmat,
biri hurmatdir, biling.

Biri — amr-u farmonini tutmoqdir,
Biri — taqiqlardan yiroq turmoqdir.

Biri — safarga borma ruxsat etmas,
Birisi — kutib ol qaydan kelsa, bas.

Yettinchi — yo‘ldosh bo‘l ul yo‘lga chiqsa,
Sakkizinchi — hozir bo‘l gar chaqirsa.

To‘qqizinchi, o‘ninchi — muhim ishin
Kechga qo‘yma, ne aytsa tez bitirgin.

Yana o‘n haq bor tegishli tilga,
Bo‘lsa otang-onang, sen endi tingla.

Biri — ovozidan o‘z ovozingni,
Baland qilma, sen ko‘targin nozini.

Yana biri — adabsiz so‘z aytmagil,
Birisi — otin tutib chaqirmagil.

So‘z aytishni ularga sen man etma,
Yuziga tik qarab, aslo so‘z aytma.

So‘zing aytgil xushlik, yumshoqlik ila,
“Et” debmi yo “etma” deb hech so‘zlama.

Yuziga qarshi qarab tufurmagil,
Ham yonida kulmagil, pishqirmagil.

Keyingi ko‘ngliga tegishli haqlar:
Ko‘ngling bor mehrin ber — shod bo‘lar ular.

Ikkinchisi bo‘lsa — do‘st tutmoq ani,
Bil uni bu ko‘ngilning sultoni.

Shodmon bo‘lsang gar, shodlikda ular,
Qayg‘uli bo‘lsang gar, qayg‘uda ular.

Ko‘p so‘zi bilan uning tor bo‘lishi
Ham jafolar etsa, qahri kelishi.

Dardi birla ham uning dardi bo‘lar,
Injiydir deb ko‘ngliga qo‘rquv solar.

So‘ziga, ishiga qarshi bormagil,
Yo ko‘ngilda shunday niyat etmagil.

Qarib, ota bo‘lsa har necha ojiz,
Baribir, uzoq yosh tila, ey aziz.

Moling bilan bog‘li haqlari haqda
Aytsam men, tingla ham yodingda saqla.

Biri budir — ul otaning kiyimini
O‘zingnikidan yaxshi qil, bil buni.

Har taomni tayyor aylagil yaxshi,
Kamtarlik bilan bergin non-u oshi.

Har turli orzusi bor bo‘lsa uning,
Kechiktirmay sen saranjom aylagin.

Yashayishda zaruratlarin bilgil,
Jon-u dildan ado etgil, ey o‘g‘il!

Mol-u dunyong ota-onang uchun soch,
Qo‘llaringni saxovat bilan sen och.

Bas, rozi bo‘lsin deb ota-ona,
Ham sadaqalar bergin do‘st-yorona.

Qardoshlari bilan ular do‘stlari
Oq ko‘ngildan mehmon olar ularni.

Xasta bo‘lsa, istagin sihatligin,
Duo bilan sadaqalar aylagin.

Ushbu qirqdan biri bo‘lmasa ado,
Hech qabul qilmas savobini Xudo.

Kim magar, Tangri uchun o‘tgay bular,
O‘g‘il-qizga yo baxil etgay bular.

O‘lsa ular hech kishining ishi yo‘q,
Ul nokas farzandlarning tashvishi yo‘q.

Ham yana qayin otaning hurmati,
Ko‘rsatgay unga kuyov ko‘p izzati.

Ham qoshida beadablik qilmasin,
Beadab so‘zlar aytib u kulmasin.

Farzdir, bo‘ynida alarning haqqi bor,
Ko‘nglin olsin agar bo‘lsa taqvodor.

Ya’ni ani kuyovi injitmasin,
Ularga ko‘nglida gina tutmasin.

Ul ikkisin bilding, endi ustozing
Yo‘lida qo‘y mol-u joning, ko‘p-ozing.

Mol-u joning xizmatida qo‘y o‘shal,
Yo‘llarida go‘yo tuproqdek to‘shal.

Kalishin o‘pgin, egil oldida uning,
Qil poyandoz yo‘lida jon-u taning.

Ikkovining hamisha top xizmatin,
Xizmat aylab, ul Xudoning jannatin.

Ustozingga aslo tip-tik ko‘zlama,
Ularga beadab so‘zlar so‘zlama.

Ham adabsiz o‘tirib yo turmagil,
Ham yonida boshqani chaqirmagil.

Tan ichra jondek aziz tut, ey kishi,
Qul kabi xizmatda tur yoz-u qishi.

U egangdir, istasa sotsin seni,
Tangri uchun yo ozod etsin seni.

Senga farzdir uning haqi, ey o‘g‘il,
Jon-tan bilan uning haqin o‘tagil!

Qarindoshlar haqining bayoni

Endi kel, tingla qarindosh holini,
Ularga rahm etmak ahvolini.

Qardoshga rahm aylamak vojib erur,
Umring bilan rizqingni ham orttirur.

Qo‘shni hamda qardoshga rahm aylagil,
Marhamat qil, yaxshi so‘zlar so‘ylagil.

Bulardan kim yuzin o‘girsa agar,
Haq rahim-shafqat yuzini o‘girar.

Ko‘magini bas aylasa kimda-kim,
Uzar, kesar Tangri undan rahmatin.

Begumon nuqson topar moli uning,
Ham parishon bo‘lar ahvoli uning.

Hadisi qudsiyda bu so‘z deyilmish,
Haq taolo: “Menki Rahmonam”, demish.

Rahim so‘zidan bo‘lar, bilgin buni,
Rahmatga vosil qilarmen qilganni.

FASL

Hazrat Musoga Haq vahiy ayladi:
"Yaxshilik et qavm-u xeshingga", — dedi.

So'radi Muso: "Bayon etgil menga,
Bas, rizong nadir, ayon etgil menga.

"Ey hamsuhbat, — dedi Musoga Xudo, —
Qilarsen yo'limda jon-u tan fido.

Istasangkim, rozi qilgaysen meni,
Sayronda, shubhasiz, bilgaymen seni.

Borib, qo'sh qardoshlaringga o'zingni,
Har biridan ayama xush so'zingni.

G'oyib bo'lsa, ularga qilgil duo,
Faqir bo'lsa, yordam bergil doimo.

Barchasi bir yerga jam bo'lsa tamom,
Ber ularga sen sano birla salom.

Xasta bo'lsa, so'rashib turmoq kerak,
Ham ular ahvolini so'rmoq kerak.

O'lsa, ularning namozi o'qilar
Tekis turib, yaqinlar ko'nglin olar.

Agarda chaqirsalar bormoq kerak,
Do'st-yorning barchasin ko'rmoq kerak.

Ham ziyorat aylashib, ko'risharlar,
Bir-birining holini so'rasharlar.

Qarindosh bir-biriga barcha muslim,
Lozim shuki, o'zaro so'rar holin".

Alloh taolo so‘ziki: “Innamal mo‘minuna ixvatun” al-oyat.[1]

Nabi alayhissalom aytmishdir: “Al mo‘minu ahiy-al-mo‘min” saddaqa yo Rasul.[2]

Oyat ichra qardoshdir demish Xudo,
Bir-biriga yomonlik qilmang aslo.

Bo‘lmagaylar bir-birining dushmani,
Hamda ayrilmaslar bir jon-u tani.

Aylang bir-biringizga borish-kelish,
Haq uchun ul o‘zaro olish-berish.

Bir-birovdan yuz o‘girish — bu yomon,
Bo‘lmangizlar bir-birovga badgumon.

Birov-birovga aylamangiz siz sitam,
Qo‘ldan kelsa, qiling yaxshilik — karam.

Qilmangiz bir-biringizni masxara,
Ham uyaltirib, yuzin egmang yer(g)a.

Yomonlik etmanglar bir-biringizga,
Shunda chin musulmon degaylar sizga.

Bu so‘zlarni tinglab, haddan oshmasin,
Mo‘min bo‘lgan egri yo‘lga ketmasin.

Siylamasa agar sen siylaganni,
Balki, chin musulmon demaslar ani.

---

[1] *Qur’on.* 49-sura, 10-oyat. *Ma’nosi:* “Mo‘minlar hech shak-shubhasiz og‘a-inilardir”.

[2] *Hadis:* “Musulmon musulmonning qardoshidir”.

Mo‘minga mo‘minning molidir harom,
Ixtiyorli bo‘lsa, yo‘qdir so‘z — kalom.

Boshqa chin mo‘minni ozorlash yomon,
Ozor bersa, balki unda yo‘q imon.

Yumshoq bo‘lgay mo‘minning so‘zi, tili,
Asli shudir ahli imonning yo‘li.

Oyatda, hadisda bu so‘zlar bordir,
Hech kim o‘zidan to‘qigani yo‘qdir.

Mo‘min bo‘lgan mo‘minni injitmasin,
Yo‘qsa, ular mo‘min otin tutmasin.

FASL

G‘arib-faqir, mazlumlar haqida

Bir kishi kimgadir qilsa sitam,
Kuch bilan qo‘lidan olsa bir dirham,

Yo o‘g‘rilik bilan olsa dirhamni,
Ursa, solsa ko‘ngliga g‘amni,

Ul qiyomat kuni kelar shaksiz, biling,
Tilda iqror, qalb bilan tasdiq qiling.

Bu xaloyiq barcha shunda tirilar,
Yaxshi-yomon o‘sha kunda so‘ralar.

Hammaga teng boqar Xudoning ko‘zi,
O‘tmas bir kimsaga o‘zganing so‘zi.

Toki shoxli qo‘y, agar shoxsiz qo‘yin
Suzsa, suz deb, u kunda sungay bo‘yin.

Bas, xaloyiq bir-biridan dod qilar,
Zolim ishi dod bilan faryod bo‘lar.

Tenglashar u kunda fil bilan pashsha,
Bunda ustun, unda tushar tashvish(g)a.

Torayar u kunda zolimlar yeri,
Gunohkorlar uyalar, oqar teri.

Kelar ul dirham egasi dod bilan,
“Zulm hamda jabr etdi” deb, faryod bilan.

“Bir dirham” uchun
Tangri hukm etgay anga,
Yig‘lagay dirham deb ul har yona.

Yerda, ko‘kda bo‘lmas ul kunda tanga,
Bo‘lmas unda pul berar san-u manga.

Dirham naqshi jahannamning tubida
Naqsh aylab qo‘ygay Alloh ul kunda.

Naqshni ko‘rib, zolim telmirib boqar,
Kirishga mayl etsa, o‘t uni yoqar.

Mushkul ishlar tushmish zolim boshiga,
Dod etuvchi qo‘ymagay o‘z xushiga.

Bersa ham qozongan o‘z savobini,
Rozi bo‘lmay, mahkam tutarlar uni.

Gunohin ham olib ularning yana,
Yuklagaylar, yopishtirib ustiga.

Do‘zaxga tashlarlar uni shu zamon,
Gar musulmon bo‘lsang, etmagil gumon.

Uchmox ahli bo‘lar ul mazlum kishi,
Aytilgan holdadir zolimning ishi.

Zolimning ishi shudir: ul kunda voy,
Bo‘lmas o‘shal kunda yordam berar joy.

Ey sitamkash, iltimosim tinglagil,
Ushbu pandning ma’nosini anglagil.

Boshqaga zarracha gumonli boqma,
Kel, aziz joningni olovda yoqma.

Dushman uchun suymagil dushmaningni,
Qo‘ldan berma gavhari imoningni.

Dushman iblis bo‘lar, ergashma anga,
Teskari qaramagin musulmonga.

Haq uchun tingla bu pandim, ey salim,
Xato bo‘lmas bu so‘zni aytsa tilim.

Jabr-u zulmni pesha qilma o‘zingga,
Mahshar kuni shirk keltirma yuzingga.

Tavbaga kel qilmishingdan, tavbaga,
Tavba qilsang, Tangridan rahmat sanga.

Vafo yo‘q senga matohi dunyoda,
Jafo chekmak abas bu bevafoda.

Har kishida bo‘lsa imondan nishon,
Undan hech ajralmas biror musulmon.

Gar qo‘lingdan kelsa, qilgil iygilik[1],
Bo‘larsan sen Haq oldida suygilik.

[1] **Iygilik** — yaxshilik.

Yordam bergil, yoron bo‘lgil ularga,
Haq yordir g‘aribga yor bo‘lganlarga.

Agar ular aybini kimsa yopar,
Tangridan ul har ne istasa topar.

Kim oson bitirsa ular ishini,
Mushkul ishdan Haq qutqarar boshini.

Ularning har kimsa yesa gar g‘amin,
Haq berar dardiga dori-malhamin.

Ularning kim hojatini bitirar,
Yetmish ikki hojatin Haq yetirar.

Xayr-yordam aylamak farzdir sanga,
Har zamon ko‘mak ber, yaqin tur anga.

Katta gunohkordir qilmagan yordam,
Qutulmas do‘zaxdan, jabr-u ozordan.

Haq uchun hech mo‘minni injitmagil,
Haq oti mo‘mindadir, xor tutmagil.

* * *

Ul imomkim, ismi erdi Baholi,
Xabarda bir so‘z aytmish u vali.

Qo‘yilsa bir banda mozorga o‘lib,
Bir farishta gurzi-la urar kelib.

Boqiy qolmas tanida zarra asar,
Qabri uning misli o‘t kabi yonar.

So‘ngra der ul farishta: “Ey kishi,
Tur, Xudo izni-la so‘yla bu ish(n)i”

Turar ul kas eshitib ushbu so‘zin,
Tutar uning oh-nolasi Yer yuzin.

Jumla jahonga yetar aning nolasi,
Eshitar uni ins-jinsdan o‘zgasi.

Der mayyit: “Nega azob etding menga?
Muncha qiynoq ham g‘azab etding menga?

Men zakotni berib, o‘qidim namoz,
Ro‘za tutdim, ayladim xayr-u niyoz.

So‘rovchining o‘tinchin rad qilmadim,
Bas, nodon gunohkor bo‘ldim, bilmadim”.

Ul farishta aytdikim: “Ey ahli din,
Ojiz-mazlumlarga turmading yaqin.

Chaqirardi ul seni faryod etib,
Hasrat bilan, dod bilan oting tutib.

Uni qutqarmading zolim qo‘lidan,
Ul faqirga aslo bermading yordam.

Ham namozing aylading bir kun qazo,
Qilmishing uchun senga bo‘ldi jazo.

Shu sababdan bu azobni qilmisham,
Qabr ichra qiynoq — azobga solmisham”.

Tangri farz etmish senga, ey mardi xos,
Mazlumni zolim qo‘lidan qil xalos.

Sajda ado qilib, o‘zing ayla pok,
Qilmasin Haq bu azob ichra halok.

Ham degandir ikki olam sarvari,
Ya'ni u oxirzamon payg'ambari:

"Bir kishi g'aribga rahim etmasa,
Erki bo'lib, faryodiga yetmasa,

Qabri ichra bil uni yuz martaba
Urarlar otashli bir qamchi bila.

Ya'ni yuz botmondan og'ir bo'lar ul,
Yetti qat yer ichra uni solar ul".

Haq uchun mazlumlar faryodiga bor,
Bu og'ir azobdan o'zingni qutqor.

FASL

Odam o'g'liga kelar bo'lsa ajal,
To'rt farishta kelar unga shu mahal.

Boshlab biri salom bergay unga,
Der: "Vakilman har na bo'lgan rizqingga.

Mag'rib sari, mashriq sari qatnadim,
Ammo zarra rizqingni men topmadim.

Olam ichra rizqing qolmagandir aslo,
Bundan ortiq rizq bermagandir Xudo".

Ikkinchisi uning kirar yonina,
Haq salomin yetirib ul mo'mina.

Der: "Sharobingga vakilman, vakil,
Senga uzun umr berardim va lek,

Bu soatda axtarib jumla jahon,
Topmadim hech bir ichim suv, ey falon".

So'ngra uchinchi farishta so'zlagay,
Haq salomin ul qulga zikr aylagay.

Der: "Vakil erdim damingga sening,
Tushdi sayrim bu jahon ichra mening.

Olam ichra topmadim zarra nafas,
Endi ranj chekmak bo'lar senga abas".

To'rtinchisi kelib, bergay salom,
"Umringga vakil edim, — degay kalom. —

Sen uchun aylanib olamni, ey jon,
Topmadim bir soat umringga davom.

Endi yo'q umring rishtasidan asar,
Oxirat yo'lin tut, qiyin bu safar".

Undan so'ngra kiromin kotibin[1]
Ul bandaga yetirar Haq salomin.

"Sening taning uzra vakilmiz" derlar,
So'ng chiqarib, qaro xat bergay ular.

Derlar: "Amalingdir, qilgil nazar",
Bu xatda yozmish ular xayr-u sharr.

Qarab, ul kimsaning oqar teri,
Qarshi kelmishki yomon qilmishlari.

O'z yomon ishiga har ne ul boqar,
Uyatidan teri suv kabi oqar.

---

[1] **Kiromin-kotibin** — odamning har yelkasida o'tirib gunoh-savobini yozadigan farishta.

Shu zamon o‘lim farishtasi kelar,
Lashkarlari uning sog‘-so‘lin olar.

Ul malaklar biri jonin chekar,
Birisi haybat bilan anga boqar.

Birisi qattiq chekarlar jonini,
Zarb etib ham quritarlar qonini.

Ul farishtadan biri sekin chekar,
Barmoq orasidan loy shunday chiqar.

Ushbu tarzda Haq oladir joningni,
Yo‘ldosh etib berar o‘z imoningni.

Bo‘g‘izingga kelar fursatida jon,
Qabz etib Azroil jonni shu zamon.

* * *

Baxtli kimsalardan bo‘lsa ul kishi,
Bo‘lsa ul farmonni tutmoq bor ishi.

Tangri qilar unga imonni yo‘ldosh,
Bo‘lar ul kas Haqning rahmatidan shod.

Kelar ko‘kdan maloiklar u zamon,
Yuzlari kundek ularning, ey juvon.

Olib ketar ruhni osmonga sari,
Agar bo‘lsa unga Haq ixtiyori.

Yo‘llarida bir farishta uchrashar,
“Eltayotganingiz ne?” deb so‘rashar.

Derlar: “Olib ketmoqdamiz pok bir jonni,
Magar baxsh etsa Haq anga imonni.

Dunyoda Haq ismini yod etmish ul,
Din tutib qullikni obod etmish ul".

Borib yetgan chog'i ular osmonga,
Yetti qavat osmon ochilar anga.

Bas, maloik barchasi ta'zim etar,
Ular bilan yetti osmonga ketar.

Yettinchi osmonga yetganda ular,
Yo'lidagi barcha parda osilar.

Ko'rsatarlar jannatda unga joyin,
Gavdasiga qayta solmaslar jonin.

Ya'ni qabrga bu jasad kirgan mahal,
Jon kezar osmonda go'yoki xayol.

* * *

Badbaxt kimsalardan bo'lsa ul kishi,
Dunyoda fisq-u fujur bo'lsa ishi,

Ul ipakdan chiqqan kabi bir tikon,
Joni tandan ajralar shunday yomon.

Yer bilan ko'k orasida kulli shay.
Ul kishiga ancha la'natlar degay.

Ul malaklar qabz etarlar jonini,
Shaytoni lain olar imonini.

Ega bo'lar dushmanlari moliga,
Shunda qarar o'zining bor holiga.

Yopilgay ularga osmon qopisi,
U jonlarga yetgay Tangrining sasi.

Yuborgay ruhin uning yer ostiga,
Jahannamni ochar ular qasdiga.

Do‘zax ichra ko‘rsatarlar joyini,
Jumla jonlar eshitar voy-voyini.

Yuz nadomat, yuz pushaymon etsalar,
Ko‘zlarin zor ila giryon etsalar,

Faryod chekib, har taraf chaqirsalar,
Yoqa yirtib, oh urib qichqirsalar,

Foyda bermas necha faryod etsa-da,
Haqning o‘zi unga rahim etmasa.

Qabr ichida tan bilan topar azob,
Boqiysi “Vallohi a’lam bis-savob”.[1]

* * *

Keltirib, ul kasni qabrga qo‘ysalar,
Dafn etib, uyiga qaytib ketsalar,

Haybat bilan so‘rar u ikki malak,
Zarbidan titrar uning yetti falak.

Gurlagan ko‘kdek bo‘lar ovozlari,
Yildirimdek chaqnar uning ko‘zlari.

Yerni yirtar tish bilan u shul zamon,
Gar eshitsa, ayrilar hushdan jahon.

“Allohing kimdir?” deb savol so‘rgaylar,
“Payg‘ambaring, dining ne?” deb ko‘rgaylar.

Yaxshilik nishoni bor bo‘lsa agar,
Der: “Allohim mening Parvardigor.

[1] **“Vallohi a’lam bis-savob”** — “To‘g‘risini Alloh biladi”.

Ham yana payg‘ambarim Haq rasul,
Etganman men dini islomni qabul”.

Berar shunda ul malaklar xush javob,
Xush yoqar, bo‘lmas unga zarra azob.

Jannat isidan berarlar bas, yana,
Xushlanar ham aysh etar o‘shal banda.

Qabr shunday kengayar, bilgin buni,
Haq o‘z rahmatida saqlar uni.

Agar bo‘lsa osiy qullardan ul er,
Javob berib bilmas, har yonga do‘nar.

Urilgay ul bir temir gurzi bilan,
Har kimsa yuz pora bo‘lar zarbidan.

Ul xaloyiq, ins-u jinning barisi
Bu gurziga dosh berolmas, to‘g‘risi.

Keyin esa uning qabri torayar,
Na u qubur, na u mozorga borar.

Qolar u kas bu azobi shiddatda,
Foydasi yo‘q zor-u afg‘on etsa-da.

So‘ngra kelar bir yomon yuzli kishi,
Bo‘lmagay u hech kishi ko‘rinishi.

Bas hidi yomon bo‘lar ul kimsaning,
Der: “Yomon berar jazongni Haq saning”.

Der jasad: “Sen kim bo‘larsan, ey falon?,
Ko‘rmadim dunyoda men sandin yomon”.

Der: "Yomon amaling, na qilding mani?
Endi qutulishga qo'ymasman sani".

Har tomon qarasa, oldida turar,
"Nega qilding san mani?" deb zarb urar.

Do'zax eshigin ocharlar u zamon,
O'rniga qilar nazar, yo'qdir gumon.

Naylasin, bechora qolmish u banda,
Qilsa afsus, xo'stor bo'lmas u kunda.

FASL

U sahoba — oti Abdulloh Salom,
Haq rasuldan so'radi ushbu kalom:

"U malak kimdir, qabr ichra ilk kirar,
Haybati shavkat bilan savol so'rar?

U savol Munkar-Nakirdan o'ngmidir[1],
Yo Rasul, ayting javob yo so'ngmidir?"

Dedi ul: "Munkar-Nakirdan o'ng bo'lar,
Ahli imon bu so'zga chin ishonar".

U malakning otin aytarlar: Tuman,
So'zlashar mayit bilan, qilma gumon.

Uning yuzi yodga solar kunduzni,
Shu'lasidan ravshan bo'lar Yer yuzi.

Abr ichra kirib aytar: "E odami,
Yozgil endi xayr-u sharr amalingi".

[1] **O'ng** — oldin *(tarj.)*.

Der mayit: “Men nima bilan xat qilam,
Yo‘q, axir, menda davot birla qalam?!”

“Barmog‘ing qalamdir, — degay farishta, —
Og‘zingdagi tupuk siyoh bu ishda”.

Kesib berar kafaningdan bir bo‘lak,
“Qog‘oz ushbu bo‘lar, degay malak.

Endi yoz dunyoda etgan ishingni,
Xayr-u sharrdan har neki qilmishingni”.

Bas, yozar u damda etgan xayrini,
Yaxshi ishin yozar, yozmas aybini.

Yomonin yozishga bormaydi qo‘li,
Yoki so‘zlash uchun bormagay tili.

“Nimaga yozmassen?” deb so‘rar malak,
“Uyalarman” deydir kishi har kezak[1].

Der malak: “Haqdan nega uyalmading,
Gunoh qilding, yaxshi ishlar qilmading?

Hozir edi, nozir edi ul Xudo,
Ko‘p gunohlar aylading u dunyoda.

Aytgin, endi nima uyalding mendan?”
O‘tli gurzi tushar uning yuzidan.

Yolvorar ul deb: “Mendan qo‘l ko‘tar”
U yomon amallaring yig‘lab yotar.

Deydi malak: “Eplab, muhr qilgin bunga”.
Eplasa ham endi muhr yo‘qdir anga.

[1] **Har kezak** — har safar *(tarj.)*.

"Tirnog'ing birla muhrla" deydi malak,
Tutg'il amrim, qilma o'zingni halak".

Tirnog'i bilan muhrlab, ey sen, g'ulom,
Bo'yniga osar uni yavmil-qiyom[1].

Undan so'ngra ikki farishta kirar,
Haq ruxsati bilan savollar so'rar.

Birisi Munkardir, birisi Nakir,
So'roq solmas bunday bo'lmagin munkir.

Ko'rarlar etgan gunohlaring u zamon,
Gardaningda osilib turar mudom.

"O'qi" deb buyruq berarlar bandaga,
Nomayi a'molin u sharmandaga.

Der Xudo: "Nega o'qimassan bu hol",
Banda derki: "Uyalarman Zuljalol!"

Derki: "Dunyoda nimaga uyalmading?
Tavba aylab, huzurimga kelmading.

Endi yo'q uyalishning senga nafi,
Ko'p azob bor, yo'qdir bu ishning shaki".

Aylagay u qul pushaymon, soni yo'q,
Misli dersen: dardi ko'p, darmoni yo'q.

Bas, Xudo amr etgay u dam qulga,
Tuting deb, soling zanjir birla kunda.

So'ngra bo'lsa, do'zax ichida osing,
Pora-pora etib, etlarin kesing.

---

[1] **Yavmil-qiyom** — to qiyomat kunigacha.

Berilar u qulga ko‘p turli azob,
U azoblarki, bo‘lmagay unga hisob.

Zamindagi podishohning bir quli,
Tutmasa uning farmonin bir yo‘li,

Yog‘iy bo‘lib, unga o‘zga ish tutar,
Shubhasiz, qulini zindonga otar.

U yana ko‘p turli azoblar aylagay,
Kunda, zanjir soling deb so‘ylagay.

Ham quloq kesmoq, burun kesmoq yana,
Kaltaklamak yo dordan osmoq yana.

Ko‘p baloga duchor aylar u qulni,
Dod-faryod aytishga aylanmas tili.

Haq farmonin ado emasang agar,
Shariat tuzgunin tutmasang agar,

Ko‘p-ko‘p azoblarga qilsa giriftor,
Ajab emas qasos olsa u G‘affor.

Qil hazar, albat, azobdan, ey kishi,
Qilmagil o‘zingni shayton yo‘ldoshi.

FASL

U jahannam uzra tortilmish sirot,
Uning ustiga qo‘yilibdi qantarot[1],

Har birisi uning o‘n ming yo‘l erur,
Ming chiqish, ming tekis, ming enish bo‘lar.

[1] **Qantarot** — og‘ir narsalarni tortishga mo‘ljallangan maxsus o‘lchov asbobi.

Titragay qahridan u ko‘prik mudom,
Usti tayg‘oq erur, aylama gumon.

Qilichdan o‘tkirdir, qildan ingichka,
Qorong‘i kechadan battar bir kecha.

Barcha mahshar xalqi ustidan kechar,
Jahannam ularga o‘t-olov sochar.

Ko‘prik uzra xalqdan imonin so‘rar,
Er kerakki, undan javobin berar.

Tangrini bir, Haq rasulin haq bilgan,
Haq amriga jon bilan qulliq qilgan,

O‘zini kufr ishlaridan saqlagan,
Tangri farmonini tinglab, bajargan —

U g‘azabli ko‘prikdan oson o‘tar,
Yo‘qsa bil uni, jahannamga ketar.

Ikkinchi so‘rar namozdan, ey kishi,
Qilma xato, zakotdir — uchinchisi.

Ro‘za haqda bo‘lar to‘rtinchisi,
Haj ham umra haqida beshinchisi.

Oltinchida so‘roq bo‘lar g‘usuldan,
Ham yana so‘rar tahorat husnidan.

Mo‘min ozoridan so‘rarlar sendan,
Der: “Bu ishlarni eshitdingmi, tildan?”

Banda huquqidan so‘rar u-bu hol,
Der sengaki:
“Yeb-ichganmisan halol?”

Mard kerak u dam javobin berishga,
U g‘azab ko‘prigi uzra yurishga.

Qutular u bersa bularga javob,
Yo‘qsa etar o‘z-o‘ziga ko‘p azob.

Ummatim deb, Haq rasuli u kunda,
Tangridan najot istar, ey banda.

Der: “Mening ummatlarim, yo Rabbano,
Ko‘prikdan oson o‘tir, bergil pano(h)”.

Ko‘prik uzra bir-birini xalq minar,
Ya’ni tayg‘onchiqda ko‘p qiyin bo‘lar.

Yel zarbiga kema titragandek misol,
Xalq zarbidan ko‘prik titragan bir hol.

Zor-zor ingrarlar ulug‘ mahshar kuni,
Topolmas u holda kimsa kimsani.

Shaksiz bilgil, do‘stlar ham dushman bo‘lar,
U kun har kim o‘z-o‘ziga qayg‘urar.

Ota o‘g‘lin tashlar, ona qizini,
Izlamaslar bir-birining yuzini.

Ham qarindosh tark etar qardoshini,
Xushdir u qutqara bilsa boshini.

Tark etar u kunda yo‘ldosh yo‘ldoshin,
Yashirar har kimsa o‘z etgan ishin.

Ya’ni u kun har kim amalin tutar,
Yaxshi bo‘lsa gar amal, undan o‘tar.

Bo‘lsa gar amali bad, ishi yomon,
Do‘zax ichra tashlar o‘zin begumon.

Dard bilan, hasrat bilan voylari cho‘x,
Yuz pushaymon aylasa, foydasi yo‘q.

Mo‘min bo‘lsang, tut bu kun farmoni Haq,
Tingla, mahshar kuni bo‘l mehmoni Haq.

Barcha mushkuldan yiroq etsin seni,
Jannatga solsin, aziz tutsin seni.

Qo‘shma o‘zingni sitamkor ohiga,
Yo‘qsa, Haq tashlar jahannam chohiga.

UCHINCHI BOB

Uchinchi bob olimlarning vasfidir,
Zikr etayin so‘z bayoni ushbudir.

Ularni sevganlarning holi nadir,
Kel, so‘zlaylik yana ahvoli nadir.

Olim uldir, ilmidan ogoh bo‘lar,
Jon uyida zikri illalloh bo‘lar.

Topar uning barcha a’zosi xabar,
Qaysi narsaki, unga solsa nazar.

Ne narsani ko‘rsa o‘z ilmi bila,
Shu bilim-la o‘zin solar Haq yo‘l(g)a.

Din ilmidan ko‘ngli to‘liqdir mudom,
Ilmidan naf olar bu xalqi jahon.

Ular ko‘ngli daf bo‘lsin deb qayg‘udan,
Adabli bo‘lar u Haqqa suygidan.

Ahli zotdan uning ilmi ochilar,
G‘ayratli qalbiga tuxum sochilar.

Bitar o‘shal tuxumdan a’lo bilim,
Ham dur-u gavhar berar dunyo bilim.

Ilm istaganga dildan bersa ani,
Lazzat olar, shubhasiz, jon-u tani.

Nom berarlar unga ilmi rabboni,
Banda bo‘l, bitirgil qilsa farmoni.

Bas, uni topmoq kerak fikr aylabon,
Topgandan so‘ng xizmat et shukr aylabon.

Hisob ayla topding jahon buyugini,
Dodiga yetgan Xizr bilgil sen ani.

Yo payg‘ambar do‘sti-yorin topdim de,
Oli as’hoblarning barin topdim de.

Haq rasulning o‘rnida ko‘rgin ani,
Ixlosing durust bo‘lsin hamda aniq.

Oyoq gardin surt ko‘zingga, bo‘l banda,
Kamtarin bo‘l, ham soya bo‘l yo‘linda.

Yedir, ichir, xayr-u ehson aylagil,
Joningni ishqida qurbon aylagil.

Amrini vojib bilib, etgil qabul,
Go‘yo Haq tarafdan kelgan u Rasul.

Ilmin o‘rgan, kelsa, yaxshi qarshila,
Ham Xudodan unga ko‘p-ko‘p umr tila.

Bunday olimlarda bo‘lar to‘rt nishon,
Ushbu damda borin aylayin bayon.

Birisi parhezkor bo‘lar qo‘rquvli,
Ko‘ngli mudom Tangri xavfiga to‘li.

Ikkinchi pastkil hamda ko‘ngli kichik,
Haq uchun o‘tirar, turar ul kishi.

Ham ularda takabburlik bo‘lmagay,
Siynasida manmanlik ham qolmagay.

Anbiyolar merosdori o‘zlari,
Xalq ichra va’z-u nasihat so‘zlari.

So‘filik bo‘lgay uchinchi uni fe’li,
Ilmi bilan mol yig‘ish emas dardi.

Ya’ni ko‘ngli baridan ozod bo‘lar,
Ilmi birla jon uyi obod bo‘lar.

To‘rtinchidan — ibodatli ul vali,
Jahd etadi Haq yo‘lidan borg‘ali.

Haqiqat yo‘liga qo‘yar u qadam,
Jahd etib soatma-soat, dam-badam.

Haq taologa ibodat aylagay,
Xalqqa Haq yo‘liga kel deb chorlagay.

Unda agar jam bo‘lsa bu to‘rt nishon,
Shariat ishida rahbar begumon.

Yo‘lboshchi bil, yo‘lboshchi bil,
yo‘lboshchi,
U o‘zganing botil ko‘zlarin ochdi.

Faqat uning ilmi fikr yoki nazar,
Bilgan topilmagay — u ilmni azal.

Saboq olmish dargohidan Tangrining,
Yozar ular ko‘rmay o‘zga ta’limin.

Kashf ochibdi Tangri o‘zi ularga,
Ladun ilmi[1] ila oshkor qullarga.

O‘qiydi — tilsiz, quloqsiz tinglarlar,
Jo‘sh urib qaynar, ko‘nglida anglarlar.

---

[1] **Ladun ilmi** — bandaga Alloh taolo tomonidan bevosita ilhom orqali beriladigan bilim.

FASL

Bas, amalsiz ilm o'xshaydi nodonga,
Nafi tegmas elga-kunga, odamga.

Din ilmidan har kishi topsa xabar,
Gar amal etmasa, u gumroh, ketar.

Ya'ni bir hayvon ham undan yaxshiroq,
Aqling bo'lsa, bo'laver undan yiroq.

Bilding uning maqsadi mol-dunyo emish,
Din ilmiga kimsa beparvo emish.

Misli bunyod etdi ul katta bog'ni,
Faqat xayolida mevasi — bari.

Endi o'zi yemadi u mevani,
Yemoqqa xalqqa ham bermadi ani.

Singdi yerga, chiridi u mevasi,
Naf olmadi undan elning kimsasi.

Ilmni o'qib, Tangri amrin tutmasa,
Bu shariat yo'liga rost ketmasa.

Din hukmin qoidasin tutmagay,
Yana Haq kalomin azim etmagay,

Yursa o'zin olimlarga mengzatib,
Kezsa o'zi fisq-u fujur ish etib,

Ilm mahshar kuni dushmani bo'lgay,
Ko'p azoblar chekib, pushmoni bo'lgay.

Dunyo ichra tan bo'lar ayshi aning,
Bas, mashaqqat bo'lar bor ishi aning.

Ko‘r bo‘lar ikki ko‘zi mahshar kuni,
Ko‘p azob ichra qolar jon-u tani.

Der: “Dunyoda bor edi ko‘z, yo Xudo,
Nechun meni ko‘zimdan qilding judo?”

Haq taolo der: “Bilib chun tutmading,
Mening buyruqlarim ado etmading.

Bilsang ham, lekin bilmagandek bo‘lding,
Kalomimga nazar solmagandek bo‘lding.

Shu sababdan bu azobi behisob,
Ayladim, endi ishon, budir kitob”.

Shunday ishing, agar amal etmasang,
Bilib, Tangri buyrug‘ini tutmasang.

FASL

Oz bilib, kim ilmiga qilsa amal,
Barcha olim olimidir, yo‘q jadal.

Haq qoshida seviklidir u kishi,
Chunki bordir ko‘nglida din tashvishi.

Kim ilmni ko‘p bilsa, amal etmasa,
Haq taolo buyrug‘in rost tutmasa,

Bilgin uni barcha nodondan battar,
Etmagay xalqqa uning va’zi asar.

Misli xordir, unga yuklanmas kitob,
Istasang, shudir senga aytsam javob.

Ul Rasulki, istamish Haqdan hadaf[1],
Ul ilmki gar bermasa insona naf.

[1] **Hadaf** — yo‘nalish nuqtasi.

Olim kimdir, amalidan yo‘q nishon,
Bo‘sh gavhardir, yo‘q uning ichida jon.

Bekor olim hech bir hosil olmagay,
Hiyla, chora unga foyda qilmagay.

Ipi yo‘q hech bir nina tikmagay to‘n,
Kirsa-chiqsa bekordir ming marta o‘n.

Suzishi mumkin emas qo‘lsizlarga,
So‘zlashi mumkin emas tilsizlarga.

Ustakorda gar bo‘lmasa ish qurol,
Ishlay olmas, har urinishi zavol.

Ham o‘roqchikim, o‘rog‘i yo‘q qo‘lida,
O‘rish mumkin emas o‘tni yo‘lida.

Kotibkim, yo‘q qo‘lida qalam-siyoh,
Hech narsa yozmagay, qilsa ham oh-voh.

Savaguchi yo‘q qo‘lida chibig‘i,
Yung savalmas qo‘l bilan ursa dag‘i.

Yo‘nuvchining yo‘q qo‘lida teshasi,
Og‘och yo‘nmas, bo‘sh chiqar bu peshasi.

Shunday bo‘lsa, bu ilmdan nishon yo‘q,
Hammasini aytish uchun imkon yo‘q.

Bas, tuzatishdir har ishning maqsadi,
Ishlab, ko‘ngil jamlamakdir maxlasi[1].

Ilmdan maqsad — bu amal etmoq turur,
U bilim bilan Haqqa yetmoq zarur.

Gar ilmda maqsad bo‘lmasa amal,
Yuz berar da’vo, takabbur, yuz jadal.

[1] **Maxlas** — tugallanish nuqtasi, xulosa *(tarj.)*.

Yo ilmdan maqsading Haq bo‘lmasa,
Yoki undan olamga nur kelmasa,

Bas, zalolat dengiziga g‘arq bo‘ldi ul,
Etgan ishi riyo, nohaq bo‘ldi ul.

Bu riyodan jon-u dildan qil hazar,
Chin dildan istagan Tangrini topar.

Amalni jon bilan ado etasan,
Tangrining fazl-karamiga yetasan.

Hadis ichra ushbu so‘zni so‘zladi,
Ilm haqida shunday bir gap so‘yladi.

Har ilmki, undan kishi naflar olsin,
Bilim ganjki, elga foyda qolsin.

Ilmning nafi budir, ey ahli dindor,
Etmakdir o‘zini ibodatga yor.

Qullikka millatni chaqirmoqdir ul,
Ya’ni xalqni haq yo‘lga solmoqdir ul.

Ilm olib orttirmasa bilimni,
Tangrisiga xiyonatdir, bil shuni.

Tangridan yetar unga g‘azab ancha,
Xalos bo‘lmas, yotgandek kishan ichra.

Naf bo‘lmagan ilmdan u Haqi rasul,
Tangriga eltdi panoh, bil ey g‘ofil.

Ilm ikki turli bo‘lar dedi yana,
Ilmga moyil, sen kelib tinglasan-a.

Biriga bu ilmi qalbiy dedilar,
Biriga ilmi zaboniy deydilar.

Ilmni qalbga foydali ilm deydi,
Xalqqa uning nafi ko‘p deb so‘yladi.

Har zamon ko‘ngliga inar xavfi Haq,
Har ko‘rganidan, albat, olar saboq.

Ul saboqdan o‘zini tutar oshoq,
Dunyo moli ko‘nglidan bo‘lar yiroq.

Jon ichidan oqar u Haq oyati,
Olam xalqi ichra bo‘lmas ulfati.

Ishq o‘ti har dam uning ko‘nglin yoqar,
To‘xtamay ikki ko‘zidan yosh oqar.

Bag‘ri suvsar, ya’ni ul diydor uchun,
Qurbon aylar jonini ul yor uchun.

Bo‘lmas unda zarra bahs yoki jadal,
Tangri amrin har zamon ado etar.

Haq zikridan jon ila tani to‘li,
Ilmlar bog‘idan ochmish har guli.

So‘zlagay har damda turli ma’rifat,
Og‘zidan so‘z chiqmagay uning bejahd.

Ahli darvesh ma’rifat bo‘stonidan
Meva terib, lazzat olar xirmonidan.

Haqqa ochiq-oydin xizmat aylagay,
Pinhon bo‘lib, ma’rifatdan so‘ylagay.

Haq tomondan unga yo‘llar ochilar,
Har soatda turli rahmat sochilar.

G‘avvosdek rahmat dengizida suzar,
Ixlosi bilan yig‘ib dur-u gavhar.

Haq Rasul Allohni topar shaksizin,
Ko‘ngil ko‘zi bilan ko‘rar do‘st yuzin.

Do‘sti Haqdir, do‘sti Haqdir, do‘sti Haq,
Ilmi nofe’ istasang, budir saboq.

Haq taoloning sevar bandasidir,
Rasul ummatlarining yaxshisidir.

Bas, lisoning ilmini aytay sanga,
Kel, quloq tut har zamon yana manga.

“Ilmi zohir”, “ilmi shariat” derlar,
Zohirin aylar tuzuk — har kim qilar.

Tangri demish: kim tuzatsa zohirin,
Tuzatarman yordam etib botinin.

Ilmi zohir xalq uchun rahmatdir ul,
Eshitib tutgan uchun rahmatdir ul.

Bas, dalildir ularga bu so‘z hamon,
Eshitar ham inkor etmas begumon.

Tangri yordami bilan har kim tutar,
Ushbu so‘zni o‘ziga dalil etar.

Eshitib bu so‘zlarni kim tutmasa,
Jon bilan Haq buyrug‘iga ketmasa,

Bas, azob topsa — budir rahmat unga,
Azob ichra bo‘lmagay rohat anga.

Shariatda ish bo‘lsa gar noravo,
Senga yo‘liqadi qattiq bir balo.

Shariatsiz yo‘q tariqat yo‘llari,
Betariqat ma’rifatning gullari.

Kezma jon-o, ma'rifat bo'stonini,
Ul qachon bilar haqiqat xonini?

Shariat og'och, bas tariqat butog'i,
Ilm-bilim bu og'ochning yaprog'i.

Haqiqatdir ul og'ochning mevasi,
Tangri bo'lar ushbu xonning egasi.

Endi bilgil, qonunsiz ish bitmagay,
Haq eranlar shariatsiz ketmagay.

Gar og'och bo'lmasa, bo'lmas butog'i,
Butog'i bo'lmasa, bo'lmas yaprog'i.

Meva bitmas yaproq agar bo'lmasa,
Yo'l topmas kim qonunga suyanmasa.

Bo'lmasa yordam-u toqat qulga yor,
Qul qachon shariatning aslin tutar.

Shunday farmon etdi qullarga Rahmon,
Haq amri vojib bo'lgay har qachon.

Amalsiz olimdan aylagil hazar,
Nafi tegmas, qayta yetgay zarar.

FASL

Qattiq azob tortadi mahshar kuni,
Amalsiz olimlar bo'lar, bil shuni.

Olim bo'lsang, amalsizlik qilmagil,
O'zingni do'zax o'tiga solmagil.

O'yin qilma Haq taolo oyatin,
Orttirib olmagin Alloh la'natin.

Haq Rasulin so‘zin aylagil parvo,
Sen faqat Haq ishin aylagil bajo.

Ilm olding, amal qilgin sen, turmagil,
Tangri amrin tut, o‘zing yosh ko‘rmagil.

Ota-bobo sunnatin tut, ey kishi,
Bilim jam etishga sarf et bor ishi.

Qil amal, o‘ylama ayri bo‘lmog‘i,
Tangriga oson bo‘lar jon olmog‘i.

Chunki e’tibor yo‘q bu damdan dama,
Yaxshi amal ayladim, tingla dema.

G‘animat bil, har dam-u soat o‘tar,
Ibrat qara, ko‘plab ulug‘lar o‘tur.

Bilim olib, amal etganni Xudo
Qattiq sevar,
eshitgin, ey kadxudo.

Nafsi shayton yo‘liga solma o‘zing,
G‘aflat uyqusidan ochgil sen ko‘zing.

Solma qalbga dunyoning andishasin,
Jon bilan tutgil valilar peshasin.

Tangri sevdi chun amal berdi sanga,
Bilim bilan oshno bo‘lding sen anga.

Oshno qilgil unga ko‘p begonani,
O‘rgatib islomni, din — imonini.

Bil ilmning qadrini, shukrin keltir,
Qullariga Tangrining hukmin yetir.

Haq Rasul o‘rnida bo‘lmishdir amin,
Sen amin bo‘l, yegin endi din g‘amin.

Bu aminlikka xiyonat etmagil,
Tut amrini, g‘aflat yo‘lin tutmagil.

Yo‘qsa bo‘lgaysen ziyonkor elidan,
Ayrilarsan bu aminlik yo‘lidan.

Shunda bo‘lgaysan yomonlardan yomon,
Do‘zax ichra tashlagaylar begumon.

Tangri do‘stim dedi, do‘stlik aylagil,
Xush so‘z bilan xalqqa va’z poylagil[1].

Nasihat bobida o‘q otgin uzoq,
Donalar soch ham tagidan qur tuzoq.

Goh kamand solgil xaloyiq bo‘yniga,
Goh aralash sen ularning o‘yniga.

Goho haybat etgin jiddiy yuz bilan,
Goh nasihat ayla yumshoq so‘z bilan.

Shunda bandalar to‘g‘ri yo‘lga kelar,
Haq Rasulin amrin bo‘yniga olar.

Sen bo‘lsang bu ishing valiyallohi,
Rozi etadirsan Rasulullohni.

Xalq ichra ehson bo‘lar bu yaxshi so‘z,
Ehson aylab, eldan savol olgin oz.

Ey birodar, xush so‘z ermish yaxshilik,
Xush so‘z birla aylagil yaxshi qiliq.

[1] **Poylash** — taqsimlash *(tarj.)*.

Bas, shirin so‘z xalqqa ehson yaxshisi,
Yumshoq so‘zla, bo‘lsang inson yaxshisi.

Bas, shirin so‘zdan jahon xalqi doim,
Senga jon-u dildan bo‘ladir moyil.

Bas, shirin so‘z birla ul zolim ilon,
Mayl etib, chiqar inidan begumon.

Bas, shirin so‘z dinga solar kofir(n)i,
Tashlar o‘z dinin, bo‘lar u din eri.

Bas, shirin so‘z zolimni dinga eltar,
Zulmini tark etib, Ḥaq amrin tutar.

Xush so‘z demak oson ham arzon bo‘lar,
Butun xalqqa, shubhasiz, ehson bo‘lar.

Xalq aro bermoq bilan bu xush so‘zi,
So‘z tuganmas ham malol bo‘lmas o‘zi.

Olam ichra yaxshilik to‘p-to‘lidir,
Xush qiliq, xush so‘z ulardan uli(g‘)dir.

Xush so‘z namunadir jumla jahona,
Ulug‘-kichik, olim-u xos bilgana.

Gar nasihat aylar bo‘lsang, ey odam,
Xushlik bilan so‘z so‘zlagin, sen har dam.

Hazrati Musodan Horunga xitob
Haqdan keldi, o‘qig‘il, budir kitob.

Allohning so‘zi:
“Va qulu lahum qovlan ma’rufan”[1]

[1] *Qur’on*. 4-sura, 5-oyat. *Ma’nosi:* “Va ularga yaxshi so‘zlar ayting”.

Ham yana Payg‘ambarga amr ayladi,
Xalq aro va’z-nasihat so‘yladi.

O‘qigin, oyat budir, ko‘rsin ko‘zing,
Va’z etganga, bas, shirin bo‘lsin so‘zing.

Alloh so‘zi: “Uduu ila sabili robbika bil-hikmati val-mav’izatil-hasana”, al-oyat.[1]

Hikmat bilan xalqni sol Haq yo‘liga,
Umid etgan yetsin maqsad eliga.

Xaloyiqning ko‘ngli mengzaydi yera,
Sevdir yerni ilm-u hikmatlar birla.

Donishmandni boshchi qil biz qullarga,
Boy ham faqir, bu musulmon ellarga.

Va’z tuxmin ek ko‘ngil — yerlarga,
Kechirim suvin to‘k ko‘ngli kirlarga.

Ko‘zlari to‘ksin pushaymonlik suvin,
Jonlari minsin bu ishqning Rafrafin[2],

Qanotin yelpib uchib o‘zing sari,
Amin bo‘l, sayr etsin ul manzillar(n)i.

Salomatlik ellariga yetir, oh,
Qabul ayla bu duoni, yo Iloh!

---

[1] *Qur’on.* 16-sura. 125-oyat. *Ma’nosi:* “(Ey Muhammad), Parvardigoringizning yo‘li — diniga donolik hikmat va chiroyli pand-nasihat bilan da’vat qiling”.

[2] **Rafraf** — qanotli ma’nosida. Muhammad (s.a.v.) payg‘ambarimizning bir otining nomi.

FASL

Turli-turli ko‘ngil berdi xalqqa Haq,
Sen ajoyib sir, shunga yubordi Haq.

Ko‘ngillarning biri yumshoq yer kabi,
Ba’zisin qilmish uning toshlar kabi.

Birisin mengzatibdi shu yerga,
Ba’zilari g‘arq bo‘libdi suvlarga.

Ba’zi ko‘ngil baland, ba’zi ko‘ngil past,
Birin obod etmish, boshqasin shikast.

Ilm egasi bilsin asli bo‘larni,
So‘ng ko‘rsatish uchun to‘g‘ri yo‘llarni.

Ularga yomg‘ir bir nasihatdan nishon,
Bo‘lsa yer yumshoq, bitar, bil begumon.

Voy, agar kim bo‘lsa ko‘ngli tosh aning,
Yuqmagay unga nasihat qilganing.

Quruq toshlar sirig‘ib, yomg‘ir yog‘ar,
Suv tagiga yetmasa, undan na chiqar?

Zahil bo‘lsa, ey kishi, ko‘ngli uning,
Foydasi yo‘q, bitmas unda ekining.

Sen gul eksang, tekin bitar xor-u xas.
Jafo cheksang, joyiga tushmas ixlos.

Kimning ko‘ngli bo‘lsa qurumdek qora,
Nasihat tuxmin sepsang u yera.

Umid bordir, qora qurum ketgaydir,
Yomg‘ir yog‘sa agar, hosil bitgaydir.

Yomg‘ir yog‘sa agar baland yer uzra,
O‘sar o‘tlar unda, tushun bu so‘z(g)a.

Yomg‘ir yog‘ish juda zarurdir unga,
Yo‘qsa kesak bo‘lar, quloq tut shunga.

Past yerlarga Tangridan yomg‘ir kelar,
Har tarafdan ustiga suv yog‘ilar.

Haq izni-la kim unda makon turar,
Ya’ni unda, shubhasiz, hosil bitar.

Barchadan ko‘nglingni past tutsang,
ey sen,
Haq rahmati, shubhasiz, tutgaysen.

Agar yopiq bo‘lsa ko‘ngling uyi,
Kirmagay hargiz unga rahmat suvi.

Haq rahmati uning toshidan oqar,
Agar yorilmasa, undan ne chiqar?

Parcha-parcha qil bu ko‘ngil uyin,
Ichga kirsin Haq bersa agar suvin.

Kimga bersa shunday kamtar dilni Haq,
Yaqin qilgay o‘ziga u qulni Haq.

Ko‘ngli bo‘lgay u qulning Haq manzili,
Haq dargohi — uning masjid, majlisi.

Bo‘lmas u qul Haq nafasidan judo,
Haq yo‘lida chiqsa undan bir sado.

Haq bil ani, menzagay suvratda qul,
Uning so‘zin Haq so‘zi bil, ey o‘g‘ul.

Yo‘q hisob ayladi ul kas o‘zini,
Ochdi Alloh uning botil ko‘zini.

U ko‘z bilan har tarafni ko‘zladi,
Alloh bir deb har bir ishda so‘zladi.

Barcha narsa oldi undan pandini,
Dedi Haq birdir, topib dilbandini.

Haq bilan birikdi, bir bo‘ldi o‘zi,
To‘g‘ri bo‘ldi har na aytilgan so‘zi.

Har og‘ochkim, totli bir meva berar,
Bilgil uning mevasi Haqdin kelar.

Chunki og‘ochdan sabab etdi unga,
Meva bergan Haq erur degil bunga.

Vahdat uyin nasib et men bandaga,
Men kabi ingrab kezgan darmandaga.

Ishqing tig‘i bilan qil devonadek,
Vahdating shamiga sol parvonadek.

Vahdat mayi bilan xush bo‘lsin bu sar,
O‘tga sol, kim o‘tdan bo‘lsa bexabar.

Mast-u mastona bo‘lib ishqingda, oh,
Bilmasin yaxshi-yomonni, ey Alloh.

Ko‘z, yurak ko‘rib mudom diydorini,
Qalbiga joylasin Bir-u borini.

Qil mening duoyim qabul, banda men,
Xizmatga loyiq emas, sharmandamen.

Ya'ni Haq yo'lini bilgan olimdir,
Bilib unga amal qilgan olimdir.

Bo'lsa ul to'g'ri yo'l istagan dindor,
Xalqqa kerak bo'lgan javoblar berar.

Sevgil uni, qabul qil ixlosini,
Tut poyandoz yo'liga jon-tanini.

Oz bo'lsa ham unda ilmi Haq agar,
Bo'sh qo'yma, jon bilan amrin tutaver.

Olim uchun sura ham Qur'on erur,
Biri uzun, boshqasi qisqa kelur.

Ham uzun, ham qisqasin bilmak kerak,
Amrini vojib bilib, tutmoq kerak.

Ixlos bilan olim desam kim uni,
Ziyorat aylasa shunday kimsani,

Yetti qat yer, yetti osmonda gunoh
Aylasang gar, kechirgay seni Alloh.

Yana shu miqdor savoblar yozilar,
Oti qora sinovlarda buzilar.

Gar unga Alloh uchun bersang taom,
Yoki ta'zim aylab, sen bersang salom,

Haq sening ming gunohingni kechar,
Sakkiz uchmox eshigin shaksiz ochar.

Turli-turli mevalar yana unga
Ham ajoyib hur-parilar yoniga.

Shubhasiz, Tangri unga etgay ado,
Hamda mashaqqatlar yetmas foniyda.

Yo unga bir kiyim kiydirsa birov,
Yo Haq uchun unga mindirsa bedov,

Tangri berar dargohida ko‘p ajib to‘n,
Jannat ichra Haq unga bergay makon.

Ham Buroq ot, zer-u zabarlar ila,
Uchmox ichra u minib, sayron qila(r).

Har ne hojatkim, Xudodan istasa,
Uchmox ichra muyassardir u kas(g)a.

Budir ishing, xayr egasi, mardi xos,
Barcha qo‘rquvdan Xudo etar xalos.

Xayr-u ehson qilmoqni sen ularga,
Ey Xudo, nasib qil mo‘minlarga.

Yo‘llaringda oyoq changi qil meni,
Xizmatingda qo‘ysa, bu jon-u tanni.

Yetsa menga ular oyoq izlari,
Ko‘zga surma qilsam chiqqan to‘zlar(n)i.[1]

FASL

Bir guruhni ul mahshar kuni,
Kim hisob etgay azim Subhon uni.

Etgan gunohlari uning begumon
Ko‘p bo‘lar o‘z etgan ehsonlaridan.

[1] **To‘z** — chang, g‘ubor *(tarj.)*.

Shu sababdan buyurar qodir Jabbor,
"Do'zaxga eltilsin" deb bu to'por.[1]

Ular ketishi bilan do'zax sari,
Jabroilga: "So'roq et!" der ular(n)i.

"Dunyoda olim bilan qurib davra,
O'tirdimi bular bir marta, so'ra?"

"Majlis qurdingizmi olim bilan?" deb,
So'ragay ulardan Jabroil kelib.

Ular aytar: "Yo'q o'tirmadik birga,
Ketmadik olimlar bilan bir yo'lga".

Haq taolo Jabroilga der yana,
"Olimni sevganlar bormi bilsang-a"

"Sevganmisiz olimni" deb so'ralar,
Ul guruh: "Yo'q" deb javobin berarlar.

"So'ra, olimlar bilan bitta davrada,
Ovqat yedilarmi ular dunyoda?"

Der ular: "Olimlar bilan yemadik,
Olimga sen ne kishi ham demadik".

Der Xudo Jabroilga: "So'ra yana,
Yo'ldosh bo'ldimi bular bir maskana?

Ya'ni unda olim o'tirib tugal
Haqqa zikr-u sano aytgan mahal?"

So'rasa der ular: "O'tirmadik,
Olimlar o'tirgan yerga bormadik.

[1] **To'por** — guruh ma'nosida *(tarj.)*.

Tangri derki: “Ismi olim ismiga
O‘xshaydimi, so‘ra ulardan yana”.

So‘ragay Jabroil ulardan shu dam,
O‘xshatmagan ekanlar ismlarin ham.

Der yana Jabroilga qodir Egam:
“Bormi olim sevgan kimsani sevgan?

U, balki, olimlarni sevgan bo‘lar,
Olim aytgan ishlarni etgan bo‘lar?”

Ya’ni Jabroil kelib, so‘rar savol,
Shunda xalq tuzuk javob berar alhol.

Ya’ni “Sevdik olimni sevganlarni”
Degach ular, rahm etar Haq ularni.

Tangri der Jabroilga:
“Tut qo‘llarin,
Jannatga doxil et bularning barin.

Ya’ni olim sevgisidan men sizi
Kechirdim” deb aytar Allohning o‘zi.

Bahosiz jannatga kirar u kishi,
Bo‘lsa uning olimni sevmak ishi.

Ey Xudo-yo, barcha islom qullarga —
Nasib qil olimni sevmoq ularga.

Olimga yomonlik yo‘lin tutmasin
Ham gunohin ust-ustiga etmasin.

FASL

Xabarda bu so‘zni aytdi Payg‘ambar,
Tillodan tog‘ qildi deb Parvardigor.

Yetti osmon bilan Arsh orasida
Dunyoga qirq hissa bo‘lgay aslida.

Ya’ni shunday ulug‘ bo‘lgayki u tog‘,
Dunyo yonida ko‘rinar misli zog‘.

Gumon yo‘qdir, bir kun qiyomat bo‘lar,
Bu jahonning bosh-oyog‘i buzilar.

Janobi Haqdan yetishar bir nido,
Olim bilan kim o‘tirsa dunyoda,

“Savob mezoniga ushbu tog‘ni sol”
Haqdan amri bo‘lar shunday bemalol.

Tangri farmoni bilan mezon uzra,
Qo‘ysalar, kelar og‘ir, tushun so‘z(g)a.

Bo‘lsa agar ularda tog‘dek gunoh,
U savob bo‘lar og‘ir, senga panoh.

Bu muloqot Haq taolodan bo‘lar,
Haq uchun olimga kim xizmat qilar.

Bo‘lsa olimga hurmat bir kimsada,
Yo xayoli bo‘lsa ilm sevgisida.

Yashasa u jahon ichra na qadar,
Qozonsa har neki unda xayr-u sharr.

Sharrin uning daftariga yozmas malak,
Ko‘rishga mushtoq bo‘lar yetti falak.

Der xaloyiq kim: “Xudoning do‘stini
Sevdi u, chunki sevarmiz biz uni”.

Shunday bir so‘z der ekan Payg‘ambar:
“Meni sevgan kishi — olimni sevar.

Meni sevgan bir Xudoni sevar ul,
Qullar ichra ul bo‘lar suyukli qul”.

Joy berarlar jannat ichra ul qul(g)a,
Haq Rasulullоh bilan qo‘shni bo‘la(r).

Havzi kavsar tegrasida Haq rasul
Ummatin jondan sevar, ey banda — qul!

O‘z gapi bilan sug‘orgay olim(n)i,
Eng muhim bular uchun dinning g‘ami.

Shu sababdan do‘st bildi Haq ularni,
Sevdi yana uni do‘st bilganlarni.

Tangri do‘stini do‘st bilmoq mudom
Barcha amal yaxshisidir, ey odam!

Do‘stini do‘st, dushmanin bilgan dushman
Haq oldida ko‘p oladi savobdan.

FASL

Haq hazrati Musoga vahiy ayladi,
“Men uchun bir amal etdingmi?” dedi.

Dedi Muso: “Ayladim ro‘za, namoz
Ham sadaqa, zikr va tasbeh-u niyoz.

Olqish aytdim, o‘qidim “Tavrot” kitob,
Bularning barchasi bo‘lgaydir savob”.

Haq dedi Musoga: “Aytsang salovat,
U senga dalil bo‘lar, ey yaxshi zot.

Ro‘za tutsang, u senga qalqon bo‘lar
Ham sadaqa ustiga ko‘ngling to‘lar.

Tasbeh aytsang — aminlikdir senga,
Aysh-u ishratlar yetar mendan yana.

Gar kitobim o‘qisang sen bequsur,
Shubhasiz, jannatda toparsan huzur.

Zikrim aytsang, nur bo‘lar sening uchun,
Qay bir ishni aylading mening uchun?”

Dedi Muso: “Ey Xudo, bildir menga,
Qay amalni aylasam bo‘lar senga?”

Tangri dedi: “Do‘stimni tutdingmi do‘st?
Dushmanimni bildingmi dushman deb rost?”

Bildi Muso undan amal yaxshisi
Tangri do‘stin do‘st bilmakdir, base.

Yana dushmanini dushman bilmakdir,
Bilib qo‘y, bu Haq uchun ishlamakdir.

Ham yana komil qilar imonini,
Tangri imon bilan olar jonini.

Yo Alloh, nasib qil mo‘minlarga
Izzat-ikrom aylamak olimlarga.

Qil nasib shafoatlaringga, yo Jalil,
Mahshar kuni qilmagil xor-u zalil.

Saqla shayton vosvosidan ularni,
Nuri imon birla borsin jonlari.

Ikki olamda ularning fazli bila(n)
Yo'ldosh etgin olimga — ahli dil(g)a.

FASL

Bas, ilm durdir, uning yo'q qimmati,
Haq unga berdi behisob himmat(n)i.

Har kim ichiga tushsa, agar o'sha dur,
Ko'ngli yop-yorug' bo'lar go'yoki nur.

Yorug' bo'lar shunda badan bus-butun,
Derlar unda sayr etar Oy ila Kun.

Go'yo ichkarida tug'di Kun — oftob,
Ko'rinar barcha gunoh hamda savob.

Egasi kunduz bo'lsa, ilmi bo'lar Kun,
Ochiq aylar ko'rishga botil ko'zin.

Gar egasi kecha bo'lsa — Oydir ul,
Yorug' bo'lar ham yomon, ham yaxshi yo'l.

Egasini kecha desang, chiroqdir,
Egasin cho'l desang — chashma, buloqdir.

Egasi badandir — u yuragidir,
Egasi uy bo'lsa — u tiragidir.

Gavda bo‘lsa egasi — u jonidir,
Egasi el bo‘lsa, u sultonidir.

Ega bo‘lsa hafta — u juma kuni,
Egasi yil bo‘lsa gar — u qadr tuni.

Egasi jon bo‘lsa — u imonidir,
Egasi dard bo‘lsa — u darmonidir.

Dunyo bo‘lsa egasi — jannatdir ul,
Egasi yer — yog‘gan rahmatdir ul.

Ega uydir desang, u Ka’ba uyi,
Egasi o‘t desang, ul rahmat suvi.

Egasi suv desang — u obi hayot,
Jasad desang egasin, uldir zakot.

O‘zga a’zodir ega — u yuz kabi,
Yo taom ichra solingan tuz kabi.

Gar qush bo‘lsa, bu ilmdir qanoti,
Ham ilmdir barcha olam ziynati.

Garchi ilmi bo‘lsa oy — yulduz bo‘lar,
Ilm egasi qayga ketarin bilar.

U bilar gunoh ham imon yo‘lini,
Haq-u nohaq so‘zlaganlar holini.

Bas, ilm Haqdan buyuk rahmat bo‘lar,
Ikki olamda yordam-u davlat bo‘lar.

Ilm egasin Haqqa loyiq aylagay,
Tangri dargohida sodiq aylagay.

Ham egasin Tangriga etar qulay,
Barchasidan ko‘ngliga sovuq qilgay.

Gar biriksa ilm amali bilan,
To‘g‘ri ketar Haqqa rost yo‘li bilan.

Kimsani yo‘llasa to‘g‘ri yo‘liga,
U yetar, albatta, maqsad eliga.

Haq amrida yaxshi ishdir birlashmoq,
Maqsadin topar ko‘ngli bo‘lsa oshoq[1].

Birlashsa bir ishda bir necha kishi,
Tuzatishga niyat etsalar ish(n)i,

Qabul aylar Haq ularning istagin,
Qolmas aslo birorta ish bitmayin.

Ilm, amal bilan ixlos — uch vali
Biriksalar, ko‘rsatar to‘g‘ri yo‘l(n)i.

Birikkanlar davlati mahkam bo‘lar,
Haq topishda ularga yordam bo‘lar.

Birikkanlar topdilar manzil, maqom,
Birlikni baxsh et, Xudo, bizga mudom.

Yechilgil ilm-u amal, ixlos bilan,
Kechirgil kunlarimni mard-u xos bilan.

U yaqin qullaringga hamdam aylagil,
Ko‘zimni g‘amingda purnam aylagil.

Yo‘ldosh etma zolim-u johil bila,
Jazo kuni mashaqqat yetkazma biz(g)a.

[1] **Oshoq** — past *(tarj.)*.

Bu nasihatdan ayni maqsad sanga,
Olim bo‘lsang, bor, amal qilgil anga.

Yo‘qsa sensan barcha nodonlar boshi,
Balki, sen iblis-lainning yo‘ldoshi.

Bu nodonlik dard bo‘lar, darmoni yo‘q,
Gavda desang, ichkarida joni yo‘q.

Johillik, nodonlik qarong‘i joydir,
Ilon, qoplon — yirtqich ichida jamdir.

Unda imon qo‘zisi tebranmagay,
Tebransa, qo‘zini yirtqichlar yegay.

Yoki imon shami undadir yorug‘,
Jahl-u zulmning yeli tegsa, u qurug‘.

Ushbu zulmat bir qarong‘i uy bu dam,
Ichi to‘la yirtqich-u dard-u alam.

Axtarib borsang ichin, ey sen falon,
Barchasi ming yirtqich-u sonsiz ilon.

Kel, qochaver, etma boshqa tashvish(n)i,
Yaqinlashsang, tishlar ular, ey kishi.

Yo yana mengzar uni ko‘r kimsaga,
Ko‘zi yo‘qdir bir narsani ko‘rma(k)ka.

Oldingda ne bo‘lsa, bosar oyog‘in,
“Oldimda ne bor?” deb,
sarmar tayog‘in.

Na bilar u yaxshi-yomon yo‘l nadir,
Na bilar u gul nadir, bulbul nadir.

Bilmagay u kufrni, beimon nadir,
Bilmas ul hech dard nadir, darmon nadir.

Anglamas ul qul nadir, sulton nadir,
Farqin bilmas jon nadir, jonon nadir.

Bilmagay u o‘t nadir yo tuz nadir,
Bilmagay xush yuz nadir, ters yuz nadir.

Bilmas ul qaysi halol, qaysi harom,
O‘ylamay yeb-ichar topsa gar taom.

Bilmas ul savob nadir yoki xato,
Joniga har dam berar yuz ming jafo.

Ko‘r ekan, bir kimsadan olmas xabar,
Ochiq sanar o‘zini, har yon kezar.

Shubhasiz, o‘zin halok aylar bu kas,
Hayfdir anga marhamat — bari abas.

Desa bir kishi: “Olding jardir sening”,
Ya’ni desakim: “Yomondir etganing”.

Bas, xabar bersang ketar yo‘ling unga,
Ya’ni bildirsang borar eling unga.

So‘zing tutmay, bersa qat’iy javobni,
O‘zi bilsin, sen qozongil savobni.

Bilgil uni barcha zolimlar boshi,
Mahshar kuni mashaqqatdir bor ishi.

Amrin tutsa imonlining ul g‘arib,
Ergashsa gar, o‘zin bilsa do‘st-habib.

Yetirar, albatta, o‘zin manzila,
Maqsadga eltar uni o‘zi birla.

U yomon ishni senga ko‘rmas ravo,
Ilm yo‘q, bas, olimga ergash, qil duo.

Ya’ni sen johillik ko‘yiga ketmagil,
O‘zingni do‘zax tubiga otmagil.

Ilmga ergashsang, jannatga boshlagay u.
Jahlga ergashsang, do‘zaxga tashlagay u.

TO‘RTINCHI BOB

To‘rtinchi bobda ahli dillarni
Ma’rifat bo‘stonida bulbullarni

Darvesh atarlar ularning ismin,
Zikr etarmen ular to‘g‘ri so‘zin.

Vasfi holin bir zamon desam kerak,
Ahli dillarga uni yoysam kerak.

Darvesh uldir ko‘ngli bo‘lar to‘la g‘am,
O‘zini xalq ichra degay yo‘q mudom.

Xalqdan o‘zin yaqin tutar ko‘nglida,
Jon uyida Haqni bilar umrida.

Berganiga Tangrining qoyil bo‘lar,
Nafsi choshmas, Haq yo‘lga moyil bo‘lar.

Karam qilib, bersa Tangri davlat(n)i,
Ziyod bo‘lar zori bilan hasrati.

Bo‘lmagay ko‘nglida zarra shubhasi,
Unda bo‘lar yolg‘iz Tangri ixlosi.

Dunyoning bori bilan yo‘g‘in mudom
Bir hisoblar ko‘ngli ichra bu odam.

Mol-u davlat kelsa, u shod bo‘lmagay,
Yoki ketsa ko‘ngli barbod bo‘lmagay.

Olamning xalqidan uning ko‘ngli peshdir,
Egnida oddiy kiyim go‘yo hechdir.

Ko‘nglida Haq qo‘rquvi bo‘lar tamom,
Ham ko‘zi yoshli bo‘lar bil, ey g‘ulom.

Hech zotdan tamagir bo‘lmagay o‘zi,
Pand-va’z etmak bo‘lar xalqqa so‘zi.

Ham qanoat bilan kunin kechirgay,
Ko‘p gapirmas, doimo oz so‘zlagay.

Ham yana u ixlos egasi bo‘lar,
Haq bandalarining yaxshisi bo‘lar.

Ham sabrli bo‘lar uning o‘zlari,
Ham shirin, ham yumshoq bo‘lar so‘zlari.

Ko‘zlarida hayo nuri bo‘larmish,
Rahimlidir, ega rahmi to‘larmish.

Aysh-ishrat uchun tengdir mollari,
Ziyod bo‘lar Tangriga amallari.

Bo‘lmas ul hargiz ilmdan bexabar,
Ilmsiz bo‘lsa amal gar, ko‘pdir xatar.

Olim har dam ilm birla amal etar,
Yo‘qsa shayton bir kuni a’mol[1] etar.

Ham yana ko‘ngli uning siniq bo‘lar,
Ko‘ngli siniq kimsaga rahmat kelar.

Tangri vahiy ayladi Ismoilga:
“Sen meni siniq ko‘ngillardan tila”.

“Qaydan toparman seni?” qildi savol,
“Men faqirlar sabridaman” dedi ul.

[1] **A’mol** — amallar.

Ham oyoq uchida bo‘lar ko‘zlari,
Tushmas hech zolim yuziga yuzlari.

Ham shariat ichra bo‘lar ul qayum,
Tariqat yo‘lida mustahkam doim.

Adab xazinasi bo‘lgandir ular,
Ajab so‘zga na kular, na tirjayar.

Ko‘ngli bo‘lar ma’rifat ganjxonasi,
Bo‘lgay ul Haq ishqining devonasi.

Din uyining Kun bilan Oyi bo‘lar,
Ul haqiqat mulkining shohi bo‘lar.

Ham ul komil, farosatli — ahli hol,
Topar ul yaronlaridan ham kamol.

Ko‘ngli ichra kechar ishq o‘ti — yolin,
Gul ko‘yida sayratar jon bulbulin.

Ko‘nglida bo‘lmagay Haqdan boshqa zot,
Yaxshilar sevgisi budir, odamzod.

Dunyo sarmoyasin otar u chetga,
Ya’ni u baridan bo‘ladir chetda.

Soxta, yomonlikdan soflar ko‘nglini,
Aylagay sof oynadek, bilgin shuni.

Ham ochiq bo‘lar uning ko‘ngli, ko‘zi,
Har zamon ko‘rinar ma’shuqining yuzi.

Xushu ichra ma’shuqin bilgay mutloq,
Haqning diydorini ko‘rar u shundoq.

Haqdan ochilar unga kasb-u kamol,
Ko‘rar uning ko‘ngil ko‘zi zebo jamol.

Ham tajalliy nuri o‘ldirgay uni,
Ushbu yo‘lda foniy qildirgay uni.

Tushar uning bo‘yniga ishqning kundasi,
Kelar oyog‘idan zanjirlar sasi.

Bandalikda bandayi foniy bo‘lar,
Haq yo‘lida Haq bilan boqiy bo‘lar.

Foniy bo‘lib, shu yo‘lda ham o‘lar ul,
Haq taolo bilan boqiy qolar ul.

Haq bilan birikar ul buyuk maqom,
Haq bilan bo‘lar uning sayri davom.

Ko‘ngli uning, balki, Baytulloh bo‘lar,
Fikri, zikri, bor ishi Alloh bo‘lar.

Ham ko‘rar ko‘zi uning Tangri bilan,
Eshitar quloqlari Tangri bilan.

Qo‘llari uning Xudoyim deb tutar,
Ham oyoqlari Uning-la sayr etar.

Tillariga so‘zlari Haqdan kelar,
Xayr-u sharr neki, istasa bo‘lar.

Tangridan bilmassan ularni judo,
Chunki qildilar bu yo‘lda jon fido.

Haq taolo ishqi uchun o‘ldirar,
Baski, xun to‘lovin unga soldilar.

Tangrining o‘zi to‘lov bo‘ldi unga,
Qudrat bilan o‘zini soldi unga.

Dunyoda har nedan uzilsa kishi,
Yetishgay Haqqa, tamom bo‘lgay ishi.

Kechsa kim yetar jononiga,
Xizmat etgan — so‘z aytar sultoniga.

O‘lmasdin ilgari kimda kim o‘lar,
Tangrisiga o‘zini hamdam qilar.

Yurgan Tangri ishqida bo‘lgay halol,
Ikki olamda mulk topar bezavol.

O‘lmagansan Haq ishqida, ey inson,
Halol demas uni, quruq jasadsan.[1]

Jonin Uning ishqida chun yoqmadi,
Sir ko‘zi birla Xudoga boqmadi...

Bu sifatli darveshsan, sen katxudo,
Avliyo bil, avliyo bil, avliyo.

Bilmak bo‘lmas sirini bir kimsaning,
Haq bilar sirini har bir narsaning.

Avliyo bil, shunday qulga ber qo‘lingni,
U Haqqa tomon ochar sening yo‘lingni.

Yuvguvchi bilgin uni, sen bir o‘lik,
Pok etar, beshubha qilgay, ey o‘lik[2],

Yo uni sana ona, o‘zing bola,
Bir necha tarbiya berar u sanga.

Yo uni bilgin tabib, sen yarali,
Dori-darmon qo‘yar, siypalar eli[3].

---

[1] Bu yerda Haq ishqida o‘z nafsini o‘ldirish haqida gap ketmoqda. Tasavvufdagi asos shartlaridan biri.

[2] Bu yerda “o‘lik” so‘zi birinchi misrada o‘lgan odam, keyingi misrada o‘z nafsini o‘ldirgan tirik odam ma’nosida kelgan.

[3] **El** — o‘g‘iz shevasida qo‘l *(tarj.)*.

Yo o‘zing bilgin ekin, dehqon udir,
Haq yetirsa senga suv bergan udir.

Yo uni bil temirchi, o‘zing temir,
Bo‘lsa Haq yordami dam birla ko‘mir.

Yo uni tikuvchi bil, o‘zingni bo‘z,
Bo‘lsa Haq yordami asbob, ey aziz.

Der bo‘lsang hikmat so‘zin poyoni yo‘q,
O‘ylab ko‘rar bo‘lsang hech ziyoni yo‘q.

O‘lik tanda qayta jon bo‘lar paydo,
Bil Junayid Boyazid e’tiqodda.

E’tiqod et, Xizir bil uni mudom,
Vali bil ham bil uni qalbi jahon.

Olsa uni Tangridan bilma judo,
Mol-u joning yo‘lida etgil fido.

Tangrini ixlos bilan topar kishi,
Ixlos bo‘lmasa, abas ranj chekmishi.

E’tiqod et, e’tiqod et, e’tiqod,
E’tiqod-la topar bandasi murod.

E’tiqoding bo‘lmasa Haq yo‘liga,
Yetmagaysan aslo maqsad eliga.

E’tiqoding kel, to‘g‘ri ayla bu dam,
Undan so‘ng Haq yo‘liga qo‘ygin qadam.

Tingla endi, ul Rasuli kibriyo[1],
Bu so‘z bilan Tangriga qilgil duo:

“Kim faqir bo‘lsa yorlaqagin uni,
Faqirga yo‘ldosh et sen mahshar kuni”.

[1] **Kibriyo** — ulug‘, buyuk daraja.

Tangrining eli bo‘lar miskin, faqir,
Mudom xalq yonidadir xor-u haqir.

Bu dunyoda xirqa kiysalar ular,
U dunyoda Haq ishqida jo‘sharlar.

Bu dunyoda agar xor bo‘lsa tani,
Unda bo‘lar ko‘ngli boylik xirmoni.

Bu dunyoda necha bo‘lsa benavo,
Barcha olim undan toparlar navo.

Bu dunyoda ko‘rpasi yirtiq bo‘lar,
Haq oldida hurmati ortiq bo‘lar.

Bunda yo‘qdir yemoq-ichmoq lazzati,
Haq yonida buyuk bo‘lar izzati.

Bu dunyoda ko‘zlaridan yosh oqar,
U dunyoda Haq jamoliga boqar.

Bu dunyoda yo‘qdir uyi, manzili,
U dunyoda bog‘, ochilar alvon guli.

Foniy ichra yo‘qsul, bir gadodir ul,
Jannat ichra katta podishohdir ul.

Ushbu olam ichra yo‘qdir qimmati,
Arshi a’loda balanddir himmati.

Bunda hech kim so‘ramas, kengash, sihat,
Unda Tangri bilan aylar maslahat.

Bu dunyoda bosh ochiq, oyoq yalang,
Hulla kiyar, Buroq minar hur bilan.

Bu dunyoda u kishi labidir tashna,
Unda berilar xo‘p daryoyi chashma.

Bu dunyoda birga bo‘lsa xalq bilan,
U dunyoda bo‘lar Tangri-Haq bilan.

Har doim Haq bilandir ko‘ngillari,
Garchi o‘zga so‘zni so‘zlar tillari.

Bu dunyoda ko‘rishmog‘i bekordir,
U dunyoda Haq zikrida darkordir.

Bu dunyoda ko‘zlamas olim yuzin,
Chunki Haq ochmish aning botil ko‘zin.

Bu dunyoda dersan: bilmas yo‘lini,
U dunyoda anglar Haq ahvolini.

Dunyo ichra doimo giryon bo‘lar,
O‘tsa bundan, xurram-u shodon bo‘lar.

Furqati hijron o‘ti yoqmish ani,
Ishqida kul ayladi jon-u tan(n)i.

Tangri birla, bas, uning orasida
Bir o‘lim ko‘prigi bor, ey fido.

Bu o‘lim ko‘prigidan kechgan zamon,
Haq diydoriga yetar, yo‘qdir gumon.

Chunki bilsang bu sifatli darveshni,
Anglagil, budir uning sirli ishi.

Ahli haq bil, ahli haq bil, ahli haq,
Begona bilma uni yurakka taq.

Manmanlik aylamay, tutgil sen aziz,
Qo‘y qo‘lingda bo‘lsa taoming hargiz.

Kiyim kiydir, qilgil siylab ehtirom,
Kirit uyingga, qil yaxshilik — karam.

Izzatin bil sen uning Haq izzati,
Hurmatin bil sen uning Haq hurmati.

Chunki Tangri ulardan emas g‘ofil,
Bergil, olsin qo‘liga Tangri haqin.

Sotib ol uchmohiga moli bilan,
Bil, bu so‘zlar Tangrining oti bilan.

Tut ularning ahvolidan har dam xabar,
Mashaqqat kun u sening qo‘ling tutar.

Faqir quvonchim deydi shohi jahon,
Hurmatini ado qiling begumon.

Ming dedim: hurmatlang faqir ahlini,
Har zamon so‘rang ularning holini.

Suvratin ko‘rmang, ko‘ring siyratlarin,
Aslida Alloh berar davlatlarin.

Boqiy davlat, ganji ne’mati Xudo
Ularga bermish, eshit, ey kadxudo.

Ularga bo‘lmang ko‘ngilda badgumon,
Qo‘y, sizdan ayrilib ketmasin imon.

Haq ularning hojatin qilmish ado,
Ikki olamda ularni suymish Xudo.

Bo‘l bu kun do‘st, sen ular bilan o‘tir,
Har nechuk hojatlari bo‘lsa, bitir.

So‘ng hojating bitirar Alloh sening,
Rohat, osuda bo‘lar joning, taning.

Har kishi kim Haq azizin ko‘rsa xor,
Qilar o‘zin do‘zax ellariga yor.

Savol berdi bir kishi payg‘ambarga:
“Bas, faqir nadir?”, — dedi sarvarga.

“U bir xazinadir, — dedi payg‘ambar, —
Ul xazina Haqning g‘aznasi erur”.

Ikkinchi so‘radi bir so‘z qo‘rquvli,
Dedi kim haqdan karomatda uli[1].

Uchinchi so‘r desa, dedi bu so‘zni,
Faqir mulkin hech kimga bermas Haq o‘zi.

Kim magar ko‘rar maloikka ravo
Yo payg‘ambar mursala qilar ado.

Faqir mulki Xudoning ganji erur,
Dur-u gavhar Tangridan inju erur.

Ziynatlar uni u dunyosin durli ganj,
Bu ganjni istasang, aylagil ranj.

Avliyolarning ganj uyidir u dunyo,
Bu tariqat aylamish Rabbi-Xudo.

Haq tufayli ul karomatdir yana,
Karam aylab, berdi o‘z qullarina.

Demak, bo‘lmas ularga bir yomon so‘z,
Tikmak bo‘lmas yana ular sari ko‘z.

Desalar so‘z jon bilan, dilga yoqar,
Rahmat buluti uzar chaqmoq chaqar.

Bas, og‘irdir ularning susti mudom,
Yomon deb, ularga bo‘lma badgumon.

[1] **Uli** — katta, ulug‘ *(tarj.)*.

Olam ichra ularni bilgil malak,
Ruhlari sayron etar to‘qqiz falak.

Bas, maloiklar bilan kezar ular,
Rahmating daryosida suzar ular.

Falaklar so‘fisi bilan ushbular
Arsh uyiga borib zikr aylarlar.

O‘tirib malaklar birla xilvatda,
Dam olib, cho‘mar ular rahmatga.

Surati odam va lek, siyratda — ruh,
Ochilar osmonda ularga huzur.

Zikr ichida ha-yu hay etgay ular,
Baxtli hol, bexush bo‘lib yotgay ular.

Ularni bil Haq taologa yovuq,
E’tiqoding to‘g‘ri qil, bo‘lma sovuq.

Zikr paytida u jazba ichra oqar,
O‘zini unutib, u Haqqa boqar.

Ularni bilgil zamon payg‘ambari,
Yo‘lga tushgan yo‘lchilarning rahbari.

Yaxshi-yomon yo‘llardan berar xabar,
Ba’zisi adashar, ba’zisi tutar —

Ham shariat, ham tariqat yo‘llarin,
Bilar ular ul haqiqat hollarin.

Bu tariqat manzili ayon anga,
Kashf etib ochmish azim Subhon anga.

Chunki ular ushbu yo‘llar bilan band,
Haq oldida so‘zlari bo‘lar baland.

Ahdin mahkam bil ularning Haq bilan,
Rasulullоh — ul shohi ummat bilan.

Tangri bilan ahd etgan kun jonlari,
Birikkan kun jon bilan imonlari,

O‘shal kunda ahd etishdilar ular,
Banda biz deb, Tangri sen deb aytdilar.

Rishtani uzun tutib ushbu zamon,
Mahkam bo‘lib turdilar, etma gumon.

Ya’ni ularni haqiqat shohi bil,
Qarong‘ilik ravshan Oyi — mohi bil.

To‘lgan Oyga mengzar agar chin faqir,
Ba’zisin yulduzcha bil, ko‘rma haqir.

Ey Xudo-yo, tut meni ixlosga mos,
O‘zing egasan ro‘zig‘orimga xos.

Bu qarong‘i ko‘nglimga ber yoqtiliq,
Ato et yaxshi adab, yaxshi qiliq.

U Rasulullоh aytdi bu so‘z(n)i:
“Och ko‘ngil ko‘zin, ochilsin do‘st yuzi”.

Haq yaratdi bu olamning xalqini,
Bu zaminning balchig‘idan bil shuni.

“Payg‘ambarlar ham faqirlar, — dedi, —
Jannatning balchig‘idan xalq etildi”.

Kim iroda aylasa berk turmoqni
Tangrining ahdida, Haq siylar ani.

Bas, faqirlarni aziz ko‘rar mudom,
Jon-u dildan tingla so‘zni, ey g‘ulom.

Tingla endi, bir faqirning hurmati
Tangri yonida ulug‘roqdir qatti(q).

Yetti yerlar, yetti osmonlaridan
Ham maloyik, dengiz-u tog‘laridan.

Haq aziz etmish faqirlarni, biling,
Jon-u dildan ularni hurmat qiling.

Ham faqir bo‘lgan faqir bo‘lmoq kerak,
Eldan ko‘ngli past — haqir bo‘lmoq kerak.

Har doimo Haqqa sano aylagay,
Ko‘p yig‘lagay, ozgina ham kulmagay,

Har zamonda sajdada bo‘lgay boshi,
Tinmay oqar ikki ko‘zidan yoshi.

Haqqa borar to‘g‘ri yo‘lda u kishi,
Ko‘p-ko‘p mehnat bilan olar ulush(n)i.

Chunki Haq vahiy etib Payg‘ambarga:
“Zikr-u tasbeh ayla” deb ul sarvarga.

“Qo‘y boshingni sajdaga, — dedi anga, —
Bandalik et, kel, yaqin bo‘lgin manga”.

Demadi u mol yig‘ib, bo‘l savdogar,
Faqir emas kim hirs bilan dunyo yig‘ar.

Hech qachon bu so‘zlarga etma gumon,
Mana, oyat, o‘qi va o‘zing ishon:

Allohning so‘zi: “Va’bud robbaka hatta
ya’tika-l-yaqinu” — al-oyat.[1]

[1] *Qur’on.* 15-sura, 99-oyat. Ma’nosi: “(Shuningdek,) to sizga aniq-narsa (ya’ni o‘lim soati) kelgunicha Parvardigoringizga ibodat qiling!”

Bu dunyoda yolg‘iz saqla o‘zingni,
Bevafo mol-dunyoga tikma ko‘zingni.

Dunyoga kelgan holing fikr et hargiz,
Bilasan, onadan tug‘ilding yolg‘iz.

Qil dunyo g‘amidin o‘zingni ozod,
Mol-dunyodan uzilgan topdi murod.

O‘zingni uzsang mol-dunyodan agar,
Yaxshi zotlar sen uchun yaxshi rahbar.

Dunyo bilan oxirat qardosh emish,
Bir-biriga avval harom etilmish.

Faqir bo‘lsang, dunyoni qo‘y, ey kishi,
Dunyo ichra chekma zarra tashvishi.

Oxiratning g‘amini qil ixtiyor,
Ikki olam bo‘larsan sen baxtiyor.

Ko‘nglingni sen oxiratga bog‘lagil,
Ham orzu qil, har dam ani anglagil.

Qalbingni past tut — bo‘lgil haqir,
Ishq otiga o‘zingni qil chobusuvor.

Uni ravon surgin Tangri yo‘lida,
Goho yo‘rtib, gohi rohat holida.

Yo‘lboshchi tut, manzildan bersin xabar,
Rahbarsiz adashar, yo‘lda ko‘p xatar.

Yurgil sen manzilma-manzil, dam-badam,
Ranj chekib, maqsad eliga bos qadam.

Tangri yondosh hamisha, u tomon yur,
Yolg‘iz bo‘l, Haq tarafga yuzingni bur.

Maqsad udir, maqsad udir, maqsad u,
Matlab udir, matlab udir, matlab u.

Kim maqomi vahdatga qo‘ydi qadam,
Bo‘ldi ko‘ngli har doim Haqqa hamdam.

Go‘yoki ko‘rikda qizib temirlar,
O‘tda ko‘yib, bir-biriga birikar.

Bamisoli dengizga tushgan tomchidir,
Yo misol et kunga tushgan zarradir.

FASL

Aytdi bir so‘zni Rasulullоh yana,
Bari bo‘lib, ziynatni tark etgan(g)a.

Kiyishga ko‘p libosi bo‘lgan kishi,
Kiymasa shohona kiyim-po‘shish(n)i,

Tangri birla bo‘lsa uning ko‘ngli pok,
Siynasin ishqida aylasa chok-chok,

O‘sha er boy bo‘lsa gar yoki faqir,
Haq yo‘lida o‘zini tutsa haqir,

Ne qadar bo‘lsa uning mulki ziyod,
Tutsa o‘zin bir g‘aribi nomurod,

Ko‘zlarida to‘xtatmay oqtirsa yosh,
Tangrining ishqida qo‘ysa jon-u bosh,

Barchalardan ko‘rsa past o‘z holini,
Bilmasa somoncha dunyo molini,

Shubhasiz, Tangri sevar ul kimsani,
Haq birla bo‘lar uning joni-tani.

Haq unga yopar karomat hullasin,
Oson topar u kishi uchmox isin.

Qullar ichra bo‘lar eng suyuklisi,
Halol topsa, ozig‘i ham libosi(n).

Kim qilsa Tangriga yaxshi niyatin,
Qadri ortar uning misoli oltin.

Tangri ko‘zlar qullarining niyatin,
Ko‘zlamagay fe’li bilan suvratin.

U kishi Haq ishqida devonadir,
Barchadan kechmishdir u, hamxonadir.

Ular bilan hech kishining ishi yo‘q,
Kiyish-u ichishdan hech tashvishi yo‘q.

Bo‘lsa darvesh kamtarin bir kimsalar,
Sunnat bilan yo‘llarida yuksalar.

Sunnat bilan go‘zal aylar dunyosin,
Ham o‘ziga rahbar qilar odobin.

Jon bilan o‘zin tutar Haq yoniga,
O‘z yonidan joy berar Haq ham anga.

Alg‘araz, ixlos bilan ista Haqni,
Ko‘ngling ichra saqla sabr-u toqatni.

Tangri demish: “Bo‘lsa kim maning bila,
Birgaman, hech shubhasiz aning bila”.

Bo‘lsaki kim Haq bilan, Haq anglatar
Bu olamda o‘zi qaysi yondadir.

Bo‘lsaki kim Haq bilan, Xizr bil ani,
Yo‘lboshchidir, u yo‘lga solar sani.

Bir soat bil boshdan oyoq umringni,
Uyg‘on sen, uyquda o‘tkazma uni.

Ey Xudoyim, yordam ber men yoringga,
Bu ko‘ngil shikasta o‘z bemoringga.

Umr o‘tsa, zavq-u shavq-u shukr ila,
Hasrat-u toat ila, zikr ila.

Zikridan bir dam farog‘at bo‘lmasa,
Ko‘nglini dunyo g‘amiga solmasa,

Yo‘ldosh etsang meni shul darveshlarga,
Ham g‘arq etsang o‘z rahmat dengiziga.

Oxirgi damimda imon bilan jon
Borsa dargohingga, ming-ming al-omon.

Gar faqirlar bo‘lmasaydi dunyoda,
Bas, halok bo‘lgay boylar, yo Xudo.

Boqiy davlatdir faqirlar davlati,
Ko‘rsa ham u bunda ko‘p kin-hasrati.

Jannatga bulardan avval kirar ul,
Shubhasiz, Tangri jamolin ko‘rar ul.

Har kishi ularni suysa jon bilan,
O‘lsa, ketar dunyodan imon bilan.

Har kishi ular bilan suhbat qurar,
Ro‘zi mahsharda ular bilan turar.

Ular bilan har kishi yesa taom,
Uni Tangri kechirar — yo‘qdir gumon.

Rahmatiga Haq uni duch aylagay,
Ular uchun mahsharda aysh aylagay.

Bir faqirga bir kishi yetmish qadam
Odim otsa yo ziyorat qilsa ham,

Hajga ketgan savobini shu zamon
Yozar Alloh unga, emas bu gumon.

Ularga kim kamtarinlik aylasa,
Kulib boqib, shirin so‘zlar so‘ylasa,

Haq berar ularga ulug‘ martaba,
Yetkazar ularni oliy maqsad(g)a.

Ham baland qilar ularni, ey kishi,
Mahshar kuni bo‘lmas aslo tashvishi.

Ularga kim takabburlik aylasa,
Qasd etib yo bir yomon so‘z so‘ylasa,

Aylar ular o‘zini Haq zor-u xor,
Bo‘lmas nasibasi uchmohga duchor.

Rahim etib, kim ularga bersa to‘n,
Hulla berar Haq uning biriga o‘n.

Ularga kim xayr etib, ot mindirar,
Mahshar kuni Haq Buroqqa o‘tqazar.

Har kishi sadaqa bersa agar,
Biriga — o‘n, o‘niga — yuz ehson ko‘rar.

Xizmat etsa ularga kim biror kun,
Haqqa yuz yil xizmat etdi deb bilgin.

Tangri bo'lar u kishilardan rizo,
Ayrilar undan yana yetmish balo.

Ham qazo o'qiga qalqon bo'lar ul,
Umrin uning ancha uzoq qilar ul.

Ham ado bo'lgay uning har hojati,
Arzon bo'lar ikki olam davlati.

Ularning kim so'zlarini tinglagay,
Haq siridan ko'p ma'nini anglagay.

Xizmatingni sen ulardan qizg'anma,
Mahshar kuni Haq karam qilgay sanga.

Ey faqir, kel, bil faqirlik qadrini,
Bo'lsa agar ul ulug' mahshar kuni.

Sizlarga Haq demish: As'hobi amin,
Yemadingiz o'tar dunyoning g'amin.

Haq hisob etar olimni o'ng qo'lin,
Jahd tutganlar uchun dinning yo'lin.

Haq sevib, bermish faqirlikni sanga,
Sabr etib, qil shukurlar sen manga.

Faqirlik mulkidir ajoyib, ne tong,
Ixtiyor etmish uni bobong, otang.

Sarvari olam ani etmish qabul,
Ixtiyor etmish ani bor sohib, qul.

Ixtiyor etgan — ko'ngil sultonidir,
Ixtiyor etgan — jahonning jonidir.

Ixtiyor etibdi barcha payg‘ambar,
Ixtiyor etmishdir bor imonlilar.

Avliyo bil ixtiyor etganlarni,
Jon-dilidan Haq amrin tutganlarni.

Bas, faqirlik quvonchi sarvarlarning,
Jahd bilan Haq istagan rahbarlarning.

Bil haqiqat faqrini[1] jon ichra jon,
Pok malak bil, unga bo‘lma badgumon.

Avliyo bil, tutgin uning amrini,
Jon-u dil, din ta’limidir har kuni.

Karomatdir jumla olam ziynati,
Haqdan emin ahli xalqqa rahmati.

Dunyoning tirgasi — dindir avliyo,
Buyuk Osmon ham Zamindir avliyo.

Avliyodir ham Xudoning qo‘shnisi,
Avliyodir barcha xalq o‘ngboshisi.

Avliyo har kimsaga qilsa nazar,
Istagan maqsadini Allohdan olar.

Qanot bo‘lsa har kishiga avliyo,
U uchib yetar, albat, Haq yonina.

Avliyoni ko‘rgan — Tangriga yetar,
Kim do‘stiga qarashsa, Alloh qarar.

Avliyodir ulamo xalq ichra Haqdan,
Ilm-u hikmat unga ingandir ko‘kdan.

[1] **Faqr** — tasavvufga tegishli tushuncha.

Avliyodir xalqni Haqqa undagan,
Turli sirlarin uning ila yoygan.

Bo‘sh emas, avliyoga to‘lidir jahon,
Yomon ish kam bo‘lsa to oxir zamon.

Haq sirlari avliyolardir, biling,
Haq xabari avliyolardir, biling.

Bu jahonga avliyolar jon erur,
Bo‘lmasalar, bu jahon vayron erur.

Bir xabar ichra bu so‘z dedi Rasul,
Ummat bo‘lsang, jon bilan ayla qabul.

Faqirlar kim Tangriga ro‘zi mahshar
Shubha yo‘q, albatta, ular uchrashar.

Uzrlar aytar Haq taolo bularga,
Go‘yo do‘stga do‘st o‘tinchi bo‘lar-da.

Der: “Sizga dunyoni loyiq ko‘rmadim,
Shu sababdan sizga dunyo bermadim.

Ya’ni o‘z elim deb men sizlari,
Etdim bu jihatdan orasta — ore.

Chunki dunyo bir chirkinlikdir boshi,
U chirkinlikni istamak — itlar ishi.

Bu chirkinlikdan kirlanmasin deb,
Bu najasni bermadim sizni suyib.

Izzatim yaxshisi endi sizlarga,
Yaxshilar bilan kiring jannatga.

Dunyoda kim sizga bersa parcha non,
Yaxshilik qilsa sizga hargiz — hamon,

Yoki bir suv bersa sizga ichishga,
Yoki libos bersa, balki kiyishga,

Yoki ular sizga ehson etsalar,
Chin ko‘ngildan hurmat-ikrom etsalar,

Ularni sizga butun bag‘ishladim,
Siz uchun yaxshilik yo‘lga boshladim.

Ularning qo‘lin tutib siz behisob, —
Der, — behisht ichra kiring, yo‘qdir azob”.

Bir faqirga kim xushomad aylasa,
Xushlik ham yumshoqlik bilan so‘ylasa,

Haq uchun kim aylasa ehson anga,
Ehson etsa ajabmas Subhon anga.

Xushomad qil, so‘z aytgil joning bilan,
Jannat ichra borarsan uning bilan.

Har faqirkim, sabri yo‘qdir, ey ota,
Yuzqaro bil ani ikki dunyoda.

Chunki u kas Haq amrin rost tutmadi,
Ikki olam maqsadiga yetmadi.

Xalqqa boqmagan odam olam aro,
Ikki dunyoda bil uni yuzi qaro.

Har faqirkim istagay mol-dunyoni,
Tangri o‘z dargohidan quvlar oni.

Kim faqir bu dunyosin zebo qilar,
Hech gumonsiz u dunyosi buzilar.

Ya’ni kim bu dunyosini boy etar,
U dunyosin Tangri qilar darbadar.

Tangriga qullik qilib, sabr etmasa,
Haq yo‘lida o‘zin kamtar tutmasa,

Ushbu dunyo bilan bo‘lsa bor ishi,
O‘tsa gar hasrat bilan bahor-qishi,

El yuzicha o‘xshab faqir ahliga,
Yashirin do‘st bo‘lsa fosiqlar bila,

Chin dildan to‘g‘ri bilmasa Haq yo‘lin,
Bo‘lmasa-da, sevsa gar dunyo molin,

Dunyo uchun egsa boylarga boshin,
Sevsa uni, tashlasa din yo‘ldoshin,

Nafsiga har ishda insof bermasa,
Barchalardan o‘zini past ko‘rmasa,

Mol-dunyo, darajaga intilsa o‘zi,
Tushmasa Haq diydoriga ko‘zi,

Bo‘lmasa ko‘ngil aro Haqqa uzrgoh,
Bu faqirga Tangridan dilda panoh.

Hisoblanglar do‘zax ahlidan uni,
Shukurli boy undan yaxshi, bil shuni.

Mol-u dunyoga sen moyil bo‘lmagil,
Tavba aylab, jon birla Haqqa egil.

Kelgil faqir, sen sabrli tut o‘zingni,
Qora qilma ikki olam yuzingni.

Hurmating saqla yengillik aylama,
Tiling saqla, manman so‘zni so‘ylama.

Tangri bilan ayla ko‘ngling har zamon,
Tushmasin ko‘zingga hech yaxshi-yomon.

Mashg‘ul bo‘lgin zikriga erta-yu kech,
Ushbu keng olamda joy tanlama hech.

Bandalik qil Tangriga shom-u sahar,
Top ma’rifat hamda Allohdan xabar.

Tangri amrin tut, tuzatgil yo‘lingni,
Bo‘l tariqat, ko‘zlama sog‘-so‘lingni.

O‘zingni barchadan pastfe’l ayla,
Fikr etib, oxirat yarog‘ing shayla.

Uchmox istab, harna shod et o‘zingni,
Borarman deb, gul-gul ochgil yuzingni.

Do‘zaxidan qo‘rqibon zor aylagil,
Bu olamdan o‘zing bemor aylagil.

Kechirim so‘ra jon-dildan Tangridan,
Umiding puch etmas yolg‘iz Yaratgan.

Istagil shafoat Rasulullohdan,
Olamning quvonchi Habibullohdan.

Osiy ummatga shafoat etguvchi,
U bo‘lar mahshar kuni qo‘l tutguvchi.

Ham yana sevgil uning to‘rt yorini,
Barcha avlod, barcha as’hob — borini.

Avliyo ham bor darveshlari tamom,
O‘zingga do‘st bilib, sevgil, ey g‘ulom.

Qondosh bil o‘zingga mo‘min qullarni,
Tutmagil xor bu musulmon ellarni.

Bo‘lsa o‘zingdan katta, sana otang,
Bo‘lsa o‘zingdan kichik, ini sanang.

Gar sening birla barobar bo‘lsa yosh,
Bil do‘g‘on, sanagin ko‘z ustida qosh.

Dema o‘zingcha katta yo falon kas,
Haqdan qo‘rq, tut o‘zingni barchadan past.

“Olam xalqin o‘zidan bildi baland”
Desalar, munosib senga el-elat.

* * *

Haq Rasul nazmga ishorat ayladi,
Ushbu nazmni ruhimga so‘zla dedi.

Na qilayin, nazmga majol yo‘q menda,
Nazm etmak ishiga uqubsiz banda.

Osmonga uchirib fikrim qushin,
Etsin dedi Rasul topshirgan ishin.

Men kabi ojizga farmon bo‘ldi, voh,
Jon-u dil bu ishga hayron bo‘ldi, voh.

Cho‘kdi mening qalbimga g‘amdan tuman,
Ilhomning daryosi jo‘shdi u zamon.

Yoshlar oqdi ko‘zlarimdan tinmayin,
Bitdi bilim xurmosi ko‘z ko‘rmayin.

Ushbu xurmo mevasi jon farzandi
Yedi, qayta notinch bo‘ldi u endi.

Hang aylab, afg‘on bilan so‘z boshladi,
Tangriga topshirib, ishin boshladi.

Zahmat uchun Qodirga yolvordi jon,
Istabon shayton sharridan ul omon.

Avliyolar ruhidan yordam istab,
Zor bilan boshladi bu so‘z bastalab.

Nazmga chekdi bu hodisa fikr etib,
So‘zaro Tangrining otin zikr etib.

Tangrining ne’matlarin fikr etdi xush,
Mumkin emas sanamoq,
shukr etdi xush.

Orasiga soldi so‘zlar oz-u ko‘p,
Ma’nisin fahm aylagay ani o‘qib.

Bilganicha ham nasihat ayladi,
Ma’rifat birla hikoyat ayladi.

Dunyo to‘rt oyoqda turgandir mudom,
Bo‘ldi bu so‘z ushbu to‘rt birla tamom.

Xatm etildi bu kitob to‘rt bob ila,
Bizdan yodgordir habib-ahbob ila.

To‘rt bilan tuzilgan bunda barcha kor,
Nizomidek ul Rasuli choriyor.

To‘rt oyoqni har na jondor ahlina
Kezishga qildi sabab qodir yana.

Har neki uylarda to‘rt qanot bo‘lar,
Har neki to to‘rt devorda tuzilar.

To‘rt narsadan yaratdi bu dunyoni Haq.
O‘yla ham fikr et, bu senga saboq.

Ya’ni bu to‘rt jahonni qayum qilgan,
Yerlarni ham ko‘klarni doim qilgan.

Shuning uchun bo‘ldi bu nazmga sabab,
Tolibi Haq bo‘lsa kim, qilsin talab.

Arbain deganlari to‘rt andadir,
Ushbu to‘rt arbain sonindadir.

Ey g‘araz, o‘tirsa har kim arbain,
Haqni istab topguvsidir, ey amin.

Tangri har bir ishga sabab etmishdir,
Haqdan kelsa, ajab emas bir ishdir.

Qabul etgin duoyimni, Bir-u bor,
Kim o‘qisa, rahmat etgil, ey Jabbor.

Yordam bergil kim o‘qisin, tinglasin,
Jon qulog‘i ma’nisini anglasin.


Ushbu nazm tarixin so‘rsang gar yana,
Ming bir yuz oltmish yetti erdi sana[1].

Bu kitob uchun na deb so‘rasang ot,
Qo‘yildi nomi aning “Va’zi Ozod”.

Tamom

[1] 1167-hijriy yili, milodiy 1753–1754-yillarga to‘g‘ri keladi.

BEHISHTNOMA



Bismillahir rohmanir rohim

Sanoyi beadad shohi Yalila,
Yaratdi jahonni qudrati ila.

Ustunsiz osmonlarni qoldiribdir,
O‘zining qudratini bildiribdir.

Falakni doimo gardon[1] qilibdir,
O‘n ikki burjini sarşon qilibdir.

Jahon ichra qo‘yibdir kecha-kunduz,
Kun ila oyni qildi jami afro‘z.

Jahonni bu ikkovdan ravshan etmish,
Jahon ahli madorina shundan yetmish.

Ajab qudrat bilan qudratli Qodir,
Ki tirgaksiz tikibdir turfa chodir.

To‘shamish yerni, mix yetmish jaballar[2],
Ki ko‘rki jumla bo‘ston-u asallar.

Qilibdir bu jahonni koni ne’mat,
Nazar qil, bormi hech poyoni ne’mat.

Yog‘ar yomg‘ir, bulut o‘ynar, esar yel,
Oqar suvlar, chiqar o‘t tegmagan el[3].

---

[1] **Gardon** — aylanadigan, aylanma.

[2] **Jabal** — tog‘.

[3] **El** — qo‘l ma’nosida.

Hayvonot-u nabatot-u jamodat,
Uzalur so‘z tutsam birin-birin ot.

Barini biz uchun tinchsiz etibdir,
Bani Odam nechukki tinch yotibdir.

Kel, insof ayla, ey farzandi Odam,
O‘tar umring ham, ogoh bo‘l damo-dam.

Boshingdan har na o‘tsa, kecha-ertir,
Umring o‘tishida bordir turli sir.

Nazar qil dunyoga nasiba to‘ldi,
Yangi narsa kun-kundan ko‘hna bo‘ldi.

Tamom bo‘lgay binoyi umring, ey jon,
Bilar davlat bu banda amri Subhon.

Bo‘lar xizmatda joni birla bedor,
Ki ishqida yonar ko‘ngli, qilar zor.

Nechuk zor etmasin kim banda bo‘lsa,
Qo‘lidan kelmas ish darmonda bo‘lsa.

Tavakkalni durust qilsin Xudoga,
Bo‘yinsunsinki, taslimi — rizoga.

Ilohi, ro‘zi qil tavfiqi toat,
Ki orttir xizmatni soat-basoat.

Durud birla eslaylik Mustafoni,
Bizim uchun chekibdir ko‘p jafoni.

Hamma avlodi azvoj bari birla,
Barcha yoron, xususan, to‘rt yori birla.

Ular kimlar uchun ko‘p jahd etibdir,
Bizim uchun bu yo‘lda ish bitibdir.

Tamomiki anbiyo-yu avliyoga,
Ki jumla peshvo-yu anbiyoga.

Xususan, hazrati No‘mon bu yo‘lda,
Qattiq johid bo‘lib bu tog‘-u cho‘lda.

Alar ruhin, ilohi shodimon et,
Ulug‘ mahsharda qo‘rquvdan omon et.

Oyog‘i tuproqlarin bizga davo qil,
U tuproqdin ko‘zimga to‘tiyo qil.

Dami oxirda imon ber, ilohim,
Kechirgin sen hamma jurm-u gunohim.

Ulug‘ mahsharda, ey Sattori olam,
Alar birlaki, qilgil yori-hamdam.

Vohib[1] otlig‘ rasul yoronlaridan,
Ki durlar ochdi so‘z boronlaridan[2].

Rasuldan naql etibdir ushbu so‘zni,
Eshitar ochsa kim jon ichra ko‘zni.

Yaratgan kun jahonni jannati ham,
Yaratdi tingla so‘z, ey yori hamdam.

Eni har jannatining yer birla ko‘kdak,
Uzunin bilmadi hech kimsa beshak.

---

[1] **Vohib** — hadya (sovg‘a) qiluvchi.

[2] **Boron** — yomg‘ir.

Magar Alloh bilar, olimdir o‘zi,
Aning ilmiga tengmas kimsa so‘zi.

Qiyomat kun yer-u ko‘klarning, ey yor,
Tortib kengaytar Allohim ul miqdor.

Kengayar bu jahon haddi bepoyon,
Sig‘ar sakiz behisht ahli ham ayon.

Kuchlidir qudrati Parvardigorning,
Ne qilsa jondan bo‘lsin e’tiboring.

Yetti yer, yetti osmon, arshi, kursin,
Sig‘dirsa bir hovuchga, nelar dersen?

Kengaytib bu jahonni yuz bu miqdor,
Sakkiz jannat sig‘sa gar, ne so‘zing bor?

Sakiz jannat tamom yuz daraja ul,
Eshikdan eshikka besh yuz sana yo‘l.

Oqar doim bu daryolar ichinda,
Tuganmas,
foniy bo‘lmas meva anda.

Yana nozik ayollar nuri iyndan[1],
Yaratmish alarni nuri mubindan.

Misoli hammasi yoqut-u marjon,
Emas alarni g‘ayri kimsa ko‘rgon.

Va g‘ayri nazar etgan emasdir,
Na ins-u jin ani tutgan emasdir.

[1] Voqea surasi, 22-oyatga ishora.

Ki yetmish hulla kiymish har birisi,
Tamoman boshqa-boshqa rang barisi.

Ko‘tarmakda yengil bir necha sochdan,
Tamom nozik ipakdan, xush qumoshdan[1].

Sumaklar, hullalar, etlar toshindan,
Qarasang mag‘zi-inchikni[2] ko‘rarsan.

Qizil sharbat bu yak shisha ichinda,
Aniq ko‘rarsan sen mag‘izni anda.

Lachak bo‘ynuzlari dur birla, ey jon,
Bezamishlar hamma yoqut-u marjon.

Ochib jon qulog‘ing, kel, tingla ey yor,
Behisht ichra ajoyib nisbalar bor.

Ilohi, ro‘zi qilg‘il qullaringga,
Hamma mo‘min-musulmon ellaringga.

Sakkiz jannatni nuridan yaratmish,
Tamoman bir-biridan ayri etmish.

Misoli ayri bo‘lgandek samolar,
Biza aytmish bu so‘zni rahnamolar.

Yettinchi ko‘k uzra mavjuddir alhol,
Ki yo‘qdir ushbu so‘zda qiyl ila qol.

Yuqori bir-biridan, tingla xalo,
Baridan yuqori firdavsi a’lo.

---

[1] **Qumosh** — to‘qima, mato.

[2] **Inchik** — nozik, ingichka.

Bo‘lur pora o‘shal kun yetti osmon,
Ki jumla ahli mahshar anda fazon[1].

Kun ila Oy tutilar anda bari,
Yuzida qolmagay yulduz asari.

Yitar osmon-u yetti yer yiqilar,
Tomug‘ning ustiga ko‘prik chekilar.

Yetti do‘zax nazarga kelgay anda,
Ne borin osiy qullar bilgay anda.

Bo‘lur jannatga mo‘min ahli nozir,
Samolar ketib, jannat bo‘lar hozir.

Bo‘lurlar jannat ahli shod-u xurram,
Bashoratlar bo‘lur, emas alar g‘am.

Ilohi, ko‘nglimni shodimon qil,
Musulmon qil, toki ahli imon qil.

Ki jannat vasfin istar, kelsin emdi,
Jon qulog‘in so‘zimga solsin emdi.

Aytayin bilganimcha vasfin, ey yor,
Xaridori kerak, ochildi bozor.

Haqoyiq ahli so‘z bozorin ochdi,
Ki tinmas qatrakim bu sharbat ichdi.

Eshitib bovar etgan ushbu so‘zi,
Sevar ani ikki dunyoda O‘zi.

Bu jannat eshigin sakkiz demishdir,
Biri tikka, birin qumga qo‘ymishdir.

[1] **Faza’** — qo‘rqinch, vahm.

Ki oltin murassa[1] javhar ila,
Yasamish Tangri qudrat anvar ila.

Avvalgi eshik uzra yozmish ani,
Kalimayi toyyiba az jon bixoni.

Bu eshik anbiyoyi mursalindir,
Tag'in olam ahlin jo'mardlarindir.

Ikkinchi eshik namozxonlar uchundir,
Vuzu[2], amal keltirganlar uchundir.

Uchinchi eshik beribdir kim zakotin,
Ishonib anglamish sakkiz sifotin.

Bu to'rtinchi eshikni kimlarga bermish,
Alarkim amri ma'rufga buyurmish.

Dag'i nahy aylamish munkar ishidan,
Tama qilmay haq uchun bir kishidan.

Bu beshinchi eshikni Haq alarga berdi,
Ki har nafs orzusidan qo'lin ko'tardi.

Bu oltinchi eshik — alar haj etmish,
To'zon, tuproq uzra umraga yetmish.

Bu yettinchi bobni[3] g'ozilarga berdi,
Alarki kofirlar ila jangda erdi.

Sakkizinchi eshikni so'rsang aytayin,
Ki jannat vasfini xalqqa yoyayin.

---

[1] **Marassa** — qiymatli toshlar bilan bezatilgan.

[2] **Vuzu** — tahorat.

[3] **Bob** — eshik.

Alarkim istamishdir Tangrini ul,
Ko‘zin yummish haromdan ham tortib qo‘l.

Ota-onasiga xayr yetmish alar,
Musulmon qardoshin xush tutmish alar.

Har neni xayr aylamish jahr-u nihoni,
Qo‘lingdan kelsa qo‘lla jondin oni.

Ilohi, bizni xayrga rog‘ib ayla,
Ki yaxshilar so‘ziga tolib ayla.

Yomon ishdan, yomondan aylagil dur[1],
Ikki olamda qil fazl ila ma’mur.

Bu jannat sakkiz demishlar tamom ul,
Biriga ot berur “Dorul jinon”[2] ul.

Yasamishdir ani oq durdan Alloh,
Bani Odam uchun vallohi-billoh.

Ikkinchi jannati “Dorul salom”dir,
Xabar bergan bizga bu haq kalomdir.

Yasamishdir qizil yoqutdan ani,
Olar bir donasi yuz ming jahoni.

Uchinchisi jannati “Ma’vo” turur ot,
Kalamulloh ichida bo‘lmish isbot.

Ani yashil zabarjaddan tuzatmish,
Ajoyib qudrat ila shunday etmish.

---

[1] **Dur** — uzoq, yiroq.

[2] **Dorul jinon** — jannat uyi.

To‘rtinchi jannatiga “Xuld”[1] erur ot,
Kalom ichra ani ham aylamish yod.

Bino yetmish anga bu sari marjon,
Ki qudrat birla tuzdi ani Subhon.

“Naim” demish beshinchi jannat otin,
Berar Tangrim o‘zi qullar me’rojin.

Binosi jumla muning oq kumushdir,
Kalom ichra Xudo o‘zi demishdir.

Oltinchi jannatning “Firdavs” otidur,
Sevar qullari uchun joylar atalur.

Tuzatmishdir qizil oltindan ani,
Xudoning lutfidir, to‘ma[2] gumoni.

Yettinchi jannatni “Adn” atamish Haq,
Desinlar jumla mo‘min ahli sadaq.

Tuzatmishdir ani oq durdan, ya’ni,
Tamom jannat boshidir, tingla buni.

Bu jannat jumlasidan ilgaridir,
Shuning-chun barcha jannatlar saridir[3].

Ajab ermas uy uydan yaxshi bo‘lsa,
Ki zeb-u zevar ila naqshi bo‘lsa.

Bu jannatda ikki eshik mubayyan[4],
Tuzalmish qudrati Haqdan muayyan.

---

[1] **Xuld** — 1. Adabiylik 2. Jannat.

[2] **To‘ma** — oziq, luqma.

[3] **Sari** — boshi

[4] **Mubayyan** — bayon qilingan, tushuntirilgan.

Ki har eshikda ikki taxta qopi,
Bu tillodan tuzalmish yo‘q xilofi.

Ikki taxta orasin so‘rsang, ey jon,
Xuddi orasidek yer bilan osmon.

Hamma jannat binosin ham demishdir,
Bu kirpichlar bari oltin-kumushdir.

Suvog‘idir tamoman mushki azfar,[1]
Ki xoki za’faron birla anbar.

Ki ko‘shklar bordir durdan tuzalmish,
Aning panjarasi yoqutdan bo‘lmish.

Eshiklari tamom javhar tutur bu,
Yuziga tutdirilmish ma’lul-inju[2].

Ki vasfi ko‘p erurkim, tilga kelmas,
Noqis aql ila anga yetib bo‘lmas.

Bu jannatlarda to‘rt daryo oqar ul,
Kim ichsa, qatrasi jonga yoqar ul.

Birisi bahri rahmatdir, oqar bu,
Sakkiz jannat uzra, ey yori neku[3].

Bu suftning[4] toshlari yoqut-u lu’lu,
Javohirlar bo‘lur ham anda lu’lu.

Ki garddan oqdir, aning suvlari sof,
Shirinroqdir asaldan, demasman lof.

---

[1] **Azfar** — o‘tkir hidli, toza.

[2] **Ma’lul** — asoslangan.

[3] **Neku** — yaxshi, go‘zal.

[4] **Suft** — teshik.

Yana birisi kavsar ariq bo‘lgay,
Bir ichgan suvsamoqdan forig‘ bo‘lgay.

Muhammad arig‘i derlar anga bu,
Borur ushbu ariqdan ummatga suv.

Og‘ochlari aning yoqut ila dur,
Kanori chanoq bo‘lgay jumla pur-pur[1].

Bu yulduzlar hisobidan o‘kushroq[2],
Ki jumlasi erur pokizadan pok.

Ichar ummatlari ushbudan ul on,
Bo‘lur ul suv, ey jon, ummatga darmon.

Bu jannatda buloq kofur erurlar,
Dag‘i ariq ki “Tasnim”[3] deyurlar.

Dag‘i bir ariq anda salsabildir,
Birisi dag‘i anda zanjabildir.

“Rohiq-ul-maxtum” atarlar biri bor,
Muhrlikdir, ochilmas kimsa, ey yor.

Ki andan o‘zga suvlar soni yo‘qdir,
Agar bir-bir desam, poyoni yo‘qdir.

Hisobga kelmagay bas Tangri koni,
Ishonmasang bir qara bu jahoni.

Erur ushbu jahon bir joyi foni,
Yana yo‘q suvlarning haddi-soni.

---

[1] **Pur** — to‘la.

[2] **O‘kush** — ko‘p, ancha, talay.

[3] **Tasnim** — jannatda oqadigan suv nomi.

Ilohi, bog‘-u bo‘ston gullaringni,
Nasib et orzulab bulbullaringni.

Ilohi, yaxshilarning sevgisin sol,
Tavoze joyini qil misli bir dol.

Payg‘ambar dedi, me’roj kechasinda,
Hamma osmonlarni sayr etdim anda.

Tamom jannat ichra barin bor ko‘rdim,
Anda oqadigan chor anhor ko‘rdim.

Biri suvdir aning ham birisi sut,
Ishongil ushbu so‘zga, bo‘lma mardud.

Yana bir ariqqa “Xamr” ot berurlar,
Ki lazzatli sharbatdir, ichirurlar.

Biri ushbu ariqning, bil, asaldir,
Shakardan ham shirinroq oti boldir.

Bu daryolar oqar jannat ichinda,
Ajab hayron bo‘lur bir ko‘rgan anda.

Tamoman havz ichiga kirar alar,
Bir-biriga qatishmay oqar alar.

Bu havz ichra asal, sut hamda suvlar,
Kirar bo‘lsang to‘piqqa yetmagaylar.

Ulug‘likda bu havzning haddi bo‘lmas,
Noqis aqli, der esam ani bo‘lmas.

Xudoyo, aqlimni afzuntar[1] etgil,
Tilim zikring bilan doim tebratgil.

[1] **Afzuntar** — ortiq toza.

Havas bergil xaloyiq so‘zlariga,
Ko‘zimizni nozir etgil yuzlariga.

Alar sari uchun bol-u parimni,
Kelar yo‘llariga fosh et sirimni.

Qabul ayla tilaklarimni, yo Rab,
Ravon et ko‘zlarim yoshini har shab[1].

Xudoning qudratidan ochdi ko‘zni,
Payg‘ambar der Jabroyilga bu so‘zni.

Bu daryolar kelar qaydan, qayerga
Ketar endi, xabar ber shuni bizga.

Dedi Jabroyil havz ichra yelgay alar,
Ki bilmas qaysi yo‘ldan kelgay alar.

Duo qilgin agar ko‘rmak tilasang,
Bularning aslini bilmak istasang.

Duo qildi u dam Rasul Xudoga,
Malak yubordi Xudo u Mustafoga.

Salomdan so‘ng farishta aytdi bu so‘z,
Ayo Ahmad, bu dam yumgil ikki ko‘z.

Yana ochgin dedi, men yumdim-ochdim,
O‘shal holat bir og‘ochga satashdim[2].

Og‘och ustida oppoq qubbasi bor,
Yashil yoqutdin eshik-qopqasi bor.

---

[1] **Shab** — kecha, tun.

[2] **Satashdim** — duch keldim, uchrashdim.

Qizil tillodan ham qopi qilindi,
Ochilmas ayladim u bog‘li, bandi.

Yetti yer, yetti osmon, ins ila jin,
Qubba uzra qo‘ysa barini birdan.

Bo‘lar misli tog‘ uzra qush qo‘ngandek,
Hamon Qof tog‘iga chumchuq mingandek.

Oqar to‘rt ariqni ko‘rdim taginda,
Dedim, endi qaytsam ushbu yerinda.

Malak dedi, nega kirmading ey jon,
Ki “Indaalloh”da sen aziz mehmon.

Dedim, yo‘qdir kalit menda, ochilmas,
Kalitsiz bu eshikdan kirib bo‘lmas.

Dedi, kalit qo‘lingdir, ochibon kir,
Ajoyib, xush g‘aroyib, ko‘rgil, ey mir.

Desam, qani, dedi, “bismil”dir, ey shoh,
Degil qopu ochilsin, bo‘lgil ogoh.

Dedim, “bismil”ki, bu qopu ochildi,
Xudoning nuri ustimga sochildi.

Ki kirdim qubbaga, ko‘rdimki to‘rt nahr,
Oqar to‘rt rukun qubbadan sarosar.

Dedim, endi chiqayin qubbadan bas,
Malak: “Ko‘rdingmi?” — deb qildi menga sas.

Dedim, ko‘rdim, bale istagimni men,
Dedi: “Qilgil nazar ikki bor ham sen”.

Nazar qildim, bu to‘rt ruknga yozilmish,
Bu “bismilloh” naqshi ila tuzilmish.

Chiqar suv arig‘in ko‘rdim o‘shal dam,
Bu “bismil” mimidan, ey chashmi purnam.

Yana sut arig‘i, Alloh-o, sendan
Chiqar, ko‘rdim ajoyib qudratingdan.

Ki xamr arig‘i Rahmoni mimdan bu,
Asal mimi Rahimdan, ey mohiro‘.

Ki men bildim bu to‘rt ariqning asli,
Bismildan erur, ey mardi usulli[1].

Dedi Alloh o‘shalga, yo Muhammad,
Bu ism ila meni kim aylasa yod.

Sening ummatlaringdan bo‘lsa o‘zi,
Ki xolisona desa gar bu so‘z(n)i.

Sug‘orayin men bu to‘rt ariqdan ani,
Ichsa gar, lazzat olgay kayfi joni.

Kishi Haq yodini sevmak tilasa,
Egasin jon bilan o‘gmak[2] tilasa.

Tutub sunnatni nafsi mone bo‘lsin,
Xudoyi har na bersa qone bo‘lsin.

Tama birla yirtmasinlar yurakni,
Ki uzsin bo‘g‘zidan bu nafsi sakni[3].

---

[1] **Mardi usul, mardi usulli** — ehtiyotkor odam ma’nosida.

[2] **O‘gmak** — bilmoq.

[3] **Nafsi sak** — itning nafsi.

Mujohidda jafoga tutsin ani,
Berib kim ul itga suv birla nonni.

Gar kuch olsa semirib ushbu makkor,
Qilur a'zolaring qulliqda bemor.

Xabardor et Xudo-yo, men qulni sen,
Ki ko'rsatgil menga to'g'ri yo'lni sen.

Darig'o, yetmasa fazlingdan imdod,
Dag'i kimga qilurmen dod-u faryod.

Vasfi uchmoxdan[1] sizga zikr aylayum,
Tinglayib jondan inonsa, so'ylayum.

Uchmox ichra kirsa, vaqti xush kechar,
Shanba kun uchmox suvin mo'min ichar.

Yana yakshanba asal ichgay dag'i,
Dushanba kuni ichar sut, ey axi[2].

Xamr icharlar ul dag'i seshanba kun,
Mast o'lub, sarxush o'lurlar ushbu kun.

Mast bo'lganda ucharlar tikka mudom,
Bir ulug' tog'ga yetishguncha tamom.

Ul ulug' tog' mushki xolisdan bo'lar,
Salsabilning suvlari andin kelar.

Salsabildan suv icharlar ba'dazon,
Ushbu chorshanba kuni bo'lgay hamon.

---

[1] **Uchmox** — jannat.

[2] **Axi** — oshna, birodar.

Ba'dazon uchgay alar ming yil o'ngga,
Yetguncha qasri munifning[1] joyiga.

Ul munif bir ko'shk erur nurdan tamom,
Etmak bo'lmas vasfiga hosil kalom.

Taxtlari bordir baland poyoni yo'q,
Ham qo'yilmishdir chanoqlar soni yo'q.

Ba'zi javhar, ba'zi zar nuqra emish,
Turli sharbatdan ichi to'liq emish.

O'ltirur har birisi bir taxt uzra,
Jumla Qur'ondir, inongil bu so'z(g)a.

Yostig'-u zebo to'shaklar ham harir,
Ust-ustiga haddi-bayondin kasir.

Ya'ni qalin-u bisotlar zil ipak,
Qudrati Haqdan to'shalmish, qilma shak.

Ul qadar bo'lgay baland taxtlar hamon,
Yer bilan ko'kdan bo'lur mobayni — on.

O'ltirurlar taxt uzra toqi qilib,
Har birisi xurram-u shodmon bo'lib.

Bularga ingay sharobi zanjabil,
Xush icharlar ushbuni beqol-u qil.

Xush ajab aysh-u farog'atlar qilar,
Ul kunni payshanba deb atar alar.

Ayni boqiy chashmasidan oq bulut,
Bular uzra hulla to'kkay qut-qut.

[1] **Qasri munif** — baland qasr.

Ya'ni ming yilga qadar hulla yog'ar,
Zil ipakdan jumla xush naqsh-u nigor.

Mo'mini adnosi yetmish hullani,
Ushbu hulladan kiyar, bilgil ani.

Har birining bo'lgay ul rangi digar,
Jomayi zeri bo'lar zebo magar.

Yupqa bo'lgay hullaning har birisi,
Bargi guldek tingla, ey din tiyrisi.

So'ngra uchgaylar bu mo'minlar yana,
Ming yilga etguncha maqsad joyina.

Maqsadga yetgan kuni juma bo'lur,
Ul abad sufrasi[1] uzra o'ltirur.

Ariq ingay alarga, oti rohiq,
Kim bahralik ko'pik mushkdir, ey rafiq.

Undan ichgaylar bular lazzat bila,
Turli sharbat aysh ila, ishrat bila.

Turli meva, turli osh, turli taom,
Xush ichar, aylar navozish xos-u om.

Roziman deb kelgay ul Haqdin salom,
Diydalar bergay bularga ixtimom[2].

Ko'z ko'rgan,
quloq eshitgan bo'lmagay,
Xotiriga kimsaning hech kelmagay.

[1] **Sufra** — dasturxon.

[2] **Ixtimom** — tamom bo'lish.

Nozir bo‘lgay Haqning diydoriga,
Kirdilar chun jannat ahli doriga[1].

Hasrat-u g‘amdan asar yo‘q ba’dazon,
Ishrat ichra qolarlarki jovidon[2].

Dedi bu so‘zni Rasuli rahbaron,
Tangriga har kimsa keltirsa imon.

Tutsa amrin, qilsa ul solih amal,
Ijtinob[3] etsa gunohdan bajadal.

Bu karomat, bu sharofatdir anga,
Ham nasib etgay Xudo diydorina.

Ey Xudoyo, ro‘zi qil diydori yor,
Mo‘minga darkor avval, so‘ngra jar[4].

Bu jannat ahlidan bir kimsa, ey jon,
Qilsa gar orzu diydori Rahmon.

Maloyik keltirur ul dam buroqlar,
Yugani tillo murassa’, ziyn[5] javohir.

Bashorat birla derlar in dodi Haq[6],
Tutarlar shod bo‘lib, alarga saddaq[7].

Bu mehmonxonaga tushgaylar ul dam,
Yegaylar turli ne’mat shod-u xurram.

---

[1] **Doriga** — uyiga.
[2] **Jovidon** — adabiy, mangu.
[3] **Ijtinob** — saqlanish, uzoqlanish.
[4] **Jar** — jar solish, bildirish.
[5] **Ziyn** — egar.
[6] **In dodi Haq** — bu Haqninng adolati.
[7] **Saddaqa** — rost, to‘g‘ri.

Salom kelgay Xudoyi benazirdan,
Rahimlik,
mehribon Hayyul Karimdan.

Eshiturlar quloq birla salomi,
Bu mehmonxonada bo'lgay tamomi.

Ya'ni ko'z birla ko'rgaylar Xudoni,
Jihatsiz o'xshashi yo'q, lomakoni.

Jahonaro jamolin Tangri qodir,
To'lin oydek ko'rurlar ahli nozir.

Bizga vojib qilibdir bitmakni ul,
O'zi bilur o'zin ko'rsatmakni ul.

Ilohi, fazl ila diydoringni ber,
Yurakda zavq-u shavqdin zoringni ber.

Savol etdi Rasuldan Ka'bul axbor,
Nechuk erkan bu jannat ichra ashjor[1].

Nabi aytmish og'ochlar shunday bitmish,
Ajoyib holat ichra anda tutmish.

Qurimas, biror yaprog'i to'kilmas,
Tugamas mevasi hech foniy bo'lmas.

Ki Tubodir[2] og'ochlarning balandi,
Barcha jannat ichra arjumandi.

Aning asliki oq durdan tuzilgan,
Miyoni[3] ham dag'i kumushdan bo'lgan.

[1] **Ashjor** — daraxtlar, og'ochlar.

[2] **Tubo** — jannat daraxti.

[3] **Miyoni** — o'rtasi.

Butoqlari zabarjaddan emishdir,
Uning yaprog‘i oltindur, kumushdir.

Ki yetmish ming butoq bor ul og‘ochda,
Yopishmish har butog‘i, soqi[1] arshda.

Ki aning butog‘i osmonga yetmish,
Xudo qudrat birla shunday tuzatmish.

Butun jannat ichra soya solgay,
Ki jannat ahli andin bahra olgay.

Butun butoq samardan shunday purbar[2],
Bu jannat ahli aysh-u ishrat aylar.

Ki har butoqda bor yetmish ming varoq,
Birida bor: “la ilaha illaalloh...”

Agar so‘zga inonsang, bu turur so‘z,
Inonmasang, unda qara ochib ko‘z.

Bu to‘rtinchi samoda sayr etadir,
Yorug‘i butun olamni tutadir.

Yana jannat ichra ko‘pdir og‘ochlar,
Kumush birla tamoman oltin alar.

Butoqlari aning ba’zisi oltin,
Kumushdir ba’zi, so‘zdan angla mazmun.

Og‘ochlarkim bu dunyo ichra bitmish,
Tubi yerda, butoq osmonda ermish.

---

[1] **Soqi** — daraxt tanasi.

[2] **Purbar** — serhosil ma’nosida.

Shuning chun dunyo ermish joyi taklif,
Inonmadi shuning chun ahli tashrif.

Bu jannat tuprog'idir mushki anbar,
Dag'i kofur-u[1] xushbo'y ila azfar[2].

Ariqlar suv-u sut va asaldir,
Dag'i xamr oti sharbat bexalaldir.

Esar yel ham u yerda xush, muloyim,
Tegar yaproqlar bir-biriga doim.

Chiqar anda alardin turfa ovoz,
Qurilgandek bo'lur xush ming turli soz.

Eshitgan bor emasdir ins-u jindan,
Anga mengzash bu dunyoda xush alxon[3].

Bu sozlarning ovozin tinglayurlar,
Olib lazzat ularki sust bo'lurlar.

Ular xurram o'shal turli ovozdan,
Eshitdim ushbu so'zni dilnavozdan.

Xudoyo rahmatingdan qilma mahrum,
Bizni qo'yma ikki olamda mazmum.[4]

Alidan fathi bob bo'ldi bu iqbol,
Rasuldan naql etib ul sohibi hol.

Dedi jannat ichra bir og'och bor,
Boshida hulla paydo misli asmar.

---

[1] **Kofur** — oppoq.

[2] **Azfar** — o'tkir hidli.

[3] **Alxon** — yoqimli ovozlar.

[4] **Mazmum** — yomonlangan, nafratlangan, yomon.

Haqiqatda ot chiqar, qanotli bo‘lgay,
Egarli ham yugan ziynatli bo‘lgay.

Bezagi dur bilan yoqut erur ul,
Tezak solmas, dag‘i aylamas bavl.

Xudoning do‘stlari mingaylar anda,
Bas ul otlar uchar jannat ichinda.

Oyoq uzra yurgan xalqdir, ilohiy,
Kiydirgansan boshga davlat kulohi.

Bu qullarga qilib sen turfa in’om,
Sabab nedur, bizga bir ayla ilhom.

Xudo der qullariga bu a’boni,
Bo‘lar yog‘ish savollarning javobi.

Namoz alarda pesha, sizda uyqu,
Alarda ro‘za, sizda yemak-ichku.

Alar johid bo‘lib haq xizmatida,
Hamon siz bevafoning ziynatida.

Tan-u jon Tangriga sarf etdi alar,
Menim buyruqlarim xush tutdi alar.

Itobi xush alarga yetdi Rabdan,
Karomat ro‘zi qildim shu sababdan.

Alar otin vali qilmish qatinda,
Azalda sevmish ani hazratinda.

Nasihatdir bu so‘zlar xush bilana,
Bilib joni bilan rag‘bat qilana.

Ilohi, qullaringga yori bergil,
Qilib ehson behisht gulzori bergil.

Nasib et xayr quchmoqni qulingga,
Minib ot anda uchmoqni qulingga.

Rasuldan ochildi bu so‘z bardavom,
Sevar ummatlarga bu so‘zdir in’om.

Dag‘i bor jannat ichra bir shajar ham,
Aning mevasi ko‘p ey yori hamdam.

Suchukdir boldan ham yumshoq ko‘pukdan,
Dag‘i pokizadir toza mush(u)kdan.

Yedirmas mevasin qullar bariga,
Magar yedirar namozxon qullariga.

Namozxon bo‘l, namozxon bo‘l, namozxon,
Namozxonlarga bo‘lgay shunday ehson.

Barcha ishlar boshi bilgil namozi,
Namoz ochgay sakkiz jannatga izi.

Namozsiz qullarga ul kun zimiston,
Ishi dushvor, ochilmas bandi zindon.

Xudovand-o, musulmon ayla bizni,
Muvahhid ahli imon ayla bizni.

Yomon yo‘ldan, yomon yo‘ldoshdan, ey Haq,
O‘zing samara ber ishimga mutlaq.

Tortarman har zamon dard ila ohi,
Bu ohim qilma behuda Ilohi.

Xabar ichra Rasuldan dur sochildi,
Uyg‘ondi jon, ko‘ngildan zang ochildi.

Dedi, xalq etdi Haq hur qizlarni,
Ki to‘rt rangdan, ayo odam, negizi.

Biri oq, biri yashil, biri sari,
Birisi surhining layl-u nahori.

Badanin za’faron mushkdan etmish,
Dag‘i kofuri anbardan tuzatmish.

Sochi hurning qaranful deb aytayin,
Bu asli xush isli far[1] erur tayin.

Oyoq barmog‘idan tiziga tegru,
Xush isli za’farondir, ey mohiro‘.

Tizidan to badanga mushki azfar,
Badandan to bo‘yinga mushki anbar.

Bo‘yindan to boshi kofurdan o‘lmish,
Ajoyib qudrat ila xush tuzalmish.

Ko‘rganlar ko‘z ololmagay aslo,
Nechuk vasf etsa ham undan adno.

Hur teginsa dunyoga bir marta gar,
Jumla jahonni olar mushki anbar.

Yozilmish siynasiga har birin yodi,
Xudoning otlaridan biror bir oti.

Ikki gardan orasi to‘rt yog‘och yo‘l,
Bu so‘zdan ma’ni angla, ahli ma’qul.

[1] **Far** — shukuh.

Ulug‘likda ajab zebo mohiro‘,
Ko‘rgan ko‘zga alarning joni diljo‘.

Ki har qo‘lida o‘n tilla bilazuk,
Dag‘i har barmog‘ida shuncha uzuk.

Har oyoqda yana o‘n burmasi bor,
Barchasi lu’luyi javhardan, ey yor.

Har ne istar bo‘lsang anda muhayyo,
Bo‘lur o‘pmag-u quchmoq tamosho.

Dema, ey kimsakim — ahli ma’noni,
Ko‘ngildan tutsa do‘st ushbu jahoni.

Xudoyo, ma’ni ko‘zlarin o‘zing shod et,
Ki ko‘nglim xonasin anda obod et.

Umid mendan,
karam senda Xudoyim,
Bahra hol uzra qilgil lutfni doim.

Rivoyat Ibni Abbosdan qilinmish,
Ajab so‘zdir Rasuldan naql o‘lmish.

Dedi, jannatda ko‘rdim bir ajib hur,
Dedilar, oti aning Lenitadur.

Yaratmish Tangri to‘rt narsadan ani,
Ki anbar, mushk, kofuri za’faroni.

Ki hayvon suvidan balchiq suvalmish,
Ajoyib zeb-u zevardan tuzalmish.

Hama hurlar aning ishqida vola,
Ki ko‘rsak deb qilarlar zori nola.

Tupursa gar bir bora bahrga ul pok,
Suvi bo'lgay shakardan ham shirinroq.

Ko'rgan ajralsa, kunduzi bo'lar tun,
Bo'lar bexos alar jigar-bag'ri xun.

Yozuvli siynasida ushbu xat bor,
Menga har bir kimsa juft bo'lmak istar.

Ki uning toqati Rab birla bo'lsin,
Havo birla havosin ortga sursin.

Sahar xush uyquda qil barcha zori,
Xudodan istagil tavfiqi yori.

Ki ul lutf egasi koni karamdir,
Ki bahri qatida olam adamdir.

Ki yo'qdir asillarga o'zga chora,
Aning bir zarrasi, bil sad hazaro.

Uzilmas qo'llaridan dast umidi,
O'zi derki bo'lma hech noumidi.

Xabardir Ibni Ma'suddan bu aqvol[1],
Rasuldan qildi naql sohibi jamol.

Adan jannatini Haq ul dam yaratdi,
Ki Jabroyilga qudrat amrin etdi.

Dedi, bu jannatni sayr et bu soat,
Ko'rgin, qullarga bo'lmish ne shafoat.

Ki Jabroyil borib tavof etdi borin,
Ajoyib ko'rdi bo'ston lolazorin.

[1] **Aqvol** — so'zlar.

Ki vasf aylarga bulbullar tili lol,
Eshitganlar bo‘lur vasf etsa, behol.

Kezardi sayr etib ul haqi amini,
Ko‘rardi, tinglardi zeb-u ziyni[1].

Yo‘liqdi joriya ul vaqt, ey yor,
Tabassum qildi Jabroyilga yak bor.

Ki tishi oqidan jannat butunlay,
Ishiqlandi[2] tamom, ey mardi shunday.

Yiqildi Jabroyil, kim sajda qildi,
Gumon avval yuz obdan jilva qildi.

“Ko‘tar bosh” deb nido qildi ul cho‘ri,
Nega sajda qilursan,
kel menga to‘g‘ri.

Ko‘rib ul dam ani tang etdi bisyor,
Ajab ziynatlamish qudratli jabbor.

Dedi ul joriya ul dam, menga boq,
Kimlar uchun yaratibdir meni Haq.

Bilurmisen, menga bir qilgil izhor,
Nechuk banda ekan bo‘lgay menga yor.

Javob bermishki Jabroyil o‘shal dam,
Bu ishlarga mening ham donishim kam.

Magar o‘zing bilursan deb so‘zladi,
Eshitsam deb javobin ham ko‘zladi.

---

[1] **Zeb-u ziyn** — zeb-u ziynat ma’nosida.

[2] **Ishiqlandi** — yorug‘ bo‘ldi.

Yaratmishdir aning uchun meni Haq,
Rizo bo‘lsa Xudo, har holda, mutlaq.

Havo birla havasdan bo‘lsa ul dur,
Izo yemasa andin kimsa to mo‘r.

Va, har holda, rizo jo‘yanda bo‘lsa,
Rizosin istasa, har qayda bo‘lsa.

Men aning jufti deb berdi javob ul,
Qilur jannat uchun bag‘rin kabob ul.

Qattiq holdir rizo bir qulga tutmoq,
Izi har kimsadan kim tek yuvitmoq.

Pisand aylar ko‘rar na bo‘lsa harchand,
Ichirsa zahri zaqqumni bilur pand.

Jahon ichra hamma noxush anga xush,
Bo‘lur o‘zgalarga har hol qilib bo‘sh.

Xudoning qahri, lutfi yonida teng,
Barobar ko‘rinur anga hamma rang.

Barobardur anga sevmag-u o‘gmak,
Tag‘in bir er ishidir yukni chekmak.

Bu holni qil nasib xos qullarga sen,
Shariat ber musulmon ellarga sen.

Xabordor et tariqat yo‘llaridan,
Madadxoh qil haqiqat ellaridan.

Haqoyiq ahlini duch et g‘aribga,
Ko‘ngil dunyoni tutmasin habibga.

Yetar jononiga jondan kechganlar,
O‘zini yo‘q aylab sondan kechganlar.

Xabardur ul Rasuldan tingla, ey jon,
Eshitsa bovar aylar ahli imon.

Dedi, ko‘rdim sakkiz jannat ichinda,
Bino aylar maloyik ko‘shklar anda.

Biri kumush, birinj[1], biri tillo,
Tuzaturlar binosini ziynat ila.

Qarab turdim, binodan chiqdilar el,
Qaradilar bu holatda o‘ng-u so‘l.

Savol etdim nega forig‘ turarsiz,
Gohi forig‘ bo‘lib, goh qo‘l urarsiz.

Dedilar, zikrga tursa qasr egasi,
Qo‘l urarmiz turib, bitgay binosi.

Qachon ul zikridan forig‘ bo‘lganda,
Binodan qo‘l tortarmiz biz ham anda.

Davomi Haq zikrin et, ey baxti xush yor,
Sening ishing doim qilsin malaklar.

Ishing bitmas agar g‘ofil yotursan,
Xayf g‘aflat birla umring o‘tirsang.

Xudoga bandalik qil, ey xiradmand,
Zikridan lazzat ol misli shakar, qand.

Xabarda keldi, tinglagin so‘zimni,
Agar chandiki xayr bilsang o‘zimni.

[1] **Birinj** — bronza.

Kishikim ro‘za tutsa ro‘za oyi,
Anga ne’mat berur tong-la Xudoyi.

Kuniga huri iyndan qizi zebo,
Xudo bergay, eshit, ey joni shaydo.

Tolibdirlar anga dur ila xayma[1],
O‘zingdan o‘zga ko‘rmabdur, g‘am yema.

Ki har hurga qurlishmish taxti yetmish,
Qizil yoqut erur, ey baxti bitmish.

Har taxt ustida yetmish to‘shak bor,
Muhabbat birla soyim[2] anda yoylar.

Yana ming cho‘risi har hurning anda,
Ki oltindan varaq alar alinda.

Alar ziynat bilan oldinda turgay,
Bo‘lur paydo ularni kimsa ko‘rgay.

Kishi kim bo‘lsa soyim ro‘za oyi,
Bu shavkatlar anga bergay Xudoyi.

Gar Haq bandasi bo‘lsang,
ro‘zani qo‘yma,
Ki shaytoni lainning izidan yurma.

Ergashib ayrilmagil, kel, bunday hurdan,
Boshqa ish topilmas ushbu huzurdan.

Vafosiz dunyoning kamdir huzuri,
Bitgan ish yo‘q, jafodir quri-quri.

[1] **Xayma** — chodir.

[2] **Soyim** — ro‘za tutuvchi.

Xabardir Mustafodan bu so‘z, ey yor,
Imon shami bo‘lgan odam teng aylar.

Ajab sahro sirotning engsasinda,
Ki pokiza og‘ochlar bordir anda.

Tubidan har og‘ochning ikki daryo,
Oqar-ketar bari jannat sariya.

Biri jannat o‘ngidan, biri chapdan,
Tuzatmish lutf ila Haq bo‘yla cho‘ldan.

Sirotdin mo‘minelar[1] chun kecharlar,
Qattiq suvsab o‘sha suvdan icharlar.

Hisobgohda bo‘lur kunki turibdir,
Chang-u tuproq, mashaqqatlar ko‘ribdir.

Ichgandan so‘ng yetib sinoatga suv,
Xayolot, g‘ill-u g‘ash bitgay imon hu.

Bu suvlar kim qachon qorniga borgay,
Najosat, bavl-u qon andan ayrilgay.

Ki ich-u tashingni poklagay ul suv,
Izi yo‘q yomon hujayrada bir mo‘.

Kelgay alar, yana bir hovzi digar,
Tushar hovuza, bo‘lar nozik badanlar.

Terisi yumshoq alarning ipakdek,
Yuzi bo‘lgay tamoman to‘lin oydek.

Jasad pokiza misli mushki anbar,
Ki xushbo‘ylikda alar to sarosar.

[1] **Mo‘minelar** — har bir mo‘min.

Tamoman bobi jannatga kelurlar,
Ko‘rib andin tafarrujlar qilurlar.

Qizil yoqut binosi bo‘yla xush oy,
Bo‘lib xushvaqt gohi derlar ki hay-hay.

Qoqar har biri ul dam bobi jannat,
Ochar bob, keldi deb as’hobi jannat.

Chiqar hurlar sevinib ul dam, ey yor,
Ki har birisi o‘z erin quchoqlar.

Aytar ul hur: sevarim sen erursan,
Xudoyim rozidir, men rozi sendan.

Qo‘yarim yo‘q qo‘limdan endi hargiz,
Bo‘lar bir-biriga ul qandi-shakarrez.

Kirarlar jannat uyiga salomat,
Sevar yori bilan bari tomamat.

Ne xushdirkim, kelganda jufti chiqmoq,
Sevar yor deb shirin so‘z birla boqmoq.

Berur har mo‘minga bir ko‘shki anda,
Ki yetmish taxt quribdirlar ichinda.

Ki har taxtda yana yetmish to‘shak bor,
Har birida yetmish nafar hur tayyor.

Ki har bir huri yetmish hulla kiymish,
Oyoqlarin to‘shak ustiga qo‘ymish.

Bu hulla tashidan qarasang, ul hur,
Go‘yo suyak ichidan ilik ko‘rinur.

Agar tavsif etsam-chi hurlarni men,
Ki hayron qolarsan, og'zing ocharsen.

Yerga tushsa alar sochidan bir qil,
Ishiqlangay bu yer ahli tamom yil.

Xudoyo, ushbu hurlardan nasib et,
Bizni mo'min muvahhiddan[1] hasib et.

Bu qalbim, nasiyamni sofi qilg'il,
Qulim deb, qul kabi istid'o qilg'il[2].

Rasul aytdi bu so'zni tingla, ey jon,
Inonsang senda bo'lgay nuri imon.

Tamom jannat ichi ravshan bo'libdir,
Hamon yoqqan kabi nur ustiga nur.

Bu jannat ahli yotmas ul makonda,
Ne kun bo'lgay, ne oy, ne kecha anda.

Ne uyqu bo'lgay, ne-da o'lim bor,
Aning chun uyqudir o'lim bila yor.

Yettita to'da bor jannat tashinda,
Aylanishar shu jannat tegrasinda.

Kumushdandir shu avvalgi guruhi,
Ikkinchisi zahab, ey mardikori.

Bu yoqutdir uchinchisi aning ham,
To'rtinchisi lu'l-u dur jonga marham.

---

[1] **Muvahhid** — yagona Allohga e'tiqod etuvchi.

[2] **Istid'o qilmoq** — yolvorib so'ramoq.

Ki beshinchi dur, oltinchi zabarjad,
Yettinchi nurdir, ey farzona farzand.

Ki besh yuz orasi har bir to‘daning,
Dedim, budir ki bo‘lsa irtiboting[1].

Nasib qil qullarga ko‘rishni, ey Haq,
Ko‘rib ichkariga kirishni, ey Haq.

Yana jannat ahlidan so‘z aytayin,
Eshitgil alarning vasfin deyayin.

Agar yori qilursa Haq quliga,
Solur ko‘ngliga, keltirur tiliga.

Mujarrad navjuvodir jannat ahli,
Saqol bo‘lmas, yomon go‘y bitmas asli.

Magar erlardur yosh murutlar,
Yuzida qoshi birla kiprigi bor.

Chekilmish surmalar ham ko‘zlariga,
Barcha tuklar ham yumshoq o‘zlariga.

Ayol-erkak ajralmas — bo‘lmas anda,
Magar tojlar ayollarning boshlarida.

Aning toji xo‘roz tojidek bo‘lgay,
Badanlar bu nishona birla bilgay.

Burnida, qosig‘ida, qo‘ltig‘ida,
Tuki bo‘lmas, bu so‘zni yaxshi tingla.

Boshida toji bo‘lgay, qoshlari ham,
Ki o‘n besh yoshda bo‘lgay yoshlari ham.

[1] **Irtibot** — bog‘lanish.

Qarilar yigit bo‘lib bir holga ketgay,
Sabiylar kattarib bu yoshga yetgay.

Ovozda Dovudning ovozini haq,
Berur Yusuf jamolin, tingla mutlaq.

Jahon xalqiga qo‘ymish yuz jamoli,
Bu to‘qson to‘qqizi Yusufning holi.

Bo‘lib birisini g‘ayriga bermish,
Ko‘z ochgan qudratin oshkora ko‘rmish.

Ayoli, erkagi barcha jamollig‘,
Hamma suratda,
siyratda kamollig‘.

Ko‘rib oshiq bo‘lar shunday jamola,
Ki hargiz boqmagil bu mulki-mola.

Ki kun kundan jamoli husn ortar,
Tutar zeb ila ziynatlar saro-sar.

Nechuk ortar haramlarning jamoli,
Bu dunyo ishratidan bo‘lsa xoli.

Ki hargiz bo‘lmagay andisha, qayg‘u,
Bo‘lur pesha alarda yegu-ichgu.

Kiyib hulla, ajab davron etarlar,
Buroq otlar minib, sayron etarlar.

Borib kavsar suvidan xush icharlar,
O‘pib mahbublar-u hurlar qucharlar.

Desam, har bir kishi unda ichar, yer,
Xudo yuz kimsacha anga quvvat ber.

Jimo etsa agar mahbub ila ham,
Ki bo‘lmas, lazzati yuz kimsadan kam.

Ayol-erkak bu dunyoda suyishgay,
Bu shahvat lazzati birla o‘pishgay.

Murodi bir-biridan bo‘lsa hosil,
Malul bo‘lgay bilar bu so‘zni oqil.

Bu uchmox ahli bir-birin quchanda,
Hayo pardasi oradan ko‘chanda.

Bu sevgi birla ul holat yopishgay,
Ki lazzat ila o‘zaro topishgay.

Hargiz bir-biridan ayrilmas alar,
Chu sakson yil kechar, horimas alar.

Bu dunyoda derlarki ellik ming yil,
Ki uchmox ichra bir kundir, ani bil.

Jimoni qayta qilsa kunda bir bor,
Bikir topgay shu hur qizlarni alar.

Xudoyo, mo‘min ahlin begumon et,
Bu ta’rifni eshitsa shodimon et.

Ayo, bu jon ko‘ngil mushtoqi bo‘lsin,
Tilaklari bu mulki boqiy bo‘lsin.

Bu so‘zkim, Ibni Abbosdan tuzildi,
Aniq jondan quloq bu so‘zni bildi.

Xudoning do‘stidir mevalar ekkan,
Taomlar orzulab qalb ila tikkan.

Kelar yetmish ming ul holatda cho‘ri
Kel, qudrata boq, eshit bu so‘zlari.

Keltirgaylar dur, yoqut avoniy[1] anda,
Ki yetmish ming dasturxon soni anda.

Ki har xonda[2] ming oltin g‘obi bo‘lgay,
Kimni vasf aylamakka tobi bo‘lgay.

Ki har g‘ob ichra yetmish ming taom bor,
Tamoman rangi o‘zga ko‘rmamish nor.

Ne tabboxlar[3] pishirmishdir ani ham,
Ne qozon ichra qaynab ko‘rmamish dam.

Validir qudrat ila “bo‘l” dedi Haq,
Jafosiz, bemashaqqat bo‘ldi mutlaq.

Vali yegay o‘shal turli taomni,
Ayoli ham birla xushvaqt tamomi.

Taomlardan yeb bo‘lingan zamonda,
Havodan qushlar inar, ya’ni anda.

O‘shal erning boshi uzra turarlar,
Ki qanot-qanotga, ya’ni urarlar.

Aytarlar, ey vali, qushmiz, ucharmiz,
Ki kofur, salsabil suvin icharmiz.

Joy tutib jannatda o‘t va suvindan,
Yeyarmiz turli alvon gullarindan.

---

[1] **Avoniy** — idishlar.

[2] **Xon** — dasturxon.

[3] **Tabbox** — oshpaz.

Ajab pokiza etlar bizda mavjud,
Sizing chun yaratmishdir bizni Ma'bud.

Qilar orzu o'shal holat ani ham,
Tushar xon ichra qushlar mast o'shal dam.

Xudo izni bilan biryon bo'lurlar,
Ani yeb xush navozishlar qilurlar.

Tirilib yana qushlar qudrat ila,
Uchib ketar ajoyib ziynat ila.

Kamoli qudrat ko'p erurkim Xudog'a,
Jon ko'zing ochib qara sog'-u so'lg'a.

Nechuk qudrat bilan olam tuzubdur,
Bilar kim bahri irfonda suzibdur.

Ilohi, fazl ila och chashmi-jonni,
Ki asror ilmidan so'ngra maoniy.

Ilohi, to'g'ri yo'lla haq yo'lina,
O'zing yetkaz haqiqat manzilina.

Ilohi, chora qil bechora zora,
Yetur manzilga, qo'yma ixtiyora.

Bu qul derki, so'zlarga so'zim yo'q,
Uyatlig'man ne ko'zlarga ko'zim yo'q.

Bu uchmoxning taomi foniy bo'lmas,
Yeb-icharlar hargiz poyoni bo'lmas.

Misoli dunyoda Qur'on turur bu,
Bilib bildirmak ila tuganirmu?

Suyak bo‘lmas etida, mevada dog‘,
Dag‘i bo‘lmas u yerda illat-u yog‘.

Dag‘i issiq, sovuq ul yerda bo‘lmas,
Muloyim yer unar, hargiz kamilmas.

O‘lim yo‘q, qayg‘u yo‘q, andisha yo‘qdir.
Namoz-u ro‘za hargiz pesha yo‘qdir.

Ajab pokiza joy, ahli karamlik,
Tavoze, bir-biriga marhamatlik.

Urush yo‘qdir, jadal, behuda so‘z ham,
Tamosha, zavq etar anlar damo-dam.

Yana aytdi payg‘ambar ushbu qavli,
Taomli mevalar yer jannat ahli.

Bo‘lar xushbo‘y yegan ham ichgan anda,
Ki kofur, mushk isidek har yeganda.

Misoli dunyoda farzanda mangzar,
Necha muddat onaning qorninda yoylar.

So‘rar qon kindigidan to bo‘lar sir,
Har nedakim tutar pok ani taqdir.

Ki yo‘q yerdan yaratgan Moliking bor,
Agar pok saqlar esa na shaking bor.

Tani nafsing avval, so‘ng Haqni tani,
Haqoyiq oldi-ku o‘zingdan ma’ni.

O‘zin bilib, oshoq[1] tutgan validir,
Vali qul shaksiz uchmoxning elidir.

[1] **Oshoq** — past, oddiy, kamtar.

Hamma mo‘min-musulmon gina tutmas,
Ki gina ahli, shaksiz, dinni tutmas.

O‘zin bilmas tutibdir quruq gina,
Ki hargiz kelmagay kin ahli dina.

Bu mo‘min soddadil shakkok emasdir,
Munofiq agar shakdan pok emasdir.

Behisht vasfi tamom bo‘ldi bu yerda,
Salom mendan yetishsin ahli darda.

Arab, forsi tilidan tonishim yo‘q,
Arablar, forsilar birlan ishim yo‘q.

Bu turkiy yorlarga nazmim tuzatdim,
Duo birla yodlagay deb ko‘zatdim.

Meni ayblamang ey turkiy yoron,
Chiqar o‘t yo xo‘l-u yo bo‘lsa boron[1].

Bu aqlim yetganin nazm etdim ushda,
Parishondir bu ko‘nglim yuz ming ishda.

Jahonda ko‘pdurur shavkatli mulla,
Arabga, forsiyga quvvatli mulla.

Alarning bilganicha bilmadik biz,
Hamon suhbatlarini ko‘rmadik biz.

Ko‘rib ayb etmasinlar nazmi-langni,
Tutub bahs urmasinlar biza jangni.

Bizam bilgan nasihat pandi, ey yor,
Bu turkiy yorimizga qildik izhor.

[1] **Boron** — yomg‘ir.

Yiroq daryo suvidan bo‘lmasa sud[1],
Tiladi bilmay alar bizda maqsud.

Bu loyiq holimizni so‘zladik biz,
Ki ta’na nayzasini ko‘zladik biz.

Netay lozim, zarurlikdan bu so‘zni,
Dedik, ta’na o‘qiga qo‘ydik o‘zni.

Suvi ko‘p yerda oz suvlarni ko‘zga,
Kishi olmas, quloq tutgil bu so‘zga.

Toki cho‘l yerda ham ul suv bo‘larmish,
Ani suvsiz kishi ko‘p deb olarmish.

Mening nobud suvim deb oling yor,
Bu nokasni gumonda kas qiling yor.

Toparsan e’tiqodingni bu yo‘lda,
Yog‘ar rahmat suvi goh-gohi cho‘lda.

Ajab ermas kezarkan mo‘ri cho‘li,
Ki gardun xirmoniga tushsa yo‘li.

Ko‘zi ko‘r och chumchuq aylanib cho‘q,
Jo‘xori yo tariq topsa — ajab yo‘q.

Menga tag‘in etma, ey quvvatli yorim,
Yashirmasdan chiqardim har na borim.

Uyalmas borini bergan demishlar,
O‘zi bilgay ravo etmay demishlar.

Umid sizdan yemakdir ushbu nonni,
Topa bilsa ayamas banda jonni.

[1] **Sud** — foyda.

Bihamdillah tamom bo‘ldi bu takrir,
Ki ming yuz yetmish o‘lmish erdi tahrir.

“Behishtnoma” qo‘yildi asarga ot,
Tuzatmish nazm ani miskini Ozod.

Yozgan ham o‘qigan, ham tinglagan yor,
Bo‘lur beshak behishtiy, ko‘rmagay nor[1].

Tammatul kitob.


Bi avnil maliki vahhob,
Vallohi a’lam bis savob.

Bitdi

[1] **Nor** — olov.



MASNAVIY



Bismillahir rohmanir rohim

Hamdilillah, shukrilillah ul Haqa,
Tarbiya berdi bir hovuch tupraqa.

Xush ajoyib ko'rkli suvrat etdi ul,
Berdi jon-u otlarin o'rgatdi ul.

Zikri Subhon ila ul ochmish zabon,
Sevdi Haq o'zi ani jahr-u nihon.

Dag'i bir xush surat anga qildi yor,
Aysh-u ishrat birla qildilar mador.

Bir-bira yondashishni qildi sabab,
Berdi alarga o'kush[1] avlodni Rab.

Xoli erkan, to'liq bo'ldi bu jahon,
Mo'min-u kofir, hama yaxshi-yomon.

Oshkor etdi Ul, meni bilsin, dedi,
Amr etib, qullik menga qilsin, dedi.

Bizdan o'tru bo'ldi[2] paydo kulli shay,
Bizni Xoliq o'zi uchun qildi hay.

Qornimiz ham to'ydi yeb ne'matlarin,
Bilsa yaxshi qul aning mehnatlarin.

[1] **O'kush** — ko'p, talay.

[2] **O'tru bo'lmoq** — ro'para bo'lmoq.

Bu jahon ne'mat guli sarxonidir[1],
O'zi aning hokim-u sultonidir.

Qullariga qismat etgan qosim ul,
Ne bersakim bandasiga hokim ul.

Qismat etmish har kimga ro'zi azal,
Ortiq olmas aylasa-da yuz amal.

Bandaga loyig'i shu — qone bo'lmoq,
Nafs itni qo'yvorsa gar, mone bo'lmoq

Xos qul erur ul Rasulullohina,
Haq bilib aytar salovat jonina.

Do'stlarin do'st, dushmanin dushman bila,
U tirilur Mahshar kuni shafqat bila.

Bas, shahodat zikrin aytgay til bila,
Ham dag'i qalbi bilan tasdiq qila.

Besh namozin Haq uchun qilgay mudom,
Ro'za tutgay sidq ila mohi siyom[2].

Ham zakot qilgay ado moli bilan,
Haj qilar eson-omon holi bilan.

Qullarga tavfiq-u toat ber, Xudoy,
Ikki olamda qo'yma muztar, Xudoy.

Qullaringning doimo Sen yorisen,
Nasib qilgil oshiqqa diydori Sen.

---

[1] **Sarxon** — dasturxon ma'nosida.

[2] **Mohi siyom** — ro'za oyi.

Banda bo‘lsang, Tangriga qil bandalik,
Ro‘zi mahshar tortma hech sharmandalik.

Bandalik shudir — Xudoning farzini
Qil ado, bo‘yningdan uzgin qarzini.

Ham dag‘i tutgil Rasulning sunnatin,
Jon bilan qilgil ul erning xizmatin.

Vojib o‘lmish tutmoq amrin, ey vali,
Tangriga eltar seni sunnat yo‘li.

Farz ila sunnatni tutgay ahli xos,
Ro‘zi mahshar qo‘rquvdan bo‘lgay xalos.

Farz ila sunnat ikki odil guvoh,
Tutsa mahkam kim qabul aylar Iloh.

Bu ikkisin tutmasa, o‘tmas so‘zi,
Bandaman demak uchun bo‘lmas yuzi.

Bandaga darkor imon, so‘ngra namoz,
Vasfi holin, kel eshit, ey ahli roz.

Tangrining xushnudligidir besh namoz,
Ham malaklar do‘stligidir besh namoz.

Bu namozdir anbiyolarning yo‘li,
Ma’rifat bo‘stonidir ochgan guli.

Bu namoz, ochiq aytsam asli — imon,
Kim o‘qisa, ko‘nglida qolmas gumon.

Ham duolarga ijobatdir namoz,
Ham dag‘i maqbuli toatdir namoz.

Rizqingga ham bu namoz barakotdur,
Badanga ushbu namoz barahotdur.

Ham salohidur tamom mo‘minlaring,
Ham sitam berguchisidir jinlaring.

Ha, egasiga shafoat etguvchi,
Ham dag‘i darmondalar qo‘l tutguvchi.

Ham chirog‘ bo‘lgay yana qabr ichra bil,
To Qiyomat bo‘lguncha, ey ahli dil.

Ham ulug‘ mahshar kunida bu namoz,
Soya bo‘lgay ustingga, ey dilnavoz.

Boshingga toj, egningga bo‘lgay libos,
Rahim issiqdan qilur beshubha pos[1].

Nur bo‘lib oldingda chopar har qayon,
Yetkazar manzil maqomga begumon.

Parda bo‘lgay do‘zax ila orada,
O‘tga yondirmas egasin, ey dada.

Haq taolo qoshida bo‘lgay dalil,
Haq yorlaqag‘ay ani so‘zsiz — xalil.

Ham tarozu pallasin qilgay og‘ir,
Qo‘ymagil hargiz namozing, ey sag‘ir.

Ham sirot uzra salomat kechirur,
Ham dag‘i do‘zax o‘tini o‘chirur.

Bas jannat saroyiga kirgan mahal,
Bu namoz kalit bo‘lar beqil-u qol.

[1] **Pos** — qo‘riqlash.

Besh namozing ul jahon ichra sani,
Maqsadingga yetkazar, qo‘yma ani.

Besh namoz ham din uyining nuridir,
Besh namoz uchmox uyining huridir.

Besh namozdir ziynati dunyo-yu din,
Besh namoz qil,
din uyin saqla emin.

Yoqdi dinin kim namoz tark ayladi,
Yo tilida lafzi kufrin so‘yladi.

Ey musulmon, yoqma dining,
qil namoz,
Qo‘yma bahorda-yu kuz-u qish-u yoz.

FASLI DIGAR

Bir yaxshilik toatingdir,
Besh vaqt namozni qo‘ymagil.
Ikki olam rohatingdir,
Besh vaqt namozni qo‘ymagil.

Besh namozini tark etgan,
Bo‘lur xabislar xabisi,
Ey musulmon, ziynatingdir,
Besh vaqt namozni qo‘ymagil.

Bas juhud, tarsoyi sa’don,
Aksiladir tark etsa gar,
Ey yigit, xush omadingdir,
Besh vaqt namozni qo‘ymagil.

Kimki namozin tark etsa,
Bo‘lar shaytonlar eshagi,
Orting, olding nusratingdir,
Besh vaqt namozni qo‘ymagil.

Tangri haq degan namozni,
Tark etgaymu dunyoda hech,
Haqqa qilgan xizmatingdir,
Besh vaqt namozni qo‘ymagil.

Besh vaqt namoz o‘qiganni,
Ikrom etar jumla malak,
Hurmatingdir, izzatingdir,
Besh vaqt namozni qo‘ymagil.

Chu bandalik qilgin debon,
Xalq aylamish Tangri seni,
Bandalikda minnatingdir,
Besh vaqt namozni qo‘ymagil.

Har kishi qilsa namoz,
Uchmox ani orzu etar.
Uchmox ichra ne’matingdir,
Besh vaqt namozni qo‘ymagil.

Aytgin nasihat so‘zlarin,
Haq qullariga, ey Ozod,
Baski, olam himmatingdir,
Besh vaqt namozni qo‘ymagil.

Qola Nabi alayhissalom

Ushbu payg‘ambar so‘zidur, ey juvon,
Sidqi ixlos aylagil jahr-u nihon.

Har kishi Tangri Rasulin haq bilar,
Bu hadisni, albatta, tasdiq qilar.

Kimda-kim tark aylasa bir vaqt namoz,
O‘zini o‘ldirar pichoqsiz beniyoz.

Ikki vaqt tark aylasa kimsa ani,
Misli o‘ldirdi nabilar barini.

Kimsa gar tark aylasa ani to‘rt karra,
Savobi ketar aning zarra-zarra.

Kimsa qo‘ysa besh namozin dunyoda,
Ul kishiga Tangri aylagay nido.

Deydi, sen mendan-u, men sendan beri,
Chiq jahondan istagin o‘zga yeri.

Tutmading amrimni chun bo‘lding yiroq,
Bormi Tangring mendan boshqa yaxshiroq.

Tangrini bilgan namozin qo‘ymas ul,
Qasd ila iblis lainga uymas[1] ul.

Kim yaratsa, parvarish qilsa sanga,
Aylamassen ne uchun xizmat anga.

Yo‘l berursan dushmanni boshchi tutub,
Xoliqingni, Roziqingni unutib.

Kim egasin do‘st bilar, do‘stin sevar,
Dushmanin dushman bilar, dag‘i quvar.

O‘ng yo‘lni tut, ey yigit, chap rohni qo‘y,
Haq so‘zin tut, ozdirar gumrohni qo‘y.

[1] **Uymas** — ergashmas ma’nosida.

Qullaringni o‘ng yo‘lga sol, ey Zujalol,
Amringga tavfiq ham rizqi halol.

Qullaringni qilmasang bedor o‘zing,
Mastdir alar,
qilmasang xushyor o‘zing.

Qullarga farz ayladi bu besh namoz,
Kim ado etgay bo‘lar ajz-u niyoz.

Ehtiyot birla tahorat aylagay,
Tangriga xolis ibodat aylagay.

Vojib-u sunnat — adab arkonlarin,
Sidq hamda ixlos bilan qilgay barin.

Xoli qilgay g‘il-u g‘ashdan siynasin,
Hamda aritgay ko‘ngillar kiynasin.

Dunyo ishidan ayirgay o‘zini,
Tangri dargohiga tutgay yuzini.

Ham ruku, hamda sujud birla hushu,
Keltirib bechoralik qilgay huzu.

Bandalik qilgay anga joni bilan,
Rozlashar qudratli Subhoni bilan.

Bu kabi xizmatlarni kim bitirar,
Shu qul o‘zin Dargohiga yetirar.

Haq qabul etgay namozini qulning,
Hojatin qilgay ravo, beshak biling.

Gar shariat birla ani tutmasa,
Sidq-u ixlos ila qullik etmasa.

Istasa fazli bilan qilgay qabul,
Rad qilur adli bilan istasa ul.

Rahm egasi podishodir, erki bor,
Kimni istar qullaridan yorlaqar.

Bo‘lma navmid rahmatidan, ey kishi,
Mag‘firat so‘rang hama — erkak, tishi[1].

Haq taolo alarga aylar g‘azab,
Bo‘lmasa alar agar rahmat talab.

Qolma g‘ofil, tolib bo‘lgil Tangriga:
Har ibodatkim qilursen Boriga.

Ul riyochi qullarin sevmas Karim,
Bas, riyo ishdur qulga jurmi azim.

Bo‘lsa agar har joyda oltin, kumush,
Xarjini hech kim qabul etmas emish.

Sotib olsa kimsa gar bir jandani,
Bo‘lsa aning sirli aybi, ey g‘ani.

Ko‘rsa aybin rad qilur olgan kishi,
Budir ixlossiz amal qilgan ishi.

Mard bo‘lsang qilgil durust ixlosi xos,
Barcha xavfdan o‘zingni ayla xolos.

Banda ixlosin o‘zing tuzatmasang,
Alarni sen to‘g‘ri yo‘lga solmasang.

[1] **Tishi** — ayol ma’nosida.

Bas ne bilsin qaysi tomon ketganin,
Ne deganin anglar ul, ne etganin.

Qola Rasulullоh sallallohu alayhi vasallam

Ul Rasulullоh hadisin tinglagil,
Jon-u dildan ma'nosin fahm aylagil.

Kim tahorat qilsa agar soz-basoz,
Erta bilan turib gar qilsa niyoz.

Ham ruku, hamda sujud bilehtimom,
Ajz ila bechoralik qilsa tamom.

Ul namoz oq nur bo'lib yetgay Haqa,
Der egasiga bu so'zni mutlaqo.

Saqlagay lutfi ila Alloh seni,
Chun rioyat bilan saqlading meni.

Qilmasa har kim namozin vaqtida,
Ham durust etmay tahorat, ey dada.

Ham ruku, hamda sujud-u, ham xushu,
Chun tamom keltirmayin bo'lsa furu.

Ul namoz chiqqay qarorib Haq sari,
Sohibiga so'zlagay bu so'zlari.

Zoye etgay ul ulug' Tangri sani,
Zoye etding chunki, ey osiy mani.

So‘ngra esa bu namozi tirilur,
Ul egasining yuziga o‘grilur.

Dargohiga eltmadi der Haq meni,
Do‘zax ichra sudrab elturmen seni.

Etmading chunki menga sen ikkilik,
Olmading ul yaxshi baridan bilik.

Dushmaning men,
chunki parvo etmading,
Tangri amr etgan ishni tuz tutmading.

Turarsan Mahshar kuni amaling bila,
Bu sifatda ul namoz etgay gina.

Tutsa tuz kim shariat yo‘lini,
Xush ko‘rar ul kun savob amalini.

Boshlagay amali xush haqida so‘z,
Bo‘lsa gar amali bad voy-voyi yuz.

Qabr ahlining bayoni

O‘tsa gar bir musulmon qabr yonidan,
Bersa ul Tangri salomin jonidan.

Ul qubur ahli turib der shul zamon,
Dunyo ichra bexabardur bu juvon.

Bas, riyozatda eritmas nafsini,
G‘aflat ichra o‘tkarar avqotini[1].

[1] **Avqoti** — vaqtlari.

Bu azoblar Tangridan bizga yetar,
Pardayi g'aflat ketib tutsa xabar.

Bu jasadda et bo'lardi suv kabi,
Bu suyak a'zo bo'lardi mo' kabi.

Buncha qabr ichra bizga bo'ldi azob,
Bag'rimiz bo'ldi azob ichra kabob.

Anglamay shunday bular harom kezar,
Bu azobga bas nechuk bular to'zar.

Ko'p nadomat aylar alar "Oh" ila,
Bo'lmadik deb zikri "Illalloh" ila.

Fasl

Odam o'g'li, kel, ulug'lar pandin ol,
Haq debon o'zingni to'g'ri yo'lga sol.

Dard chekkandan so'ragil darmoningni,
Pand olib, qilma muazzab joningni.

Olgin ozuq, bil mashaqqatdir safar,
Kimsadan yetmas madad ham purxatar.

Ozuqang nedir debon so'rsang bu dam,
Bas, bayon bo'lsin ul ozuq bunda ham.

Tunda kim o'qir ikki rakat namoz,
Qilsa istig'for etib Haqqa niyoz.

Tutsa ro'za Haq uchun har bir mo'min,
Shul ozuqa manzila eltur emin.

Rahm etar o‘lim farishtasi toki,
Jonin oson qabz etar Tangri haqi.

Hamda berur Munkar-Nakirga javob,
Qabri ichra ham chirog‘dir behijob.

Ham dag‘i yostiq, to‘shak bo‘lgay bular,
Egniga bo‘lgay libos bor tavbalar.

Ham kelindek qabrida munis bo‘lur,
Bir-birining bo‘yniga qo‘llar solur.

Ham qiyomat ul namoz, ro‘za yana,
Soya bo‘lgay ul kishining ustina.

Boshiga toj, hulla bo‘lgay egniga,
Nur olib kelgay keyin ul oldiga.

Parda bo‘lgay do‘zax ila orada,
Ham og‘ir qilgay tarozu, ey dada.

Ham sirotdan yildirimdek kechirur,
Ham behishtga, shubhasiz, miftah erur.

Manzilga yetkazdi bu oq nur seni,
Qildi oxir jannatga loyiq seni.

Ya’ni har ozuq, biling davlatlidur,
Ul egasin manziliga yetkarur.

Bas, namoz-u ro‘za, xayrot aylamak,
Barchaga ehson etibon so‘ylamak,

Oxirat eliga budir yaxshi zod[1],
Ul musofirlarni yetkazgan murod.

[1] **Zod** — ozuqa.

Ber murod fazling-la jumla qullarga,
Ro‘zi qil tavfiq-u toqat alarga.

Podishohsen, lutfi ko‘p, ehsoni cho‘x,
Afv etarsen bandaning isyoni cho‘x.

Qatra to‘ksang rahmating bahridan ob,
Mustahiq qullargadir xayr-u savob.

Uzma umidim tanobin Bir-u bor,
Bas, gunohkor bandamen sonsiz xazor.

Jurm-u isyonimga to‘k afv obini,
Ochgil ehson ila rahmat bobini.

Ber tilimga tavba qilishga nadam,
Ko‘zlarim oqdirsa to‘la-to‘la nam.

Vola [1]quldir so‘zlayur go‘stahvor,
Qish azobin cheksa kim ko‘rgay bahor.

Tinch yoturmu chaqsa kimni mori ishq,
Angrayib, zor kezmak bo‘ldi kori ishq.

Amal o‘rganishning bayoni

So‘rdi Abdullohi Abbosdan birov,
Bir amal o‘rgat menga sen, ey peshrav.

Do‘zax o‘tidan qutqargay ul amal,
Doxil etgay jannat ichra bexalal.

Dedi Abdulloh bu soyilga shuni,
Saqlashing lozim bu o‘n besh narsani.

[1] **Vola** — hayratda qolgan.

Beshini til bilan saqlagil, dag‘i
Beshin a’zoda yuritgil, ey ahiy.

Beshni tutgil ko‘ngil ichra aning,
Haq tamug‘dan saqlagay jon-u taning.

Jannatga doxil qilur beshak sani,
Ya’ni tutsang ushbu o‘n besh narsani.

Til bilan tut dedikim tamjid[1] turur,
Ya’ni Haqdan bir ulug‘ kalim[2] erur.

Ulki a’zo birla tut dedim hamon,
Besh namozdir,
besh namozdir, ey juvon.

Bu ko‘ngil birla dedim tutgil ani,
Ul senga sevmak turur besh kimsani.

Bir Payg‘ambar, to‘rttasi to‘rt yor erur,
Kim sevar, kezgan yeri gulzor erur.

Kim tutar bo‘lsa bu o‘n besh narsani,
G‘am kunida qutqarar beshak ani.

Ul ulug‘ mahshar kunida, ey juvon,
Barcha qo‘rquvdan Xudo qilgay omon.

Kimda bo‘lsa ushbu beshning barisi,
Anga kelgay mushki anbarning isi.

Mushki anbardek gavhar ichi, tashi,
Zikri Haq bo‘lgay aning ob-u oshi.

---

[1] **Tamjid** — maqtash.

[2] **Kalim** — so‘zlar.

Ma'rifat bo'stonida gullar ochar,
Ul haqiqat gavharidan dur sochar.

Xalq aro ulfat bo'laranda qiliq,
Olam ahliga bo'lur ul sevgilik.

Ushbu beshning hurmati chun barchani,
Maqsadin bergay o'shal Rabbi g'ani.

Har kishi kim tutsa doim besh namoz,
Haq taolodan anga kelgay ovoz.

Men Xojangman der anga, kim san qulim,
Ochmisham sendan hozir bu haq yo'lim.

Qildim oson ul sirotdan kechmakni,
Jannat ichra obi kavsar ichmakni.

Qo'shni etgayman seni payg'ambarga,
Ul sevar do'stim,
habibim sarvarga.

Ham dag'i diydorim etgayman nasib,
Bog'i jannat ichra bo'lgil andalib.

Ushbu besh kalimani kimki tutar,
Tangridan har na murodig'a yetar.

Qochgay undan dag'i shaytonir rojim,
O'lganidan ko'rmagay hech xavf-u biym[1].

Har du olam davlati doim bo'lar,
Uchmox ichra jovidon qoyim bo'lar.

[1] **Biym** — qo'rquv.

Shayton dushmanligining bayoni

Odam o‘g‘li, dushmaning shayton erur,
Istagi sendan aning imon erur.

Biri iblis oti — jinlar otasi,
Behisob jinlardir aning po‘tasi[1].

Ul palid shoh o‘zgasidir lashkari,
Odam o‘g‘lin aldamoqdir ishlari.

Bo‘lma g‘ofil, ul sening yoningdadir,
Qayd etar,
ul qasdi imoningdadir.

Bo‘ri qo‘yni istagandek har mahal,
Ul sening imoning istar moh-u sal[2].

Et-u teri orasin maskan tutib,
Misli qondek kezadirlar yugrishib.

Tan aro bir sirli dushmandir sizga,
Tutmoq istarsen,
ko‘rinmagay ko‘zga.

Bunday dushmandan hazar aylang, hazar.
Tangriga doim sig‘insang yo‘q zarar.

“Tasmiya”, “ta’viz” o‘qing “lahavl” ila,
Ul lain bejon bo‘lar bu qavl ila.

Tangrini bir deb, Rasulni haqlamoq,
Durri imon jonda budir saqlamoq.

---

[1] **Po‘tasi** — belbog‘i (sherigi) ma’nosida.

[2] **Moh-u sal** — oy va yil.

Bu laindir ayni durning qoqchisi[1],
Tangri ismin doim aytish soqchisi.

Buyurgan ishlarini qilmoq Haqning,
Nahy etgan ishlaridan kechmoq Haqning.

Farzlar — shohdir,
vojib-u sunnat — vazir,
Mustahab etib asokir[2] burchigir.

Tegrasin tutmish uyning shoh lashkari,
O'g'rini kirishga qo'ymas ichkari.

Ushbu uyning erk xisoridir namoz,
To'rt burchakli berk xisoridir namoz.

Ham temir qopi tahoratdir anga,
Qulf o'lan ikki shahodatdir anga.

Jon ichida ul durni tutsang kerak,
Ul durni yaxshi payrov etsang kerak.

Amri Haqdan joning ayrilmish turur,
Suvrati ajsamga kirilmish turur.

Ma'lum muddat anda jon bo'lsa kerak,
Qabzil arvoh ani ham olsa kerak.

Durri imon tuhfayi jondir Haqqa,
Tuhfasizlar Tangridan boshqa yoqqa.

Tuhfasizlarning yuzidan ter oqar,
Do'zax o'ti tuhfasizlarni yoqar.

---

[1] **Qoqchi** — yulqib olib ketguvchi.

[2] **Asokir** — askarlar.

Amri Haq tut dunyoda joning bila,
Turarsan mahshar kun imoning bila.

Yo iloho, ro‘zi qil imoni pok,
Qullaringni qilmagil hech ahli shak.

Amringga tavfiq-u toat ber Iloh,
Qil karam, qudrat egasi podishoh.

Qullar ila Haq o‘zi ahd aylamish,
Iblis izidan yurmang —
dushman, demish.

Ergashsang o‘ziga yo‘ldosh etgay ul,
Do‘zax ichra sizni tashlab ketgay ul.

Bas, demishdir Haq menga tobe bo‘ling,
Haq Rasulim har na amr etsa qiling.

To‘g‘ri yo‘ldir, ki ko‘rsatdi u siza,
Ummat bo‘lganlar,
inoning bu so‘za.

Yo‘l adashar tutmaganlar sunnati,
Sunnatni tutmas emasdir ummati.

Ummatiman desa da’vosi yolg‘on,
Tark etarmi sunnatin ummat bo‘lg‘on.

Ahli imon sunnat yo‘lini tutdi,
Shubhasiz, maqsad-murodiga yetdi.

Haq yo‘lga kirdi alar johid bo‘lib,
Yig‘layub o‘z aybining ko‘pin bilib.

Kezdi alar xalq aro taqvo tutib,
Zikri haq deb mosivoni unutib.

Alarning ixlosi zohir bo'ldi, bas,
Qilmadilar bu dunyoni hech havas.

Chunki tajrid ila umr o'tkardilar,
Xojati Haqdan tilab qo'l serdilar.

Qani quldek Haqqa qullik etganing,
Ummat bo'lib to'g'ri yo'lga ketganing.

Ko'ngil ichra yuz havas, da'vosi bor,
Hammaning ham or-nomus,
dunyosi bor.

Faxra ketmang dunyoni suymak bilan,
Urmoq, olmoq,
minmag-u kiymak bilan.

Zarra yo'q ko'ngilda Tangri tavbasi,
Til bilan bu so'zni aytarsan, base.

Qul menam, ummat menam, ishim budir,
Dini imon, kori tashvishim budir.

Sir-u pinhoning Haqqa zohir turur,
Botining qudrat ko'zi ila ko'rur.

Ushbu yolg'on so'z base sendan ajab,
Tangri qo'ymish chun senga mo'min laqab.

Mo'min otin endi, kel, mahv etmagil,
Dushmaning iblisdir, izidan ketmagil.

Haq amrini tut, rog‘ib o‘lgil sunnata,
Zohirda ham o‘xshagil sen ummata.

Hosili amaling ham bo‘lsa magar,
Haj etib olgin andan sog‘-u samar.

Botiningni sen tuzatgil beriyo,
Lutfi pinhondan ko‘zlagil beriyo.

Tanadan uchgan mahal bu murg‘i jon,
Rozi qil fazling bilan nuri imon.

Odam o‘g‘li shumligining bayoni

Demish ul Abu Bakr Siddiq bu so‘zi,
Tut quloq, birdan ochilsin jon ko‘zi.

Qarshingizda turmish iblisi lain,
O‘ng tarafda nafsing aylar kibr-u kin.

Ham havo bilan havas so‘lingda bor,
Dunyo ham ortingda qayd aylar hazor.

Jumla a’zo ham yomon ishlar sari,
Doimo undar seni, ey yo‘l eri.

Haq o‘zi hozir-u nozir lo makon,
Barcha qulni jannatga undar royzan[1].

Chaqirur iblis, ki dining tashla der,
Nafsing aytar, istagimni ishla der.

Dag‘i undar ul havo birla havas,
Ishlamak dunyo aro kori abas.

[1] **Royzan** — 1. So‘zi o‘tkir, o‘ktam 2. Dono, aqlli.

Dunyo — chog‘ir, ixtiyor et der mani,
Oxiratni tashlagil der, ey g‘ani.

Chaqirur og‘alaring, base, juvon,
Qil gunoh der,
Tangri birla bo‘l yomon.

Tangri o‘zi jannatga undar seni,
Zikri doim rahmatga undar seni.

Qola Allohu taolo:
“Ulaika yad’una ilan nari vallahu yad’u ilal jannati vamag‘firati”[1]

Ketsa iblis undoviga din yitar,
Ketsa nafsing yo‘liga jon ya’s[2] tutar.

Jon o‘lar, nafsing tirilar,
din yot bo‘lar,
Unutar Tangrini, iblis shod bo‘lar.

Kim havo birla havas yo‘lin tutar,
Zikr unutar, din bitar, aqli yitar.

Har kishi dunyo sevar, dunyo yig‘ar,
Hasratida dog‘lanur, o‘zin bo‘g‘ar.

Bir najosatdir, bitar, gumroh etar,
Oxir bir kun ularni tashlab ketar.

Oxiratda ham azob bordir, hisob,
Ul azob ichra bo‘lar ul qul kabob.

---

[1] Qur’oni Karim 2-sura, 221-oyat. *Ma’nosi:* “Ular do‘zaxga chaqiradilar. Alloh o‘z izni-irodasi bilan behishtga da’vat qiladi”.

[2] **Ya’s** — ma’yuslik.

Har kim a'zo undovin etsa qabul,
Do'zax o'tida bo'lar ul qul malul.

Ushbu a'zo ishlarin bersam xabar,
Ki quloq tutsang menga yo'qdir zarar.

Bas, haromni tutmak istar qo'llaring,
Ham yomon so'z demak istar tillaring.

Ham harom so'z tinglamoq istar quloq,
Ketmak istar ham harom ishga oyoq.

Ko'zlaring ko'rmak tilar nomahramni,
O't yoqar deb yemagay alar g'amni.

Bu vujuding jumla dushmandir senga,
Har biri chekgay yomon ishdan yonga.

Ul yomon ishlar tortar do'zax sari,
Bilding endi jumla bu dushmanlari.

Do'stingni, bas, bilgil endi, ey juvon,
Tavba qil, Tangriga boq jahr-u nihon.

Qil qabul amrini, eritgil joningni,
Din-u dunyo oxirat imoningni.

Andan ista, ul turur koni karam,
Bo'lsa ul ne'mal vakiling yema g'am.

G'am kuninda jumlaning dastgiri Haq,
Sendadir ikki jahon tadbiri Haq.

Olam ichra har ne mavjudoti shay,
Jumlasi sendan bo'libdir tirik, hay.

Hazrati Musoning Haq bilan roz etgani bayoni

Roz aytdi Haq birla Muso Kalim,
Qul yaratmishsen jahon ichra telim[1].

Turli-turli ne'mat in'om aylading,
Kiymak, yemak,
minmak anjom aylading.

Parvarishlar etding ancha, soni yo'q,
Sanashga bir-bir ani imkoni yo'q.

Mo'minlarga loyiq gulzor aylasang,
Dag'i gulzor ichra diydor aylasang.

Do'zaxa yoqmoq senga loyiq dagil[2],
Ne ajab sirdir menga ani degil.

Men-da hayronam, yetishmam bu sira,
Ne'mating parvardasi o'tga kira.

Haq dedi Musogakim ekding ekin,
Parvarishlar aylading jondan yaqin.

Tutda dona ko'karib ul dam ayon,
Komil bo'ldi barchasi jahr-u nihon.

O'rding ani, donasin olding qo'lga,
Ul sapolga qo'yding otash bir yo'lga.

Chunki bilding yonishi foydalidir,
Har sapolkim donasidan xolidir.

---

[1] **Telim** — bir qancha, ko'p ma'nosida.

[2] **Dagil** — emas ma'nosida.

Ekinimdir bu xaloyiqlar tamom,
Parvarishlar aylaram ani mudom.

Donasin saylab alarning men yaqin,
O‘tlaganim ul sapoldir, ey amin.

Har kimning ko‘ngliga ma’ni to‘lmasa,
Tutmay amrin nahyidan gar qaytmas.

Doimo mo‘minlarga bersa jafo,
Umr o‘tirsa dunyoda shudir xato.

Ya’ni do‘nik bo‘lsa ul sultonidan,
Tavbasiz o‘tsa bu doril fonidan.

Ul sapoldek o‘t qo‘yar ularga Haq,
Bergay uchmox ahli imonlarga Haq.

Ahli ma’ni ahli imondir, biling,
Alar ishi doim ehsondir, biling.

Namoz fazilatining bayoni

Aytdi payg‘ambar bu so‘zni, tinglagil,
Tinglabon so‘z ma’nosini anglagil.

Tangri payg‘ambarini har kim haqlasa,
Vaqtida besh vaqt namozin saqlasa.

Ham durust qilsa vuzu birla sujud,
Har ruku hamda qiyom oxir qu’ud.

Haq berur ul bandaga o‘n besh hosil,
Ya’ni ikrom etgay anga zul Jalil.

Bergay uch xislat bu dunyo ichra, bil,
Uchisi ham u o‘lgan holatda, bil.

Uchisi qabr ichidadir, biling,
Uchisi mahshardadir berar, qiling.

Uchisi diydor ko‘rgan holda bo‘lar,
Ya’ni Tangri alarni rahmat qilar.

Uchisin dunyoda dedim, tinglagil,
Bir-bir aytay ma’nisini anglagil.

Biri shu umrin ziyoda aylagay,
Ikkinchi — rizqini kushoda aylagay.

Biri saqlar nafsi hamda ahlini,
Ofati dunyodan angla, ey g‘ani.

Dag‘i uch dedim o‘lim holinda bor,
Aytayin, tingla ko‘nglingga qilsa kor.

Xushxabar kelgay anga o‘sha zamon,
Ki fazodan, u xavfdan bo‘lgay omon.

Uchinchisi jannatga doxil bo‘lur,
Ne murodi bor esa hosil bo‘lur.

Dag‘i uch dedim qabrda ne bo‘lgusi,
Tinglagil, Qodir bo‘lgan ne qigusi.

Munkar-Nakir so‘rovi oson bo‘lur,
Ikkinchidan, aning qabri keng bo‘lur.

Uchinchidan, bobi jannat ochilur,
Turli-turli rahmat anga sochilur.

Dag‘i uch dedimki mahsharda kelur,
Birisi oydek yuzi ravshan bo‘lur.

Ikkinchisi sog‘-u so‘li nur bo‘lar,
Uchinchisi nomasi sog‘dan kelar.

Dag‘i uch diydor ko‘rgan holda kelur,
U kishidan biri Haqdan rozi bo‘lur.

Ikkinchisi Haq anga bergay salom,
Uchinchisi Haq nazar qilgay tamom.

Har kishining bo‘lsa imoni kamol,
G‘aflat ila umr o‘tirmas kulli hol.

Zikri ila bo‘lgay zaboni doim ul,
Jumla uzvi xizmatida qoyim ul.

Ko‘ngli zavq-u shavq ila hushyor bo‘lar,
Ko‘zlari tuni bilan bedor bo‘lar.

Joni Tangri ishqida yonmish bo‘lar,
Ul muhabbat jomidan qonmish bo‘lar.

Ham yomon ishlarni solsa yodiga,
Oh urar Haq yetgudek faryodiga.

Besh vaqt namozini kimki qilsa xor,
Anga ham shundog‘ azob Tangri qilar.

Uchi dunyoda, uchi o‘lgandadir,
Uchi qabrda, uchi hashr bo‘lgandadir.

Uchinchisi diydor ko‘rgan holda bo‘lur,
U kishi diydoridan mahrum qolur.

Uch dedim dunyodadir, tinglar bo‘lsang,
Tinglayib so‘z ma’nosin anglar bo‘lsang.

Rizqi umri aksilur bu dunyoda,
Nur ketar, uchinchi, yuzdan, ey dada.

Uchi dedim alar oldiga kelur,
Och bo‘lar, suvsiz bo‘lar ham xom bo‘lar.

Uch dedim qabr ichra bordir, ey ahi,
Biri aning bo‘lar mozorida dag‘i.

To qavurg‘asi qovurg‘adan o‘tar,
To qiyomat bu azob ichra yotar.

Eshik ochgaylar bu do‘zax naridan,
Topmagay is zarra jannat saridan.

Dag‘i uch dedim dag‘i mahshar uza,
Birisi ul yuzlari bo‘lgay qaro.

Rahmatidan Tangrining navmid bo‘lar,
Nomasi ham dag‘i so‘lidan kelar.

Dag‘i uch diydor ko‘rgan holda bo‘lar,
Ushbu xalq mahshar yerida tirilar.

Tangri hargiz ularga so‘ylamagay,
Ham dag‘i rahmat nazar aylamagay.

Qilmagay alarni yod, banda deb,
Kim magar yod aylagay sharmanda deb.

Aylagay Haq alarni qattiq hisob,
Alar uchun bor erur turli azob.

Besh namozni na uchun xor aylading,
O‘zingni iblis bilan yor aylanding.

Munda ham yoring erur iblis lain,
Bu lain endi aning-la hamnishin.

Gar namozning vaqti kirsa, ey juvon,
Tarqatar lashkarlarin iblis hamon.

Lashkari iblis bu xalq ichra kelur,
Har birin bir ish ila mashg‘ul qilur.

Ya’ni alar bir ish uzra o‘ltirar,
Bas namozning vaqtin alar o‘tirar.

Gar namoz vaqtin o‘tirmasa bular,
O‘zga farz tarkida etgay hiylalar.

Sajdasida ham rukuyinda dag‘i,
Ham qiroat tasbehida, ey ahi.

Hiyla etgay bu lain lashkarlari,
Tark etar mo‘minlar o‘z erkinlari.

Gar musallo ularni tark etmasa,
Jahd etib makkor so‘ziga kirmasa.

So‘ngra kirar qalbiga, mashg‘ul etar,
Ya’ni qalbi dunyo izidan ketar.

Ko‘nglin olur alarning savdo bilan,
Qayg‘u-yu hasrat bilan, g‘avg‘o bilan.

Bo‘lsa ogoh mo‘minning ko‘ngli agar,
U lainlar boshiga la’nat yog‘ar.

Tutgay ul lashkarlarin iblis lain,
Tashlagay alarni zindonga tag‘in.

Derki go‘daklar bitirmadi bir ish,
Urgay alar damiga cho‘x issiq tish.

Ish bitirgan, aldagan lashkarlarin,
Izzat-u iqror etar alar barin.

Bu lainlar hiylasi ko‘pdir yana,
Yaxshi ish qilganlar uza ko‘rsanga.

Tingla endi jumla sabr etganlarni,
Tangrining farmonini tutganlarni.

Bas, zakot berganga aylar vasvasa,
Maqsadi andan zakotin bermasa.

Hiylayi makr ila xayrni man etar,
Ushbu so‘zlarga kim gumrohdir, ketar.

Hiyla etgay ro‘zadorga u dag‘i,
Ya’ni ro‘za tutmagay deb, ey ahi.

Maqsadi bu so‘zdan, ey dono, nadur,
Amri Haq tut, qilma o‘z joningga jabr.

Besh namozni vaqtida qilgil mudom,
Zikri Haq birla uyg‘ongil suhbi shom.

Qari kishilarga Alloh taoloning nido qilgani bayoni

Ibni Abbosdan rivoyatdir bu so‘z,
Buzruk as’hobdan hikoyadir bu so‘z.

Bu hadiskim ani so‘ylamish Rasul,
Ummat bo‘lgan sidq ila aylar qabul.

Tangri aytar bu so‘zni oqshom, saboh,
Oq soqol qullarga, ey ahli saloh.

Yoshulli bo‘lding, soqoling bo‘ldi oq,
Bir zamon fikr aylabon, o‘zingga boq.

Tushdi tish, xiralashdi ko‘z, ketdi kuch,
O‘tdi umring dunyoning ortida hech.

Qomating bukildi, yupqaldi teri,
Ojizlashgan bu suyaklar har biri.

Kelmading men tomon sidqing bila,
Besh kunlik umringni berding yela.

Bas, gunoh ish etishga utanmading,
Tavba qilib hazratimga bormading.

Erta bir kun bu nidoni qilsa Haq,
Kel, eshit joning bilan Haq sari boq.

Tangrining ixlos ila amrini tut,
Bu havo birla havas yo‘lin unut.

Har daming tavba bilan chiqsa kerak,
Gar tavba, ta’sirga bog‘lansa yurak.

Har dam ichra tavba vojibdir sanga,
Zohir-u botin ila bog‘lan anga.

O‘zga har nakim ibodatlarki bor,
Vaqt ila soat anga bo‘lmish qaror.

Tavbaning yo‘qdir qaror-u soati,
Tavba, ta’sir ila qilgil toati.

Ul Rasulkim otidir xayrul bashar,
Kunda yuz tavba qilardi sarbasar.

Senki kimsan tavbasiz o‘tgay daming,
Bo‘lsa dunyo rahbaring ham hamdaming.

Dunyo sevmakdir xatolarning boshi,
Ani sevmak ahli dunyoning ishi.

Bu xatodan o‘zingni tavba bila
Ayla pok, chekkan daming berma yela.

Kecha-kunduz bilgil, ey din tirisi,
U ikki soat turar har birisi.

Soat ichra odamiy ming jamlanur,
Bil gunoh bir dam zikrdan g‘ofil bo‘lur.

Bas, dam olmoq ki zikrsiz ermish gunoh,
Tangriga bo‘l har dam ichra uzrihoh.

Tavba qilsang, tavbaning sharti kerak,
Gar imorat aylasang, ista tirgak.

Bas biling, uch sharti bordir tavbaning,
To qabul bo‘lgay qilgan tavbang saning.

Biri pushaymon aylamak chin-chinidan,
Ikkinchi uzr etmak zabon jonidan.

Uchinchi tan birla gunohdan yonmoq ul,
Zavqi toat birla ham uyg‘onmoq ul.

Qolmagay anda havo bilan havas,
Bog‘lansa gar sidqi ixlos ila kas.

Bu tariqi tavbasin rost aylasa,
Haqqa qoyim zikri-ixlos aylasa.

Tangri do'stlaridan biri bo'lgay ul,
Yoki siddiqlar qatori qo'pgay ul.

Yoki ul abdollarning bo'lgay biri,
Bo'lgay ul ahli zamona rahbari.

Tavbadir jumla ibodatlar boshi,
Tavba qilmoqdir valilarning ishi.

Tavba davlat uyining ochqichidir,
Tavba jumla hojatning bosqichidir.

Tavba ermish barcha erlarga najot,
Tavbadir bergan ko'ngillarga hayot.

Rohati jondir dag'i parvardasi,
Tuxmi —do'stlik oxiratning ko'prisi.

Tavbadir dard-u gunohlarga shifo,
Dardmandlar yarasiga uldir davo.

Tavba bir ipdir, tutar aftodalar[1],
Ham zalil-u kim bo'lgan ovoralar.

Yo'lovchi uchun dag'i nuri basar,
Ham kerak bo'lsa qilgaydir boxabar.

Ham kalitdir mustamilar samiga[2],
Rost zabondir ahli notiq jamiga.

---

[1] **Aftodalar** — zaiflar.

[2] **Mustamilar sami** — eshituvchilar qulog'i.

Qoyim bo‘lish istaganlar qaddidir,
Xavf etganga istirohat saddidir.

Mujdalar bergay umid etganlara,
Amr-nahyini rost tutub kelganlara.

Tavba gavhardir ololmas har kishi,
Durri yoqutdir bo‘lolmas har kishi.

Tangri suygan qullarga aylar nasib,
Aylagan ixlos ila bo‘lgay qarib.

Qilmasang ixlos ila bu tavbani,
Quri cho‘psan, Tangri ko‘kartmas sani.

Go‘yo suv qo‘ygandek ixlos tubiga,
Tavbayi ixlos nedur, tinglasanga.

Banda ixlos amri haqni rost tutub,
Nahyi etgan ishlaridan ham qaytib,

Sidq ila ko‘nglin Haqqa bermakdur ul,
Sir ko‘zi bilan Haqni ko‘rmakdir ul.

Mardi haqdir tavba qadrin bilsa ul,
Barchadan o‘zin shikasta qilsa ul.

Qullaringga qil nasib, ey Bir-u bor,
Soat ichra tavba qilsunlar hazor.

Ko‘ngil g‘amdan ko‘zlarin yosh etgil, oh,
Sharri shaytondan anga bergil panoh.

(Men kotib emasman shikasta xatim,
O‘qigan qoshida ko‘pdir uyatim.

Shod batavfiqi Xudoyi layanam[1],
Bu kitob ro‘zi seshanba tamom.

Zabun bo‘lsa qalam birla siyohi,
Nedur yozguvchi bandaning gunohi.

O‘qigan duosidan umidvorman,
O‘zim ham bir bandayi gunohkorman).

Tarjimon ildirgisi:

(Savob uchun tumli tushga yugurdim,
Turkmaniydan o‘zbakiyga o‘gurdim.

“Masnaviy” — Haqqa da’vat misli oftob,
Guno‘rtada itmomiga yor kitob.

Ya’ni juma peshinda tuganch bo‘lmish,
O‘qiganlar imoniga suyanch bo‘lmish.

Gar nuqsoni bor esa — mendan nuqul,
O‘qiguvchi uzrimni qilgay qabul.

O‘gurdim savob uchun Ozodiyni,
Duoga qo‘shing kamina odini.

Hamdulillah, Yaratgan qulidirman,
Bahodir Nurmuhammad ulidirman).

Bitdi

[1] **Layanam** — uxlamaydigan ma’nosida.

G‘AZALLAR

Uzar

Kim yonsa ishq o‘tina,
Dunyodan qo‘lin uzar,
Haqdan kelgan baloga
Sabr ahli kabi to‘zar.

Ishq o‘ti bir o‘t bo‘lur,
Bo‘lmas tutun ul o‘tda,
Ma’shuqining soyasi,
Har tushgan soyni kezar.

Oshiqlarning ma’shuqi
O‘zin namoyon aylagay,
Oshiq ko‘rib ma’shuqin
Yoridan bo‘lur bezor.

Ishq inkor urar, netar
Avval o‘tga tushar, yonar,
O‘t bo‘lur oxir so‘nar,
Andan bo‘lar Haqqa yor.

Yorlik otdan uzilsa,
Vahdat maqomin bo‘lsa,
O‘zini gar haq bilsa,
Chin banda bo‘lur, ey yor.

Ko‘ngli bo‘lar haq ganji,
Haq uchun chekmish ranji,
Zikri, fikri, quvonchi,
Haq bilgani dam urar.

Suvrat garchi mundadir,
Ko‘ngli Haq yonindadir,
Ko‘rsang bekor banda ko‘r,
Ruhlar birla ul kezar.

Ko‘ngli Baytulloh bo‘lur,
Joni zikrillah bo‘lur,
Darvishi Alloh bo‘lur,
Andan so‘ng tutar qaror.

So‘ngra ey, ey abrorlar,
Haq birla majlis qurar,
Ko‘z ochib diydor ko‘rar,
Istamas o‘zga diydor.

Soliklar xabar bilur,
Tamomi javlon qilur,
Uch yuz oltmish samarlar,
Balki, jannat ichra bor.

Bas, biling mundog‘ erur,
Farosat Haqqa nedur,
Har na so‘zkim aytur ul,
Lavh uzra qalam yozar.

Qo‘li qudrat qo‘lidir,
Tili qudrat tilidir,
So‘zi qudrat so‘zidir,
Shak etib, bo‘lma bezor.

Ozodiy o‘zing tani,
Doim aytgil subhoni,
Haqdan tila imoni,
Rahm etib yo‘ldosh qilar.

Dod, hay

G‘am tumani bosdi ko‘nglimni, ochilmas, dod, hay,
Barq urib boroni[1]– rahmatlar sochilmas, dod, hay.

Kosa-kosa haq sharobin, oh, silk uzra qo‘ymish,
Yo‘q xaridori aning, bir kaf ochilmas, dod, hay.

Rahmati haq aslida u har qarich yerda nihon,
Ustiga to‘g‘ri kelgan yo‘qdir, ochilmas, dod, hay.

Bas tafakkur bayzosin bosgan o‘kush[2] fikr et, or-e,
Va’dayiga yetmay yozar shahboz[3], ucholmas, dod hay.

Rahmating daryosiga poyoni-had yo‘q, ey Ozod,
Bo‘lsa navmid har kishi jurmi kechilmas, dod, hay.

---

[1] **Boron** — yomg‘ir.

[2] **O‘kush** — ko‘p, talay.

[3] **Shahboz** — lochin.

Iqbol ila

Ey yoronlar, netayin o‘zimdagi bu hol ila,
Topmadim bir ahli dilni men bu shum iqbol ila.

Uchmoq istar talpinib ko‘nglim qushi maqsad sari,
Yoyilib ucholmadi porlab bu siniq bol[1] ila.

Yig‘laramkim, qolmisham darmonda g‘arqi ichra, voy,
Umrimni o‘tkazmisham behuda moh-u sol[2] ila.

Har zamon, har damda yuz ming talpinur ko‘nglim qushi,
Topmadi yo‘lin hanuz bema’ni bad qol[3] ila.

Men dedimkim asta-asta ko‘nglima, dunyoni qo‘y,
Qil qanoat luqma birla ko‘hna eski shol ila.

Maqsading ko‘rmak bu kun mumkin emas,
shaydo ko‘ngil,
Bu o‘g‘il-qiz, jamiki asbob-u mulk-u mol ila.

Ey Ozodiy, bo‘l tajarrud, Boriydan maqsad tila,
Hech topgan topgan emasdir yo‘qsa qil-u qol[4] ila.

---

[1] **Bol** — qanot.

[2] **Moh-u sol** — oy va yil.

[3] **Bad qol** — yomon so‘z.

[4] **Qil-u qol** — gap-so‘z.

Koni bor

G‘ofil odam, kel, nasihat xoni[1] bor,
Xon ichinda turli ne’mat koni bor.

Xon ichindan ne’mat yegan odamning,
Hech gumonsiz ko‘nglida imoni bor.

Murda uldirkim nasihat tinglamas,
Zohiran garchi ichinda joni bor.

Zikri Haqdan g‘ofil bo‘lgan odamning,
O‘tsa olamdan aning na soni bor.

Haq azalda kimsani qilsa said,
Bu nasihat mushkidan darmoni bor.

Foniy ichra tutmagan Haq amrini,
Hashrda sonsiz hazor armoni bor.

Tosh ko‘ngilni sol nasihat obiga,
Bo‘lsa tavfiq yumshasa imkoni bor.

Voy agar tavfiqi Haq, yor bo‘lmasa,
Naylasin ul pand bergan yoroni bor.

Hech o‘tarmi urmoq ila toshga o‘q,
Garchi kim qo‘lda po‘lat paykoni bor.

[1] **Xon** — dasturxon.

Zolimning ko‘ngli erur toshdan qattiq,
Nosihning gar ilkida suxoni[1] bor.

Haq ishin oson etar ul bandaning,
Dunyo-oxir har kimning ehsoni bor.

Kim yashasa zikri Haq birla doim,
Ro‘zi mahshar xush kechar davroni bor.

So‘z birla tanbeh berur bu miskin Ozod,
G‘ofir otlig‘ har kimning subhoni bor.

[1] **Suxon** — so‘z, nutq.

Eshit faryodimi

Hamd-u sano sobit senga,
Yo Rab, eshit faryodimi.
Rahm aylabon bu osiyga,
Yo Rab, eshit faryodimi.

Bo‘lsin durudi beshumor,
Haq do‘stiga sad[1] — ming hazor,
Ham oli as’hob chahor yor,
Yo Rab, eshit faryodimi.

Harchandi badkor o‘lmisham,
Oshufta afkor o‘lmisham,
Afvidan umid qilmisham,
Yo Rab, eshit faryodimi.

Luft aylabon tutgil qo‘lim,
Xato so‘ylar biyron tilim,
O‘zing sari boshla yo‘lim,
Yo Rab, eshit faryodimi.

Bahri karamingni baxsh qil,
Ko‘nglimga imonni naqsh qil,
Ham bu yomonni yaxshi qil,
Yo Rab, eshit faryodimi.

Kechdi abas vaqti fato[2],
Voy hasrat-o, voy hasrat-o,
Mendan xato, Sendan ato,
Yo Rab, eshit faryodimi.

---

[1] **Sad** — yuz.

[2] **Vaqti fato** — yigit vaqti.

RUBOIYLAR

1

Kel, eshit, darmonda[1] qullar dodini,
Zori birla ingragan faryodini,
Aylayub taqlid alar zikr aylayur,
Lutf etib ko‘r zavq ila shavq o‘tini.

2

G‘aflat ila zikr etganlar ko‘nglin och,
Dardlidirlar, sen hakimsen, qil iloj,
Qullaring qilmish umid sendan yana,
Rahm etib, kel, rahmating dargohin och.

3

Yo‘lin yo‘qotmish bular darmonda zor,
Ketsa topmas, tursalar yo‘qdir qaror,
Uvlashurlar adashgan itlar kibi,
Qil nido fazling bilan ey Bir-u bor.

4

Ummiydurlar[2], osiydurlar bandalar,
Xizmati loyiq emas sharmandalar,
Lutfi-ehsoning bila tut qo‘llarin,
Barchadin uzmish qo‘lin darmondalar.

5

Tavbayi tavfiq baxsh et hamda nadam[3],
Yorlaqa jumla gunohkorni bu dam,
Chun qachon qullar do‘nib keldi sanga,
Barcha qullardan xato, sendan karam.

[1] **Darmonda** — hayron, qiyin, nochor ahvolda qolgan.
[2] **Ummiy** — savodsiz.
[3] **Nadam** — nadomat.

6

Qullaring chun kelishga yo‘q yuzlari,
Qayda loyiq ko‘zlamakka ko‘zlari,
Qalblaridan sen xabardorsen, xojam,
Tavba, taksir[1] tillarinda so‘zlari.

7

Tavbayi tavfiqi tamkin[2] aylagil,
Raxshi ishqing[3] anlara zin[4] aylagil,
Tillarida garchi taqlid etsalar,
Qalblarin fazling bila chin aylagil.

8

Aylamish qullar hama chirki-gunoh[5],
Afvi obin to‘k alarga yo iloh,
Gar yomondur ketgali yo‘q yerlari,
Sendan o‘zga kimdir alarga panoh.

9

Fazl etib boq bu g‘arib qullaringga,
Osiy, jofiy[6], boy-u yo‘qsullaringga,
Lutfingga loyiq emas garchi bular,
Fayzi-rahmat to‘k hazin dillarina.

10

Mosivodan[7] jumla uzgil o‘zlarin,
Zikri-tasbeh ila aytur so‘zlarin,
Loyiqi diydori jonon bo‘lsalar,
Fazl etib och anlaring jon ko‘zlarin.

---

[1] **Taksir** — ko‘paytirish.

[2] **Tamkin** — haybat.

[3] **Raxshi ishqing** — ishq otini.

[4] **Zin** — egar.

[5] **Chirk** — qabih, jirkanch.

[6] **Jofiy** — jafo qiluvchi.

[7] **Mosivo** — .... dan boshqa, ... dan tashqari.

11

Jumla mo‘minlar panohi sen Xudo,
Afv etgan jurm-u gunohi sen, Xudo,
Zor-u hayron adashgan qullaringga,
Endi ko‘rsat to‘g‘ri rohi[1], sen, Xudo.

12

Bas qattiq haybatlidir mahshar kuni,
Larza urgay barchaning joni, tani,
Ul Rasulning shafqatin qilgil nasib,
Sendan olsin osiy-yu darmondani.

13

Ul Sirotning qopusidan kechmakni,
Havzi kavsar sharbatidan ichmakni,
Barcha mo‘minlarga arzon aylagil,
Ham Buroq ot, xayrlar xush quchmakni.

14

Sayr etib uchmoxda bog‘-u bog‘chalar,
Ham ajoyib ko‘shk-u uylar, tokchalar,
Rang-barang angur-u xurmo — mevalar,
Durri yaqut zarnigor sandiqchalar.

15

Arig‘ining biri sutdir, biri bol,
Biri xamr-u biri suvdir xush zilol,
Bizni shu mo‘minga hamson aylagil,
Ba’zi kun oy-yu nujum, ba’zi hilol.

16

Hulla bo‘lgay, ya’ni ular kiymishi,
Turli ne’mat, turli meva yemishi,
Xush kaboblar, xush sharoblar ro‘zi qil,
Ul sevar qullar mizoji sevmishi.

[1] **Roh** — yo‘l.

17

Salsabil-u zanjabil sharbatlari,
Turli ne'mat, turli to'n kisvatlari[1],
Qullaringdan, yo iloh, qilma darig',
Jumla do'stingga bo'lgan shafqatlar(n)i.

18

To'biy og'och soyasi jannatlari,
Ushbu jannat mo'min bo'lanlar yeri,
Ul Buroqni do'stlara qilgil nasib,
La'l-u yoqut ul murassa egar(n)i

19

Issiq yo'q ham sovuq yo'q ul joy era,
Xastalik yo'q ham o'lim yo'q anlara,
Qayg'usiz, andishasiz qilgay bizi,
Ro'zi aylab, Tangri eltsa ul yera.

20

Har kishining ko'z oldida bari bor,
Mulki asbob, kasfi ayvon dag'i bor,
Qil nasib mo'min bo'lgan xos qullara,
Bo'yi vasli shammayi diydori bor.

21

Haq Rasulullo jivarin[2] qil nasib,
Bizni qilgil jumla aqvomi[3] g'arib,
Ro'zi qilsang jomi ishqdan bizlara,
Bo'lsak ul diydori uchun chin andalib.

22

Sezmasak o'ng ila chapni begumon,
Bilmasak yaxshi-yomon ahli zamon,

[1] **Kisvat** — kiyim, ust-bosh.

[2] **Jivar** — qo'shni.

[3] **Aqvom** — qavmlar.

Zavq-u shavq-u ishqi komil dunyoda,
Naz etar jonni tandan ham imon.[1]

23

Tolibi maqsadga duchor aylagil, ey Bir-u bor,
Tongla mahshar yo'ldosh ayla,
yo Muhammad, chohor yor,
Yo iloho, tolibga hur qizlarni yor aylagil,
Go'r ichida alarning joyini gulzor aylagil.

24

Qodir-o, qudratlisen har narsaga,
Kulli shayga sendan o'zga yo'q ega,
Xoliqi shay, roziqi hay, sen Egam,
Qul qachon vasfingga loyiq so'z deya.

25

Qil nazar bechoralarning holina,
Fazl ila qaragin bad af'olina,
Qaytarib alarni jumla nahiydan,
Lutf etib solgil haqiqat yo'lina.

26

Bu Ozodiy bir qulingdir, xor-u xas,
Foniy ichra umrin o'tkazmish abas,
Lutf etagin tutmishdir umid qo'li,
Ikki olam sen menga faryodras[2].

---

[1] **Naz** — olish, jonni olish; "Jon hamda imon tandan chiqadi" ma'nosida.

[2] **Faryodras** — madad berishga yetib kelgan, ko'mak beruvchi.

MUNDARIJA

Maxtumqulining otasi *(Bahodir Karim)* 3

Va'zi Ozod 11

Behishtnoma 209

Masnaviy 253

G'azallar 289

Ruboiylar 297

D 14 Davlatmammad Ozodiy [Matn]: nazm/to‘plovchi va nashrga tayyorlovchi Bahodir Karim. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. – 304 b.
ISBN 978-9943-8571-8-6

UO‘K 821.512.164-1
KBK 84(5Tur)-5

TURKIY ADABIYOT DURDONALARI

DAVLATMAMMAD OZODIY

91-jild

Adabiy-badiiy nashr

Tarjimon
Bahodir Karim

Muharrir *Dildora Abduraimova*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Dildora Abduraimova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva, Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$.
Ofset qog‘ozi. “PT Astra Serif” garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 19,0. Nashriyot-hisob tabog‘i 12,0.
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 157-1/22 Buyurtma raqami № 22-374

Original maket O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining “O‘zbekiston” nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

“O‘zbekiston” NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

DAVLATMAMMAD OZODIY